


B. ABDURAXMONOV, SH. AVAZOV, S. MATSAIDOVA



GEOGRAFIK MADANIYAT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

B. ABDURAXMONOV, SH. AVAZOV, S. MATSAIDOVA

GEOGRAFIK MADANIYAT

O'QUV QO'LLANMA

*(oliy ta'lif muassasalarining geografiya ta'lif
yo'nalishlari talabalari uchun)*

60530400-Geografiya

**60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
bakalavriat yo'nalishlari**

TOSHKENT

â€œOâ€“ZKITOBSAVDONASHRIYOTIâ€ NMIU

2023

UO'K: 502.2.08

KBK: 74.58

Mas'ul muharrir:

Geografiya fanlari doktori, dotsent K. Boymirzaev

Taqrizchilar: **V. D. Suxorukov** Geografiya fanlari doktori,
professor A. I. Gersen nomidagi Rossiya
davlat pedagogika universiteti

SH. Jumaxanov Geografiya fanlari nomzodi,
dotsent Namangan davlat universiteti

Geografik madaniyat: o'quv qo'llanma // B. Abduraxmonov, SH. Avazov, S. Matsaidova – “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT” NMIU, 2023, 232 bet

Geografiya ta'limi rivojlanishining hozirgi bosqichida uning mazmuni o'quvchilarda dunyoning geografik manzarasini, geografik madaniyat shakllantirish ga yo'naltirilgan. Mazkur o'quv qo'llanmada 60530400-Geografiya va 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat yo'nalishlarida o'qitiladigan “Geografik madaniyatni shakllantirish ” o'quv fani metodik ta'minotini boyitishga xizmat qilib, geografiya o'qitish metodikasi fani doirasida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlar davomida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari, talabalarning bilim va ko'nikmalarini sifat jihatidan oshirilishi yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

ISBN: 978-9910-756-32-0

© **B. Abduraxmonov, SH. Avazov, S. Matsaidova 2023**
© “O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT” NMIU 2023

KIRISH

*"Geografiya o'qitish metodikasi ilmiy geografiyanı
məktəb zəruratiğa mösləşdi, uni məktəb
predmetiğə cəyləntirish lozim"*

N.N.Baranskiy.

Ma'lumki, geograf-olimlar va metodistlar ko'p yillardan buyon məktəb "Geografiya" predmetini yaratış borasıda izlanış olib bormoqdalar. Jamiatning barcha jabhalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, iqtisod va boshqaruvni takomillashtirish ta'lim tizimini qayta qurishiň taqozo etmoqda.

Ta'kidlash joizki, mavjud geografiya o'qitishning metodik tizimi barcha o'quvchilar uchun yagona mazmun tanlab, uning bir xil suratda o'zlashtirishni ta'minlashga yo'naltırılgan bo'lib, o'quvchilarining intilishi va qiziqishlarini turlicha bo'lishini xisobga olishga yo'l qo'ymas edi. Umumiyoq o'rta ta'lim muassasalari mazmuni va tuzilishini o'zgartirishni taqozo qiladi.

Geografiya o'qitish mazmunini belgilash murakkab metodik muammo hisoblanadi. Chunki geografiya vositasida məktəb bitiruvchisida ijodiy shaxs qırralarini shakllantirish davr talabiga aylandi. Bunday sharoitda o'quv predmetining vazifalari o'zgarib, uning mazmuni o'rganish ob'ektidan o'quvchini rivojlantirish vositasiga aylanadi.

O'quv fani sifatida geografiya o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega, chunki u jamiat hayatı va uning tabiat bilan hamkorligini o'rganish kompleks geografik yo'nalishga asoslangan. Geografiyanı o'rganish natijasida o'quvchilarda inson va atrof-muhit haqida yaxlit tasavvur shakllanadi. Geografiya ta'limi rivojlanishining xozirgi bosqichida uning mazmuni o'quvchilarda jahon geografik haritasi, geografik madaniyat shakllantirish ga yo'naltırılgan.

Geografiya o'qitish metodik tizimining xususiyatlari, uning mazmuni va tuzilishi o'qitishning maqsadiga bog'liqdir.

1-BO'LIM.

GEOGRAFIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH NING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1-§ Geografiya ta'limingining maqsadlari

«*Maqsad faoliyat natijasini hayolan, ideal tarzda taxlil qilishdir. Bevosita motiv sifatida maqsad inson faoliyatini belgilaydi va boshqaradi»*

Enziklopedik lug'at. 1985 yil.

Maktab har doim jamiyat rivojlanishini holatining ko'rsatkichi bo'lgan. Jamiyatning g'oyalari o'zgarishi natijasida maktab ham faoliyat tizimini o'zgartirgan.

Jamiyatning barcha qatlamlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar natijasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy hayotni insonparvarlashtirish ta'lim maqsadni yo'nalishini o'zgartirih.

Hozirgi kunda o'quv predmetlari va maktabning vazifasi o'zgarmoqda. O'quv predmetining mazmuni ta'lim va tarbiya, o'quvchi dunyoqarashini boyitish vositasiga aylanmoqda.

I.YA.Lerner ta'kidlashicha, ta'lim maqsadi o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan qadryatlar va ularni yuzaga keltiruvchi motivlar o'ziga xos mazmunni tashkil etadilar.

Maktab odamni hayotga, ijtimoiy va tabiiy sohada o'zini to'g'ri tutishga, o'zining ijtimoiy va fuqorolik burchlarini ado etishga tayyorlaydi. shuning uchun u o'quvchida o'zini rivojlantirish va namoyon etish ishtiyoqini rivojlantirishi lozim. Maktabning maqsadi-faol, tasabbuskor va ijodkor shaxsni tarbiyalash.

Xo'sh, Ushbu yangi maqsadlarni amalgalashda geografiyaning roli nimadan iborat? Ushbu rol geografiya fanning hozirgi xolati bilan belgilanadi, xozirgi geografik tadqiqotlar mazmunini geografik qobig'ni fazoviy tashkil etish, jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri kabi fundamental qonunlar tashkil etadi. Geografiya geografik muhit ichidagi tabiat va ijtimoiy xodisa va jarayonlar

o'rtasidagi aloqalarni o'rganmoqda. Geograflar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ekologik muammolarni hal etishda qatnashmoqdalar. Ular ko'pgina muammolarni global, mintaqaviy va lokal darajada hal qilmoqdalar.

Ushbu aloqani idrok etish, geografik fikrlash va ekologik savodxonlik inson umumiy madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridir. Ana shuning uchun geografiya o'qitish metodikasida «Nima uchun o'quvchini geografiyaga o'qitish kerak?» savoliga javob berish muhim kasb etadi. Ushbu savolga beriladigan javob geografiya fanini umumta'lim muassasalaridagi o'quv rejasidagi o'rmini belgilashda, fanning mazmunini tanlashda, uning tuzilishini yaratishda, ta'lif vositalari va texnologiyalarini ishlab chiqishda, talabalarning o'quv faoliyati va ta'limi tashkil etish shakllarini takomillashtirishida muhim o'rin egallaydi.

Geografiya ta'limi maqsadini aniqlashda Ushbu fanning o'quvchi shaxsida quyidagi xususiyatlarni shakllantirish da o'ringa ham alohida diqqat qarotmoq lozim: fikrlash va idrok etish, muloqat va nutq san'ati, borliqni o'zgartirishi, ma'nnaviy-ahloqiy jasorat ko'rsatish atrof-muhitni estetik idrok etish, o'zining va atrofdagilarning sog'ligini saqlash, vaqtini unumli tashkil etish, o'zini namoyon qilsin. Ta'kidlash lozimki, geografiya Yerning odamlar planetasi ekanligi haqida tasavvur beruvchi yagona muktab predmetidir. Ushbu fanning o'rganish sohasini tabiiy va ijtimoiy ob'ektlar va hodisalar tashkil etadi. shuning uchun geografiya ta'limi mazmunini shakllantirish da maqsadlarning keng qamrovligi inobatga olinishi lozim.

Umumiy holatda geografik ta'limga maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin: o'quvchilar ongida geografik muhitga nisbatan munosabatlardan to'g'risidagi qarashlar tizimini, prinsiplari haqida tasavvur shakllantirish i.

Muktab geografiya kursining shaxs rivojlanishiga qo'shgan hissasi quyidagilar yordamida aniqlanadi:

- geografiya ta'limi fazoviy fikrlash asoslarini yaratadi, «joy», «rayon», «hudud» kabi tushunchalardan foydalanish uchun imkoniyat yaratadi; geografiya uchta darajada fikrlashga o'rgatadi:

- geografiya o'qitish har bir o'quvchida atrof-muhitni asrab-avaylashga o'rgatadi, ekologik madaniyatni shakllantiradi;
 - geografiya ayrim iqtisodiy tushunchalar asosini yoritadi va o'quvchilarda «men yashovchi (aholi)», «men ishsiz», «men tadqiqotchi» kabi ijtimoiy pozitsiyalarni shakllantiradi, natijada jamiyatning ongli a'zosi shakllanadi.
 - Yer kurrasining hozirgi ko'rinishi geografiya o'rganish jarayonida geografik qobig'ning uzoq muddat davomida rivojlanishi jarayonining natijasi sifatida talqin qilinadi, uning hozirgi davrdagi rivojlanishida insoniyat faoliyati geologik kuch darajasiga etib bordi.
 - Faqat geografiya o'qitish jarayonida o'quvchilar unvYersal muloqattilini egallaydilar, ya'ni madaniyat elementi bo'lish geografik xaitadan foydalanishni o'rganadilar, A.M.Berlyantning fikricha xaritani bilish grammatika va matematikani bilishdek muhimdir.
 - Geografiya kompleks fikrlash masalasini shakllantiradi, shuningdek geografik bilimlarni boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlaydi.
 - Geografiyaning kommunikativ vazifasi o'sib bormoqda, chunki mazkur fanni egallah Yer yuzi aholisi o'rtasidagi muloqot uchun, ommaviy axborot vositalarini tushunish, turizmni rivojlantirishni tushunish uchun kerak.
 - Yuqorida bayon etganlarim umumlashtirilgan holatda aytish mumkinki, geografiya faning maqsadi Yer kurrasining geografik rivojlanishi bashorat qila oladigan shaxsn shakllantirish ga yo'naltirilgan.
- Ta'kidlash lozimki, uzoq yillar davomidageografiya fanini o'qitishning maqsadi talabalarga atrof-muhit haqida bilim berishga qaratilgan edi, o'quvchilarni ularga bog'liq bo'limgan qonunlarini o'rganishga harakat qilinar edi. Boshqacha qilib aytganda, maktab geografiyasida inson emas, balki jonli va jonsiz tabiat o'rgatilar edi.

O'tgan davrda geografiya o'qitish asosan o'quvchilarda fanning ilmiy asoslari haqida bilimlar shakllantirish ga yo'naltirilgan bo'lib, uning ilmiylik darajasi o'sib boraverdi. Natijada u o'zlashtirishi uchun murakkab bo'lgan ilmiy

fanga aylanib qoldi. shuning uchun geografiya ta'limining maqsadini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Geografiya o'qitishning maqsadi aniq vazifalarini bajarish orqali amalga oshiriladi. Maqsad kabi, vazifalar ham keng qamrovlidir:

- Dunyoning geografik surati haqida bilim olishning ta'minlash, geografik mazmunning turli darajalarda xilma-xilligi idrok etishni ta'minlash;
- Geografik qobig'da yuz beradigan tabiiy, ekologik, ijtimoiy, geopolitik jarayonlar harakteri va dinamikasi haqida tasavvur shakllantirish ;
- O'quvchilarni O'zbekistonning tabiatni va xo'jaligi haqida, shuningdek o'z mintaqasi, jahonning yirik davlatlari va mintaqalari haqida bilim olishlarini ta'minlash;
- Tabiat va jamiat hamkorligi hamda atrof muhitni himoya qilish va tabiatdan samarali foydalanishning hozirgi davridagi xususiyatlari yoritish;
- Tabiat komponentlari va kompleklarining tuzilishi va rivojlanishiga shuningdek, aholini tabiiy, ijtimoiy va ishlab-chiqarish omillariga nisbatan joylashtirishga doir qonuniyatlarni yoritish;
- O'quvchilarda geografik axborotning turli muktablari bilan ishslash, tabiat va ishlab-chiqarishda kuzatishlar o'tkazish ko'nigmalarining rivojlantirish;
- Talabalarni geografiya fanining asosiy metodlari bilan tanishtirish.

Xullas, geografiya ta'limi o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib, uning maqsadi keng qamrovli, vazifalari. Mazkur ta'lim o'z mamlakatining hamda Yer kurrasining haqiqiy egalarini tarbiyalashning ishonarli asosidir.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Geografiya o'qitish metodikasi tizimi nima?
2. Geografiya o'qitish metodikasi tizimi qanday tuzilgan?
3. Zamonaviy geografiya darslarida ko'rgazmalilik deganda nimani tushunasiz?

- 4.Zamonaviy geografiya darslari qanday talablarga javob berishi kerak?
- 5.Geografiya o'qitish metodik tizimining mohiyati nimada?
- 6.Geografiya o'qitish tizimida asosiy metodlarga nimalar kiradi?
- 7.Geografik axborot deganda nimani tushunasiz?
- 8.Geografik qobig'da yuz beradigan tabiiy, ekologik, ijtimoiy, geopolitik jarayonlar xarakteri va dinamikasi qanday?
- 9.Geografiya talimi qanday savollarga javob beradi?

2-§ Geografiya ta'limi va geografik madaniyat g'oyasining rivojlanishi

Geografiyaning tabiat, aholi va xo'jalikni o'r ganuvchi ilmiy fan va shaxsning geografik savodxonligi va madaniyatini ta'minlovchi o'quv fani sifatida rivojlanishi o'ziga xos tarixga ega. Ular hamisha bir-biri bilan o'zaro bog'likda va aloqadorlikda rivojlanib kelgan. Zero, ilmiy geografik bilimlar hamisha geografiya ta'limingining asosini tashkil qilgan. Mabodo, geografiya fani bo'lmaganda edi, geografiya ta'limi metodikasi ham bo'lmas edi. shu sababli geografiya ilmi va ta'limi tarixi murakkab sohalardan biri bo'lib, tadqiqotchilardan nafaqat chuqur geografik ilmiy bilimlarni, balki tarix, falsafa va pedagogika sohalarida ham katta aql-zakovat bo'lishini talab etadi.

O'zbekistonda geografiya ta'limingining tarixini yirik uchta bosqichga ajratish mumkin:

1. Boshlang'ich bosqich (geografiya ta'limingining boshlanishidan XX ast boshlarigacha bo'lgan bo'lgan davr).

2. Ikkinci bosqich (soviet maktabida geografiya ta'limi).

3. Uchinchi bosqich (mustaqillik yillarda geografiya ta'limi).

1. **Geografiya ta'limingining Boshlang'ich bosqichida** ajdodiarimizni geografik bilimlarni egallashga o'sha davrlardagi hayotiy ehtiyojlar majbur qilgan. Chorvachilik va dehqonchilik rivojlanib borgani sari geografik bilimlarni egallashning ahamiyati ortib borgan va odamlar muayyan joylarni baholash va

tanlashga o'rganganlar. Kishilar avvaliga to'qay va o'rmonlardan Yer ochib, dehqonchilik qilishgan, ya'ni to'qaylarni yoqib, ekin dalalariga aylantirganlar. Bunga Quyi Amudaryo, Surxondaryo, Zarafshon kabi daryolar sohillarida amalga oshirilgan dehqonchilik madaniyati tarixidan juda ko'plab misollar keltirish mumkin [80, 140].

Biroq, bu davrlardagi geografik tasavvurlar diniy qarashlar, afsonalar bilan ko'proq bog'langan bo'lsada, jamiyat va inson hayoti ehtiyojlaridan kelib chiqilib, muayyan darajada tizimlashtirila boshlangan. Osmon jismi, Yer, atrof-muhit, tabiiy zonallik, ob-havo, iqlim, resurslardan foydalanish, geografik karta va shu kabilar haqida dastlabki geografik bilimlar ibtidosi shakllana boshlagan.

Geografiya fanlari taraqqiyotiga O'rta Osiyodan yetishib chiqqan Muhammad al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlarimiz katta hissa qo'shganlar. Ularning asarlarida inson va atrof-muhit, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro uzviy birlik, aloqadorlik va bog'liqlik geografik yondashuv negizida tahlil etilgan. Jumladan, buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: "... har bir moddiy narsa, so'zsiz, o'z vujudiga, o'ziga xos bo'lgan martaba, eng yuksak kamolotga erishish uchun borliqqa kelgan. Insonga xos bo'lgan bu kamolotning nomi - eng yetuk baxt-saodat deb ataladi" [17, 29, 80]. shu ma'noda tabiat va jamiyatning taraqqiyoti, insonning baxt-saodatga erishuvi bugun ham insoniyatning ilmiy-amaliy geografik bilimlarini qay darajada egallashiga bog'liqki, bu ijtimoiy geografik tarbiyani taqozo qiladi.

yuqorida qayd etilgan tabiat, atrof-muhit masalalariga xalqning kundalik turmush tarzida, yosh lar tarbiyasida va madrasalardagi ta'llim-tarbiya jarayonida amal qilingan. shunday qilib, o'zbek xalqi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida tabiat, atrof-muhitga munosabat masalasi turli shakllarda o'z o'mniga ega bo'lib kelgan.

XIX asrgacha bo'lган davrda O'zbekiston hududidagi maktablar eski usul musulmon maktablari bo'lib, ularda geografiya o'qitilmagan, madrasalarda esa arabiy materiallarga asoslangan holda eng oddiy shaklda va mazmunda o'qitilgan.

Bu esa aholining umumiy geografik bilimlari nisbatan past bo'lishiga olib kelgan.

Geografik bilimlardan ta'lif jarayonida foydalanishning ilmiy asoslari dastlab chex pedagogi YAn Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) tomonidan yaratilgan bo'lib, u jahonda geografiya ta'limi metodikasiga asos solgan. U sinfdars tizimidagi maktab o'quvchilari atrof-muhitdagi narsalar va hodisalarini kuzatish hamda o'z o'lkasi tabiatini o'rganishning majburiyligiga birinchi marta e'tibor qaratgan [71, 77, 95].

XIX asrning 60-yillardan boshlab, maktab va maorif sohasida yangi yo'nalishlar bo'yicha jonlanish ro'y bYera boshlagan.

XX asr boshlarida "yangi usul" maktablari ham paydo bo'lib, geografiyadan darsliklari, o'zbek tilida globus, o'zbekcha kartalari vujudga kelib, o'zbek geograf mutaxassislar chiqa boshlaganidan darak bergen.

shunday qilib, O'zbekiston hududida geografiya ta'limining birinchi bosqichida geografik madaniyatning ilk kurtaklari, ya'ni geografik bilimlarning to'planishi va ularni o'rganishga bo'lgan dastlabki qiziqishlar va urinishlar shakllana boshlagan. Biroq, geografiyanı o'qitish pedagogik-metodik talablarga mutlaqo javob bYermagan, geografiya fani bilan maktab geografiyasi o'rtasida juda katta tasovutlar bo'lgan.

2. Geografiya ta'limining ikkinchi bosqichida, ya'ni sovet tuzumi davrida XX asrning 30-yillari boshlariga qadar o'zbek maktablariagi geografiya ta'limi ma'lum tartibga tushgan, geografiya darsliklari rus va chet tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan, metodik qo'llanmalar paydo bo'lgan, geografiya o'qituvchilari tayyorlana boshlangan.

Tabiatshunoslik dasturlariga o'lka o'simliklari, hayvonot dunyosi, iqlimi, Yer osti boyliklari, daryolari, ko'llari haqidagi ma'lumotlarning kiritilishi o'quvchilarning tabiat va inson to'g'risidagi ilmiy bilimlarini chuqurlashtirib borishga shart-sharoit yaratgan.

Maktablarda rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan kitoblar asosiy darslik sifatida qo'llanilgan. 1933 yilda o'zbek tilida birinchi marta "Jug'rofija atlasi"

tayyorlangan va unda Boshlang'ich geografiya kursi, qit'alar geografiyasi, SSSR geografiyasi bo'yicha 17 ta xarita bo'lgan.

Mazkur davrda, ya'ni 1927 yildan boshlab Samarqand oliy pedagogika institutida (keyinchalik, O'zbekiston Pedagogika akademiyasi), 30-yillarning o'rtalaridan boshlab Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Samarqand, Nukus, Urganch, Andijon, Qo'qon davlat pedagogika institutlari hamda O'rta Osiyo va O'zbekiston davlat UNIVERSITETlarida oliy ma'lumotli geografiya o'qituvchilari tayyorlash yo'liga qo'yilgan. Metodik jurnallar bosilib chiqqan va ularda geografik bilimlarga keng o'rinn bYerilib, o'qituvchilarga katta ilmiy-metodik yordamlar ko'rsatilgan. Geografiyaning ta'lif-tarbiyada tutgan o'rni kuchayib, tabiatdan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish va uni avaylab-asrashga intilish g'oyalari markaziy o'rinn egallagan [109].

1960 yildan boshlab geografiya ta'limi metodikasiga oid maxsus qo'llanmalar va darsliklar chop etila boshlangan. Bu davrda O'zbekistonda geografiya fanlari va geografiya ta'limini takomillashtirishga A.Obidov, O.Saidrasulov, H.Hasanov, N.Dolimov, Z.Akramov, P.Musaev, O.Mo'minov, M.Qoriev, M.Nabixonov, I.Mirzaboev, R.Rahimbekov kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan. Jumladan, N.F.Kurazovning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1962 y.), A.V.Darinskiyning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1964 y.) kitoblari bosilib chiqqan.

XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmida amalga oshirilgan umumiy pedagogik va metodik tadqiqotlar geografiya ta'limida tabiatni muhofaza qilish ishlari mazmunini ilmiy-metodik jihatdan ishlab chiqish yo'lidagi dastlabki qadam bo'lgan. Mazkur tadqiqotlarda geografiya ta'limida tabiatni muzofaza qilishga oid bilim, ko'nikma va malakalar asoslab berilgan, tabiatga muhabbatni tarbiyalash masalasi o'z ifodasini topgan [64].

XX asrning 70-80 yillarda atrof-muhit, tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi masalalari yanada dolzarblashgan, inson fan-texnika yutuqlari bilan qurollanib, tabiat boyliklaridan keng ko'lamba foydalana boshlagan. Ayni paytda

inson xo'jalik faoliyati tufayli tabiiy muhit holati yomonlashib, ekologik tizimlar (Landshaflar) muvozanatida sezilarli o'zgarishlar boshlangan. shu boisdan geografiyanı o'qitish va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda tabiiy boyliklarga nisbatan ehtiyyotkorlik hissini tarbiyalash vazifasi qo'yilgan [102].

shunday qilib, geografiya ta'limalda tabiatni muhofaza qilish tizimi yuzaga kelib, geografik o'lkashunoslik uning eng muhim prinsiplaridan biriga aylangan. Mazkur davrda geografiya ta'limi metodikasining turli jihatlariga bag'ishlangan ilmiy-metodik tadqiqotlar, xususan, O.Mo'minovning "O'zbek maktablarida tabiiy geografiya o'qitish masalalari" (1967 y.), T.Abdullaevning "O'zbekiston maktablarida o'quvchilarga tabiiy geografiya o'qitishda O'zbekiston tabiat haqidagi materiallardan foydalanish" (1967 y.), M.Nabixonovning "SSSR geografiyası kursida geografik tasavvur va tushunchalarni hosil qilishda badiiy ko'rsatmalilik vositalarining roli va qo'llanilishi" (1969 y.), P.Musaevning "O'zbek maktablarida SSSR iqtisodiy geografiyasini o'qitish" (1969 y.), M.Jo'rboevning "O'zbek maktablarida geografiya o'qitishda predmetlararo aloqalarni joriy etish" (1969 y.), M.Mo'minovning "SSSR va O'zbekiston SSR tabiiy geografiyalarini o'rganishda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni shakllantirish" (1970 y.), R. Saidovaning "Geografiya darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish" (1973 y.). M.Asomovning "Tabiiy geografiya kurslarida topografik va kartografik tushunchalarni shakllantirish ning asosiy yo'llari" (1975 y.), H.Ubaydullaevning "4-sinfdagi tabiatshunoslik kursini o'rganishda o'lka materiallaridan foydalanishning forma va metodlari" (1975 y.), M.YUnusovning "Ko'rgazmalikning tabiiy vositalari SSSR tabiiy geografiyasini o'qitish samaradorligini oshirish sharti sifatida" (1986 y.) va boshqa ishlar amalga oshirilgan [110,111,115,153].

P.Musaev tomonidan "O'zbekiston SSR iqtisodiy geografiyasini o'qitish" (1977 y.), O.Mo'minov tomonidan "Geografiya ta'limi metodikasi" (1978 y., 1986 y.), "Zamonaviy geografiya darsiga qo'yiladigan talablar (1990 y.), P.Musaev va R.Qurban niyozov tomonidan "Geografik o'yinlar" (1978 y., 1990 y.),

T.Abdullaeva tomonidan "Geografik o'lkashu noslik" (1979 y.), N.Abdug'aniev tomonidan "Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish" (1990 y.), A.Rafiqov tomonidan "Tabiatda ekologik muvozanat" (1990 y.) kabi o'quv-metodik qo'llanmalar chop qilinib, geografiya o'qituvchilari va talabalarga taqdim etilgan.

shunday qilib. O'zbekistonda geografiya ta'limining ikkinchi bosqichida o'quvchilarda geografik madaniyat asoslarini vujudga keltirishga imkon beruvchi ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan, xususan:

-maktab geografiyasi o'quvchilarga Yer haqida bilim beruvchi fanlar tizimidan iborat bo'lib, u turli mamlakat va o'lkalarning tabiatni, aholisi va xo'jaligi haqidagi ilmiy bilimlar tizimini o'z ichiga olgan;

-tabiiy geografiya kurslarida tabiiy ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar geografik nuqtai nazardan o'rganilgan va u iqtisodiy geografiyaning zamini bo'lib xizmat qilgan;

-barcha geografiya kurslarida kartani o'rghanishga hamda geografiyanı o'qitishda daliliy materiallarga asoslangan aniq bilimlarga e'tibor kuchaytirilgan va ko'rsatmali vositalar, ekskursiyalardan ko'proq foydalanilgan;

-maksitablarda darsdan tashqari turli tadbirlar (geografik axborot; navbatchi karta; geografik devoriy gazeta, geografik fotoalbom, geografik kecha, geografik konfYerenсия; geografik o'yin; geografik olimpiada; kartada sayohat va h.k.) keng ommalasha boshladi [26, 155].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bularning barchasi o'quvchilarda geografik madaniyatning ayrim tarkibiy qismlarini u yoki bu darajada rivojlantirishga imkon bergen. Biroq, bu davrda tabiat, atrof-inuhit bilan oqilona amaliy muloqotlar o'rnata oladigan geografik madaniyatli o'quvchi shaxsini shakllantirish geografiya ta'limining maqsadi yoki vazifasi sifatida belgilanmagan hamda bu borada pedagogik tadqiqotlar olib borilmagan.

3. Mustaqillik yillarda geografiya ta'limi mazmuni respublikamizda

tubdan yangilandi. O'zbekiston Respublikasining 1992 yilda qabul qilingan dastlabki "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mamlakatimiz geografiya ta'limdi tub o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'quvchilarga geografiya darslari va darsdan tashqari ishlardan jarayonida faqat tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishga oid bilim berish, bu sohada tegishli ko'nikma va malakalarini shakllantirish ning o'zi etarli bo'lmay qoldi. Shu boisdan mavjud ijtimoiy ekologik muammolarining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatlarini geografiya ta'limi mazmunida aks ettirishga kirishildi va geografiya darslari hamda darsdan tashqari ishlarda ekologik ta'lim-tarbiya yo'nalishi vujudga keldi.

Geografik o'lkashunoslik ishlarini tashkil etishda maktab joylashgan tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy-ekologik sharoitga bog'liq holda tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha metodik tavsiyalar, uslubiy ishlanmalar va fakultativ mashg'ulotlar dasturlari ishlab chiqilib, geografiya ta'limi mazmunan ekologiyalashtirilib borildi.

Geografiya ta'limdi ekologiya g'oyalarini o'lkashunoslik asosida amaliyatga joriy qilish tajribasi to'planib, maktablar amaliyatida yangi integrativ yo'nalish - geoekologik o'lkashunoslik asoslari vujudga kela boshladи. Uning negiziga quyidagi 6 ta umumbashariy ekologiya muammosi qo'yildi:

1) aholi muammolari;

2) oziq-ovqat muammolari;

3) tabiiy boyliklar, xom ashyo va energiya taqchilligi muammolari;

4) tabiatni qayta o'zgartirish sharoitida inson salomatligini saqlash muammolari;

5) atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish muammolari;

6) tirik mavjudotlar irlisyatini muhofaza qilish muammolari.

Bu muammolar o'lkashunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi va baholanishi zarurligi e'tirof qilindi. Bu borada A.Rafiqov [130], E.Turdiqulov [64], R.Qurban niyozov [153,154,157], SH.Avazov [23, 24] va boshqalarning

tadqiqotlari muayyan ahamiyat kasb etgan.

Maktab geografiya ta'limi mazmuni yangi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida tubdan o'zgarishga uchradi, xususan, maktab geografiya ta'limining mazmuni va tuzilishi quyidagi tizimda barpo etildi:

V sinf – “Tabiyot” (1999-2000 o'quv yilidan “Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi”;

VI sinf – “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”;

VII sinf – “Turkiston tabiiy geografiyasi”, keyinchalik “O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi” (birinchi yarim yillikda), “O'zbekiston tabiiy geografiyasi” (ikkinchi yarim yillikda);

VIII sinf – “O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi”;

IX sinf – “Jahonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi” [90, 102, 104].

shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or geografiya ta'limi texnologiyalarini tanqidiy o'rganish va ulardan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi, yangilangan o'quv adabiyotlari yaratildi. Jumladan, T.P. Gerasimova va boshqalarning “Geografiya: Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi”, P.G'ulomov, P.Musaev, A.Bahromovning “Tabiyot”, O.Mo'minov, P.Baratov, M.Mamatqulov, R.Rahimbekovning “O'zbekiston tabiiy jo'g'rofiyasi”, P.Musaev, A.Bahromov, R.Qurbonniyozov, M.Mahammetovaning “Geografiya: Tabiiy geografiya boshlangich kursi”, “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”, P. G'ulomov, X. Vahobov, A.Hasanovning “Turkiston tabiiy geografiyasi”, A.Abdulqosimovning “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi”, O.Mo'minov, P.Baratov, M.Mamatqulov, R.Rahimbekovning “O'zbekiston tabiiy geografiyasi”, Z.Akromov, P.Musaevning “O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi” va boshqa kitoblar o'quvchilarga taqdim etildi.

Geografiya ta'limini tashkil etish borasida bir qator yangiliklar vujudga keldi: o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning reyting tizimi joriy etila boshlandi; yangi o'quv vositalari, jumladan, O'zbekiston Respublikasining tabiiy,

iqtisodiy, iqlim, ekologik, aholi zichligi kartalari, dunyoning siyosiy kartasi chop etildi; o'quv va o'lkashunoslik ekskursiyalarining ahamiyati oshdi; o'quvchilarda geografik ko'nikmalarni rivojlantirishga (kartada bajariladigan o'Ichov ishlari va mashqlar; topografik diktant; geografik topshiriqlar; kartalarni solishtirish; yozuvviz karta bo'yicha topshiriqlar; asboblar bilan ishlash va h.k.) e'tibor kuchaydi; geografiya ta'limi metodlari mazmunan takomillashtirildi. Ayni paytda geografiya ta'limi sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik adabiyotlar nashr etildi. Jumladan, N.A. Maksimovning "Tabiiy geografiyadan metodik qo'llanma" (1991), P.Musaev, R.Qurban niyoziyovning "O'quvchilarning geografiyadan bilim malakalarini aniqlashning shakl va usullari" (1993), R.Qurban niyoziyovning "Geografiya ta'limi metodikasi" (1993) va "Umumiy tabiiy geografiya: maktab, akademik litsey va kollejlar o'quvchi va talabalari uchun qo'llanma" (1999), P.G'uromovning "Maktab jug'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati" (1994), M. Abdurahmonov, B. Abdurahmonovning "Tabiiy geografiya: qiziqarli dars shakllari" (2001), V. Rafiqovning "Qiziqarli geografiya" (2010), A. Mamatzarimovning "Geografiya: qiziqarli ma'lumotlar, tezkor javoblar/nima? qachon? qayerda?" (2011), M. Mirakmalovning "Tabiiy geografiyadan masala va mashqlar" (2015), M. Payzievaning "Maktabda geografiya kechalari va tadbirlar o'tkazish" (2015), M. Mirakmalov, M. Avezov, E. Nazaralievanning "Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar" (2015), Q. Baxromov, G. Halimovaning "Geografiyadan mashq va masalalarni echish usullari" (2017), SH.Jumaxanov, A.Toshpo'latovning "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya masala va mashqlar to'plami" (2019) va shu kabi o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlandi.

Mazkur qo'llanmalarda geografik tasavvur va tushunchalar, ko'nikma va malakalar tiziminining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berildi. Ayniqsa geografik tasavvur va tushunchalarning kartalar bilan bog'liqligi, ularni kartadan ajratib bo'lmasligi, shu sababli kartani geografiyaning "ikkinchili" deyilishi haqidagi metodik fikrlarga keng o'rinn berildi. shuningdek, o'quvchilarda dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish va tafakkurini rivojlantirishda geografiyaning

imkoniyatlari katta ekanligi geografik ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlari orqali asoslab berildi.

Mustaqillik sharoitida geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha dastlabki dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, O'.Safarov tomonidan "Talabalarning bilish faolligini oshirishda EHMDan foydalanishning pedagogik asoslari" (1994 y.), A.Xayitov tomonidan "Maktab tabiiy geografiya kurslarida geoekologik bilimlar tizimi va ta'limning metodik asoslari" (1999 y), M. Abduraxmonovning "Tabiiy geografiya ta'limida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi" (2001 y.) tadqiqotlari amalga oshirildi. O'zbekistonda XX asming oxiri va XXI asr boshlarida Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq "ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish"ga kirishildi [3].

Mazkur maqsadga erishishda Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan uzlusiz ta'lim hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uzlusiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oldi [3;22].

Uzlusiz ta'lim turli darajalardagi dasturlarning izchilligi asosida ta'minlanib, u ettita ta'lim turini o'z ichiga oldi. Mazkur ta'lim turlari ichida geografiya o'qitilishi nuqtai nazaridan umumiyl o'rta ta'lim (V-IX sinflar) va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'ziga xos o'rinn tutadi.

2000 yillar boshlarida o'zbek geografiya ta'limi metodikasida birinchi marta metodist olim R.Qurban niyozov tomonidan o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish - maktab geografiya ta'limining maqsadlaridan biri sifatida ajratib ko'rsatiladi [49].

Bunga o'sha paytdagi quyidagi ikki omil sabab bo'ladi:

1) shaxs va jamiyatning umumiy madaniyati darajasini oshirish dunyoning barcha rivojlangan davlatlari kabi O'zbekistonda ham jamiyatning umumiy taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biriga aylanadi;

2) ayni paytda, o'quvchilar faqat geografiya darslarida Kishilar hayoti va faoliyatining makonda xilma-xilligini, geografik muhitda inson va insoniyatning tutgan o'mini o'rghanishi hamda dunyoning birligi, geografik qobiq tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri va bog'liqligi, ularning makonda va zamonda doimiy o'zgarib turishi haqidagi etakchi dunyoqarashlik g'oyalarni faqat geografik bilimlar asosida o'zlashtirishi mumkinligi e'tirof etiladi.

Bunday shart-sharoitlar o'quvchilarda geografik madaniyatni shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismi va geografiya ta'limining natijaviy jihatni sifatida tarkib toptirish zaruriyatini keltirib chiqargan. Bu ehtiyoj umumiy ta'lim mакtablari va kasb-hunar kollejlaridagi geografiya ta'limining mazmuni va maqsadi o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish ga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, degan xulosaga olib keladi.

Tabiiyki, geografik madaniyatning o'zi nima, uning mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi, degan haqli savol tug'iladi. Shu sababli geografik madaniyatning mohiyati va uning tuzilmaviy tarkibiy qismlari haqida ishimizning keyingi qismida fikr yuritamiz.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. O'zbekistonda geografiya ta'limining tarixini yirik nechta bosqichga ajratiladi?

2. Geografiya ta'limining Boshlang'ich bosqichida qanday ilmiy yutuqlarga Erishilgan?

3. Geografiya ta'limining ikkinchi bosqichida qanday ilmiy yutuqlarga Erishilgan?

4. Mustaqillik yillarida geografiya ta'limi mazmuni qanday ko'rinishda bo'ldi?

- 5.Maktab geografiya ta'liming mazmuni va tuzilishi qanday?
6. Kim tomonidan o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish - maktab geografiya ta'liming maqsadlaridan biri sifatida ajratib ko'rsatiladi?

3-§ Geografik madaniyat: mohiyati, tuzilmaviy-tarkibiy qismlari

va uni shakllantirish

Ma'lumki, geografiq qobiq – bir-biriga kirishadigan va o'zaro ta'sir ko'rsatadigan geosferalarning sifat jihatidan o'ziga xos yaxlit tizimi; unda barcha narsalar harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Geografiq qobiq tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi modda va energiya almashinuvida namoyon bo'ladi. Geografiq qobiq tuzilmasi bir jinsli emas, uning har bir qismi, barcha tashkil etuvchilari (zonal va azonal tabiiy majmualar) o'ziga xos xususiyatlarga ega va shu bilan birga ularga rivojlanishning umumiy qonuniyatlari xosdir [97,98].

O'quvchilar geografiyani o'rganar ekan, geografiq qobiq – o'z-o'zidan rivojlanadigan tizim ekanligini, unga Yer ichidagi va tashqi energiya manbalarining uzuksiz ta'sir ko'rsatishi tufayli makonda va zamonda o'zgaruvchanlik xosligini anglab oladilar. Geografik bilimlar o'ziga xos bo'lib, ular dunyoni bilish usuli sifatida odamlar va hududlar o'rtaсидаги murakkab o'zaro bog'lanishlar tizimini tushunish va baholashga imkon beradi.

Hozirgi zamon geografiyasi - bir paytlar asosiy ob'ektlari noma'lum o'lkalar yoki mamlakatlar bo'lgan faqat tasviriy, bilimlarni ko'paytirishga xizmat qiladigan avvalgi geografiya emas. Bugungi geografiya ilmiy-tajriba va qayta o'zgartirish yo'nalishlariga ega bo'lgan amaliy fan bo'lib, uning asosiy ob'ekti - inson tomonidan o'zlashtirilgan, tabiatni har tomonlama chuqur o'zgarishlarga uchragan, aholisi zich, xo'jaligi rivojlangan hududlar hisoblanadi. shu sababli zamonaviy geografiyaning bosh vazifasi - oldingidek yangi tabiiy boyliklarni izlab topish, "noma'lum" hududlarni o'zlashtirishga yordam berish emas, balki insoniyat oldida turgan eng katta muammolarni ilmiy hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi joylashgan hududlarda tabiat va xo'jalikni uyg'un holatda qayta o'zgartirish hisobiga rivojlantirish hisoblanadi.

Adabiyotlarni o'rganish va shaxsiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy geografik tadqiqotlarning dolzarb umumiyo yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari (ishlab chiqarish) faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini hamda atrof-muhit o'zgarishlarining asosiy shakllari, yo'nalishlari va jadalligini har tomonlama o'rganish, bunday o'zgarishlardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarning ilmiy bashoratini ishlab chiqish;
- 2) geografik muhit muvozanati nuqtai nazaridan respublikamiz ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslar turlarini aniqlash, ularni iqtisodiy baholash, shuningdek ulardan atrof-muhit holatiní saqlash va yaxshilashga imkon beruvchi to'g'ri foydalanish yo'llarini aniqlash;
- 3) respublikamizda tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanishni ta'minlovchi, salbiy antropogen ta'sirlarni yo'qotuvchi va tirik mavjudotlar hayot-faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratuvchi zamonaviy ekologik texnika va texnologiyalar yordamida atrof-muhitni maqsadga muvofiq qayta o'zgartirish.

Bugungi kunda respublikamizda Landshaftlar (geotizimlar, tabiiy-hududiy majmualar) konsepsiysi eng muhim ilmiy-amaliy tadqiqiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Zero. Landshaft - inson hayoti va faoliyati muhiti bo'lib, turli resurslarga ega bo'lgan, genofondni saqlovchi tizim hisoblanadiki, shu sababli u eng muhim muhofaza ob'ektiga aylangan. Landshaft – tabiiy va antropogen tarkibiy qismrlarning o'zaro ta'siri va aloqadorligidagi hududiy tizim bo'lib, uning holatini kuzatish va bashorat qilish tabiat va jamiyat birligi va o'zaro aloqadorligi muammolarini ilmiy jihatdan to'g'ri hal etishga yordam beradi [54].

Tabiiyki, yuqorida ta'kidlangan barcha masalalar geografiya ta'limi mazmunida o'quvchilarning geografik madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan o'z ifodasini topishi lozim. Boshqacha ifodalasak, geografik bilimlar dunyoni fahmlash vositasi bo'lib, ular inson, muayyan hududlar va ularni o'rabi turgan muhit orasidagi munosabatlarning murakkab tuzilishini anglash, tushunish etish va baholash imkoniyatini yaratadi.

Geografiya fani geografik muhitda inson va insoniyatning tutgan o'rmini, inson faoliyatining makoniy jihatlarini o'rganishi sababli azaldan o'zida juda katta madaniyatshunoslik va insonparvarlik imkoniyatlarini namoyon qilib kelgan. Respublikamiz geografik muhitidagi hatti-harakatlar ko'lami shunchalik jo'shqin va o'zgaruvchanki, ular jamiyatimizning har bir a'zosidan o'z faoliyati uchun javobgarlik, geografik muhitda ongli va axloqiy hatti-harakatlar qilish, uning sarhadlarini ijodiy o'zlashtirish, barcha Kishilar ning genetik bir xilligi, lekin madaniy har xillagini tushunish va baholash fazilatlari bo'lishini talab etadi.

Umuminsoniy madaniyatni rivojlantirishda geografiyaning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, mamlakatimiz tabiatini va xo'jaligi o'zaro chambarchas birlikda o'rganilishi zarur. Geografiyaning o'quv fani sifatida tutgan o'miga baho berar ekanmiz, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda o'lka geografiyasiga oid bilimlarning ahamiyatini hech nima bilan qiyoslab bo'lmaydi. O'quvchi geografiyanı o'rganish orqali tabiat hayotida, atrof-muhitda shaxsan o'zining tutgan o'rni va ahamiyatini, shuningdek boshqa madaniyatga mansub Kishilar ni ham tushunishga o'rganadi.

Ta'lim muassasalaridagi ta'lim – O'zbekistondagi har bir yosh hayotidagi eng muhim davr. Bu davrda o'quvchi shaxsi bioijtimoiy mavjudot, ijtimoiy-madaniy sub'ekt sifatida shakllanadi. O'quvchilarda umummadaniy, intellektual va dunyoqarashlik g'oyalari ta'siri ostida shaxsiy qarashlar, axloqiy ideallar, ichki e'tiqod va ma'naviy dunyo qaror topadi, uning o'z Vatani, dunyo tarixi va madaniyatining moddiy va ma'naviy qadriyatlari bilan tanishu vi sodir bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida axborotlashtirish, globallashtirish va kommunikatsiya bilan bog'liq tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bunday sharoitda geografiyaning tutgan o'mi oshib bormoqda. Geografiya halqaro miyosda ham o'z o'miga ega bo'lib, falsafa, tarix va chet tili bilan bir qatorda 4 ta asosiy umumta'lim fanlaridan biri sifatida e'tirof olingan. O'quvchilar faqat geografiya darslarida inson va insoniyatning geografik muhitda tutgan o'rmini hamda Kishilar hayoti va faoliyatining makonda va zamonda turli-tuman ekanligini o'rganadilar.

Geografik tasavvur, tushuncha va tafakkur o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish ga xizmat qiladi. O'quvchilar geografiyani o'rganish jarayonida dunyoning bir butunligi hamda geografik muhitdagi barcha tarkibiy qismlar va majmualar makonda va zamonda doimiy o'zgarib turishi, rivojlanishi haqidagi etakchi g'oyalarni o'zlashtirib oladilar.

Ma'lumki, mustaqillik yillarda o'quvchilarga geografik ta'lim berish mazmuni va tuzilmasiga ta'limning zamonaviy maqsadlari, geografiya ta'limi mazmunining yangi konsepsiyasi, DTS, o'quv dasturlari va darsliklar g'oyalari bilan qabul qilingan jiddiy qo'shimcha va o'zgartirililar kiritildi. Kasb-hunar kollejlaridagi amaliy geografiya kursi umumta'lim fanlari blokiga kiritilgan mustaqil o'quv fani bo'lib, uning zimmasiga har tomonlama rivojlangan etuk shaxsni kamol toptirishga, o'quvchilar ongida dunyoqarash g'oyalarini, madaniy va etik prinsiplar va axloqiy xulq-atvorni shakllantirish ga hissa qo'shish vazifasi yuklatilgan. Tor ma'noda, mazkur o'quv fanini o'rganish o'quvchilarda umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida geografik madaniyatni rivojlantirish va shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "madaniyat" tushunchasi shaxs va jamiyat, ularning mohiyati va taraqqiyotiga bevosita aloqador bo'lgan ko'p qirrali, murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. shu sababli shaxs va jamiyat madaniyati, uning rivojlanish qonunlari falsafa, arxeologiya, etnografiya, tarix, psixologiya, sotsiologiya, san'atshu noslik, axloqshu noslik, biologiya, geografiya, ekologiya va pedagogika kabi fanlar tizimida o'rGANilib, tadqiq etib kelinmoqda.

Respublikamizda faylasuf va pedagog olimlar tomonidan madaniyat va uning shakllanish i muammolari bo'yicha jiddiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqiy ishlarda madaniyatning mohiyati "moddiy va ma'naviy boyliklar majmui", "inson va jamiyat faoliyatining barcha turlari, ularning natijalari majmui", "individning shaxs sifatida shakllanish jarayoni". "shaxsni kamolot sari eltuvchi tizim" va boshqa tarzlarda talqin etilgan.

shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismlari hamda ularning mohiyatini o'rganish masalasi hozirgi kunda ham mutaxassislar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Bu borada muayyan yutuqlarga ham erishilgan, chunonchi uning tarkibida siyosiy, axloqiy, estetik, jismoniy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va mehnat madaniyati farqlanishi, ularning o'ziga xos mazmun-mohiyatga ega ekanligi ilmiy asoslاب berilgan [97,98,99].

Biz mazkur tushunchani o'rganish jarayonida shunday xulosaga keldikki, madaniyat – kishilik jamiyatni yoki biror xalqning, shu jumladan o'zbek xalqining ishlab chiqarishda, ijtimoiy va ma'naviy hayotda erishgan yutug'i idir. Tor ma'noda, madaniyat - kishilar hayoti va faoliyatini tashkil etish turlari va shakllarida, shuningdek ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadigan jamiyat taraqqiyoti va inson ijodiy kuch-g'ayrati va qobiliyatining tarixan shartlangan darajasidir.

Ta'lif-tarbiya nuqtai nazaridan madaniyat o'quvchilar shaxsining qadriyatli mo'ljallari, qiziqish va ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va aql-idroki orqali ularning keljakka intilishlarida namoyon bo'ladi. O'quvchilarda madaniylik fazilatini rivojlantirish va shakllantirish o'quv fanlari, shu jumladan, geografiya ta'limi ta'sirida ham ro'y beradi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamizda shu kunga qadar shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida geografik madaniyatni tarkib toptirish, bu jarayonning mazmun-mohiyati na umumpedagogik, na geografiya ta'limi metodikasi nuqtai nazaridan umuman asoslاب berilgan emas.

Eng muhim, geografik madaniyatni "madaniyat geografiyasi" bilan chalkashtirib yubormaslik kerak. Madaniyat geografiyasi turli mamlakatlar yoki hududlarda istiqomat qilayotgan ijtimoiy guruhlar, jamoalar va oilalarning turmush tarzi, milliy-madaniy an'analarini tabiat va xo'jalik yuritish nuqtai nazaridan o'rganadi. Bizning tadqiqotimizda madaniyat geografiyasi haqida emas, balki o'quvchi shaxsida geografik madaniyatni shakllantirish haqida so'z boradi.

Geografik madaniyat mazmuni geografiya fanlari mazmunidan farq qilgan holda mohiyatiga ko'ra umuminsoniy, baynalmilal bo'lib, u yoki bu xalq yoxud millat madaniyatining bir qismini tashkil etadi. Geografik madaniyat, keng ma'noda, tabiat bilan o'zaro munosabat madaniyatini, millatlararo munosabatlar madaniyatini, etnik madaniyatni va hududiy mehnat madaniyatini o'z ichiga oladi hamda mahalliy tabiat xususiyatlari, tarixiy-geografik sharoit va xalqning ko'p asrlik milliy an'analari bilan mustahkam bog'langan bo'ladi.

Respublikamizda jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxs umumiyligi madaniyatida geografik omilning tutgan o'mi kun sayin kuchayib bormoqda. Geografik madaniyatni egallash o'quvchining atrof-muhit bilan o'zaro shaxsiy mulloqoti, ommaviy axborot vositalari va aniq maqsadga yo'naltirilgan geografiya ta'limi jarayonida amalga oshadi. shunga ko'ra geografiya ta'limining eng muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarda insoniyatning bittaligi, mamlakatlar va ular aholisining turli-tumanligi haqidagi geografik tasavvurlarni hosil qilishdan iboratdir.

"Geografik madaniyat" tushunchasining mazmun-mohiyati ilk marta rossiyalik olim V.P.Maksakovskiy tomonidan keng o'rganilgan [97]. Olim zamonaviy maktab geografiyasiga ta'rif berar ekan, ta'lim sohasidagi jahon islohotlarining rivojlanish tendensiyasida madaniyatshunoslik konsepsiysi asos qilib olinayotganligiga e'tibor qaratadi, ta'limga madaniyatshunoslik yondashuvining mohiyatini ochib beradi va geografiya bo'yicha zamonaviy ta'lim dasturlari asosiga geografik madaniyat haqidagi tasavvurlar qo'yilganligini ta'kidlaydi. shuningdek, u o'z asarlarida geografik madaniyat tushunchasining muhim belgilarini sharhlar ekan, mazkur tushuncha mazmunida ikkita: maxsus (tor) va ommaviy (keng) yo'nalish mavjudligini e'tirof etadi.

Uning fikricha, geografik madaniyat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi (1-rasmga qarang):

- 1) dunyoning geografik manzarasi;
- 2) geografik tafakkur;


3) geografik bilish metodlari;

4) geografik til.

Ushbu tarkibiy qismlar maxsus va ommaviy geografik madaniyatga bir xilda taaluqli bo'lib, ularda turli hajmda ishlataladi.

Geografiyanı o'rGANISH jarayonida o'quvchilar ongida dunyoning geografik manzarasi mahalliy, mintaqaviy va butun dunyo miqyosida shakllanadi. Dunyoning geografik manzarasini idrok etish shaxsning tabiat bilan o'zaro munosabatida, geografiya ta'limi jarayonida hamda ommaviy axborot vositalari ta'sirida amalga oshadi.

Oddiy qilib aytganda, geografik savodli va tafakkurli shaxs qattiq foydali qazilmalar kovlangan karerni rekultivatsiya qilish yoki qo'riq Yerni maysazor yoxud ekin dalasiga aylantirish istiqbolini ko'ra biladi; shahar, korxona yoki xo'jalik biror tarmog'ining rivojlanish istiqollarini yoki suv ombori qurishi oqibatida Yer osti suvlari va iqlim ko'rsatkichlarida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni baholay oladi; Quyosh radiatsiyasi bilan geografik kengliklar orasidagi o'zaro bog'lanishlar mohiyatini yoki Yer sayyorasining turli hududlaridagi iqlim ko'rsatkichlarining xilma-xilligi sabablarini anglay oladi; hududlar bilan uning tabiatini,



1-rasm. Geografik madaniyat va uning tarkibiy qismlari
(V.P.Maksakovskiy bo'yicha)

Kishilar i o'rtasidagi, tabiat bilan muayyan hududdagi Kishilar xo'jalik faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatlar sabablarini tahlil qilib, istiqbolda kutilayotgan holatlarni bashorat qila oladi yoki boshqacha ifodalasak, geografik madaniyatli odam kundalik hayotda ovqatlanish me'yorlarining miqdor ko'rsatkichlarini tahlil etib, me'yordan past darajada ovqatlanish yoki och qolish mumkinligini; o'z joyi yoki mintaqasidagi suv taqchilligi daryolar yoki kanallarning suvsizlikdan qurib qolishiga, oqibatda dehqonchilik inqirozi yoki hosildorlik pasayishiga sababchi bo'lishi yoki vohalarda Yer osti suvlarining ko'tarilishi natijasida tuproqda tuz to'planishi mumkinligini; Amudaryo va Sirdaryo

suvlarining xo'jalik ishlab chiqarishi va aholi ehtiyojlariga noo'rin sarflanishi bilan Orol dengizining qurishi o'rtasidagi yoki bug'li gazlar tufayli Yer sayyorasining o'rtacha harorati ko'tarilishi bilan Arktika muzliklarining erishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliknini baholay oladi.

Geografiya ta'limi mazmunida madaniyatshunoslik yo'nalishining kuchayishi o'quvchi shaxsida dunyoning geografik manzarasini bilish, geografik tafakkurli bo'lish, geografik bilish metodlari va mazkur fanning tilini egallah kabি fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Har bir o'quvchi shaxsida dunyoni har tomonlama makoniy his etish ko'nikmasini tarkib toptirish uchun geografiya sohasidagi bilimlar tizimi bir butun bog'lam bo'lishi kerak. Faqat geografik madaniyatli shaxs tabiatning ulug'vorligi va go'zalligini ma'naviy kuch va axloqiylik manbai sifatida ko'rish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Agar o'quvchida berilayotgan yoki taklif etilayotgan geografik bilimlarni (axborotlarni) tahliliy o'zlashtirish va to'plagan shaxsiy tajribasidan foydalanishga imkon beradigan geografik tafakkurning tegishli darajasi bo'lmasa, geografiya ta'limining eng ilg'or metodlari yoki texnologiyalari bilan ham hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. shu sababli o'quvchida geografik tafakkurning tarkibiy unsurlari etarli darajada rivojlangan bo'lishi talab etiladi.

Hozirgi davrda geografik madaniyatning mohiyatini tushunish kundan-kunga kengayib bormoqda. Geografik madaniyatning ahamiyati umuminsoniy madaniyat nuqtai nazaridan qadriyatlarni fahmlash, o‘z-o‘zini va dunyoni anglash, dunyoda tabiatdagi barcha tirik mavjudotlar bilan o‘zaro uyg‘unlikda o‘z o‘mini topish vositasi ekanligi bilan keng tan olinmoqda.

Geografik madaniyatning inazmun-mohiyati haqida rossiyalik olim V.M.Kotlyakov ham muhim xulosalar chiqargan. U jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri aholining turli guruhlariga hududiy-geografik axborotlarni tarqatish va ularda geografik madaniyatni rivojlantirish bo‘lib qoldi, degan fikrlarni bildirgan [85].

Geografiya o‘quvchilarning geografik madaniyatini rivojlantirish va shakllantirish bilan bir qatorda shaxsda ekologik madaniyatni ham rivojlantiradi. O‘quvchilar geografiyani o‘rganish jarayonida tabiatning holati, uni o‘zgartiruvchi omillar hamda tabiatni asrash, undan to‘g‘ri foydalanishga yo‘naltirilgan choratadbirlar tizimi bilan tanishadilar.

Geografiya ta’limidagi geoekologik bilimlar tizimi o‘quvchilarda geografik madaniyatni rivojlantirishda juda katta o‘rin tutadi. Uning mazmuni “tabiat – jamiyat” tizimidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, mazkur munosabatlarning asoslari quyidagilardan iboratdir:

- 1) inson – bioijtimoiy mavjudot, u ham biosferaning (tabiatning), ham jamiyatning tarkibiy qismi sifatida qarab chiqiladi;
- 2) Yer sayyorasining, shu jumladan, O‘zbekistonning tabiiy sharoiti juda xilma-xil; ularning inson xo‘jalik faoliyatiga ta’siri turli hududlarda turlich;
- 3) tabiat, uning shart-sharoitlari va resurslarining ahamiyati, ularning xo‘jalikni rivojlantirish va joylashtirishga ta’sir darajasi tarixan o‘zgarib turadi;
- 4) inson faoliyati tabiatga ta’sir ko‘rsatadigan va uni o‘zgartiradigan omilga tobora ko‘p aylanmoqda [99].

Geografiyani o‘rganish jarayonida o‘quvchilar muayyan darajada fan tilini ham o‘zlashtiradilar. Geografik tushunchalar mazmuniga ko‘ra tabaqlashtirilgan

umumgeografik, kartografik, tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy geografik tushunchalarga bo'linadi. Ilmiy dalillar tilini o'rganish, ya'ni raqamlar, sanalar, geografik nomlar va terminlar tilini egallash ham geografik madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Geografik nomlar va terminlar geografik tilning asosini tashkil etadi va ularni muayyan darajada bilish geografik madaniyatning o'ziga xos ko'rsatkichidir.

Kartografik savodxonlik, ya'ni geografik kartalar tilini bilish ham geografik madaniyatlilik belgisidir. Ta'kidlash lozimki, geografik karta bugungi kunda xalqaro muloqot tiliga ham aylangan. Geografik savodxon kishi uchun kartani bilish ona tili yoki matematikani bilishdek muhimdir. Bilimlarning kartografik usuli nafaqat geograflar, balki boshqa soha mutaxassislari tomonidan ham keng qo'llanmoqda. Kartalar yordamida turli ma'lumot olish allaqachon umumiy madaniyatning muhim qismiga aylangan.

Demak, geografik madaniyatni rivojlantirish atrofdagi dunyonи ilmiy bilishga asoslangan geografik omilli, uzoq muddatli va yaxlit jarayondir. Geografiya o'quvchilarda dunyoning rang-barangligi va yaxlitligi haqidagi bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy kishi uchun oddiy geografik bilimlarni egailash kundalik ehtiyojga aylangan, Chunki geografiya insonning yashash muhitini haqida majmuaviy bilim beradi.

Rossiyalik olima I.V.Dushinaning ta'rifiga ko'ra, **geografik madaniyat** – bu asosini atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabatlар tashkil etadigan sub'ektiv va ob'ektiv tavsiflar majmui, pedagogik ta'sir ko'rsatish natijasidir [69,70]. Geografik madaniyatni shaxsning geografik muhitni va o'z-o'zini qayta o'zgartirish usuli sifatida ham tushunish maqsadga muvofiq.


shunday qilib, adabiyotlar tahlili va kuzatishlar asosida shaxs geografik madaniyatining quyidagi belgilarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) atrof-muhitni ilmiy idrok etish;
- 2) geografiya fanlarining tilini bilish (tushunchalar, terminlar, prinsiplar, nazariyalar va jlonlantirishni bilish);

- 3) atrofdagi geografik muhit holati va uning o'zgarishi xususiyatlarini bilish;
- 4) etuk geografik tahliliy tafakkur, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmasi;
- . 5) makoniy tasavvurlarning kengligi, geografik bilimlarni xaritaga "yojlashtirish" va kartadan foydalanish ko'nikmasi;
- 6) ekologik bilimdonlik, ekologik ong, geografik muhit va uning tarkibiy qismlarini jamiyat mavjudligining negizi sifatida saqlash va yaxshilashga intilish;
- 7) kundalik hayotda geografik bilim va ko'nikmalardan foydalanish ko'nikmasi;
- 8) o'z joyidagi mavjud geografik muammolarni bilish va ularning maqbul echimini topish qobiliyatি;
- 9) geografik muhitning rivojlanish xususiyatlarini baholash va bashorat qilish, qisqa muddatli bashoratlar tuzish qobiliyatи.

Demak, yuqorida ta'kidlangan holatlar "geografik madaniyat" zamonaviy geografiya ta'limingining maqsadi va mazmunini belgilab beradigan metodologik asos bo'lib xizmat qilishga yo'naltirilishi lozim, degan xulosa chiqarishga imkon beradi (2-rasmga qarang).

2-rasmning mazmunini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, zamonaviy geografiya ta'limingining mazmunida jamiyat ijtimoiy-geografik tajribasini o'zida aks ettiruvchi va ularni avloddan-avlodga uzatuvchi quyidagi to'rtta asosiy tarkibiy qism bo'lishi lozim:



2-rasm. "Geografik madaniyat" va zamonaviy geografiya ta'limi o'rtaсидаги бөг'ланышлар

1. Geografik bilimlar – o'quvchi shaxsida geografik bilish faoliyati tajribasini hosil qiladi.
2. Geografik ko'nikmalar – o'quvchi shaxsida geografik faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usullarini egallash tajribasini vujudga keltiradi.
3. Geografik ijodiy faoliyat tajribasi - o'quvchi shaxsida geografik muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi.
4. Geografik muhitga hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi – o'quvchi shaxsida atrofdagi borliqni geografik jihatdan shaxsiy baholash ko'nikmasini shakllantiradi.

shunga muvofiq, geografiya madaniyat mazmunida o'quvchi shaxsining atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabatini shakllantirish ga imkon beruvchi quyidagi to'rtta asosiy tarkibiy qism o'z aksini topishi lozim:

1. Dunyoning geografik manzarasi.
2. Geografik tafakkur.
3. Geografik bilish metodlari.
4. Geografik til.

Biz geografiya ta'limi va geografik madaniyat o'rtaсидаги о'заро бөг'ланышларга asoslanib, "shaxs geografik madaniyati" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik: shaxsning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq bo'lgan geografik bilimlari, ko'nikmalari, ijodiy faoliyati va hissiy-qadriyatli munosabatlari tajribasi majmuida namoyon bo'lувчи va uning geografik tafakkuri, geografik til va metodlarni egallashi, dunyoning geografik manzarasini tasavvur etishi orqali atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabati xususiyatlarini belgilovchi yaxlit, o'zgaruvchan, tuzilmaviy-saviyali fazilati.

Mazkur ta'rifdan kelib chiqqan holda shaxs geografik madaniyatining yangicha mohiyati va tuzilmaviy tarkibiy qismlarini tahlil qilamiz.

Tadqiqotchi S.Matsaidova ta'rifiga ko'ra. "geografiya ta'limingining asosiy jihat – o'quvchilar tomonidan geografik bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilish

jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon «geografik bilish» deb ham yuritiladi. Geografik bilish ham bir-biri bilan o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo qiluvchi ikki jihatni o'z ichiga oladi: o'quvchi faoliyati nuqtai nazaridan «geografik uqish (o'zlashtirish)» va o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan «geografik o'qitish (o'rgatish)». Oqibatda, geografik bilish natijasida «geografik bilim va ko'nikmali (savodli) o'quvchi» shaxsi shakllanadi” [103].

shuningdek, tadqiqotchi tomonidan geografik bilish jarayonining birinchi bosqichi «hissiy tabiiy geografik bilish» bo'lib, u «tabiiy geografik sezish», «tabiiy geografik idrok» va «tabiiy geografik tasavvur»dan, ikkinchi bosqichi esa “aqliy tabiiy geografik bilish” (tabiiy geografik tafakkur) bo'lib, u «tabiiy geografik tushuncha», «tabiiy geografik hukm» va «tabiiy geografik xulosa chiqarish»dan iborat, degan xulosalar chiqariladi [104].

Biz mazkur xulosalar va shaxsiy tahlillarimizga asoslanib, atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalarni geografik bilish jarayoniga uchta omil ta'sir ko'rsatishini aniqladik:

1. Geografik sezish, idrok va tasavvur.
2. Ommaviy axborot vositalari.
3. Geografiya ta'limi.

Ma'lumki, falsafa va psixologiya fanlari nuqtai nazaridan o'quvchi bilimining manbai – sezgi hisoblanadi. O'quvchini atrofdagi geografik muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l **geografik sezish** bo'lib, bevosita muloqot jarayonida geografik ob'ektlar yoki hodisalarning ayrim xossalari uning ongida aks etadi. Demak, o'quvchi Boshlang'ich geografik bilimlarni o'z sezgilaridan oladi. Keyinchalik mazkur sezish asosida o'quvchi ongida tabiiy ob'ektlar yoki hodisalar butun holicha aks etadi, ya'ni ularning yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi. Bu **geografik idrok** deb aytildi. O'quvchining miyasida ro'y bergan bu qo'zg'alishlar, ya'ni sezish va idrok ma'lum muddatgacha o'z izini qoldiradi. Oldin idrok etilgan, lekin aynan shu onda idrok qilinmayotgan geografik ob'ektlar yoki hodisalarning o'quvchi ko'z oldiga kelgan manzarasi **geografik tasavvur** deyiladi.


O'quvchilarning geografik bilish jarayoniga **ommaviy axborot vositalari** (televiedenie, radio, gezeta va jurnallar, elektron axborot vositalari) ham katta ta'sir ko'rsatadi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan kundalik materiallarning 50 foizdan ortig'i "inson – tabiat – xo'jalik – atrof-muhit" aloqadorligining u yoki bu jihatlarini aks ettiradi.

O'quvchilarning geografik bilish jarayoniga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil – bu maqsadga yo'naltirilgan **geografiya ta'limi** jarayoni hisoblanadi. Geografiya ta'limi yuqorida ta'kidlangan ikki omilning imkoniyatlarini o'zida jamlab, o'quvchi shaxsida geografiya madaniyatning barcha tarkibiy qismlarini to'liq shakllantirish ga psixologik-pedagogik va metodik jihatdan tegishli shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

Xo'sh, geografik sezish, idrok va tasavvur jarayonlari, ommaviy axborot vositalari hamda geografiya ta'limi vositasida shakllantiriladigan shaxs geografik madaniyati tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi? (3-rasmga qarang).

1. Geografik tafakkur. Pedagogika va geografiya ta'limi metodikasiga oid ayrim adabiyotlarda geografik tafakkur ko'pincha "aqliy geografik bilish jarayoni" deb ham yuritiladi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan bu fikrga to'liq qo'shilish mumkin. Zero, geografik tafakkur har doim hissiy geografik bilishga asoslanib, undan "oziq" oladi ongli tusga kiradi. Boshqacha ifodalasak, geografik ob'ektlar yoki hodisalarining o'zaro munosabatlari, ularning ichki xususiyatlari hamda muhim va muhim bo'lmagan jihatlarini aniqlash, ular o'rtasidagi ichki va tashqi bog'lanishlarni ochish faqat mavhum geografik tafakkur yordamida amalga oshadi. Mavhum geografik tafakkur dunyonи, geografik muhitni vositali aks ettirib, hamma vaqt geografik hissiyotga asoslanadi.

Demak, o'quvchi geografik tafakkuri orqali o'zi sezmagan, biroq aslida mavjud bo'lgan geografik ob'ektlar yoki hodisalarining xossalari yoki aksincha, ularning mushtarak xossalari ifodalash orqali ular o'rtasidagi o'zaro munosabat va aloqalarni aniqlay oladi.



Geografik tafakkur – geografik ob'ektlar va hodisalarning dunyoviy muhit bilan bog'liqligi va muvofiqligini hududiy, majmuaviy, tarixiy, tasnifiy, ekologik va amaliy yondashuvlar asosida aniqlaydi va o'zida aks ettiradi.

shunga muvofiq geografik tafakkur tarkibida uning quyidagi turlari farqlanadi:

1.Hududiy geografik tafakkur - geografik tafakkurning asosi bo'lib, deyarlik barcha geografiya kurslarining mazmunida quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

-sayyoraviy (dunyoning geografik manzarasi, insoniyatning umumbashariy muammolari);

-mintaqaviy (Osiyoda Markaziy Osiyoning yirik mintaqasi sifatida qarab chiqilishi, Orol va Orolbo'yini muammosi);

-milliy (O'zbekistonning tabiiy va ijtimoiy-geografik tavsifi);

-mahalliy (O'zbekistondagi alohida hududlarning o'lkashunoslik asosida qarab chiqilishi).

2.Majmuaviy geografik tafakkur - geografik ob'ektlar va hodisalarni mohiyati bo'yicha ko'p omilli umumlashtirishdan iborat bo'lib, kichik va katta miqyosdagi umumlashtirishlar farqlanadi.

Yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, agrosanoat majmualari, tabiiy-hududiy va hududiy-ishlab chiqarish majmualari kichik miqyosdagi umumlashtirishlarga misol bo'lsa, tabiat va jamiyat o'zaro aloqadorligi muammolari, majmuaviy mamlakatshu noslik, muayyan hududlarning kartalarini tuzish katta miqyosdagi umumlashtirishlarga misol bo'ladi.

3.Tarixiy geografik tafakkur - geografik ob'ektlar va hodisalarning tarixiy jihatlarini aks ettiradi. Masalan, geografik kashfiyotlar tarixi; mamlakatlar va viloyatlar, tumanlar va shaharlar yoki aholi va xo'jalikni tasvirlashdagi tarixiy-geografik tafsiflar; insoniyatning geografik tarixi, ya'ni "bolaligi", "o'smirligi", "yoshligi" va "yetukligi" ning bayoni va shu kabilar.

4. *Tasnifiy geografik tafakkur* - geografik ob'ektlar va hodisalarni umumiy alomatlariga qarab ilmiy asosda guruhlarga ajratishni aks ettiradi va asosan quyidagi uch yo'l bilan amalga oshadi:

birinchisi, muayyan "bilimlarni yaxlitlash", masalan, iqtisodiy rayonlarga ajratish, mamlakatlar yoki mintaqalarni guruhlash;

ikkinchisi, geografik ob'ektlar va hodisalarni guruhlash, masalan, lanlshaflarning tasniflanishi, qishloq xo'jaligi yoki transport tizimini turlarga ajratib guruhlash;

uchinchisi, geografik ob'ektlar va hodisalarni tanlab o'rganish yoki muayyan tushuncha shakllanish i uchun ob'ektlar yoki hodisalarning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turgan ayrim turlarini tanlab qarab chiqish.

5. *Ekologik geografik tafakkur* – geografik ob'ektlar va hodisalarning ekologik jihatlarini aks ettiradi. Masalan, atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik siyosat, sanoat, qishloq xo'jaligi yoki transportning atrof-muhit bilan o'zar munosabati, atrof-muhit va aholi salomatligi va h.k.

6. *Amaliy geografik tafakkur* - geografik ob'ektlar va hodisalarning real hayot bilan bog'liqligini, amaliy echimlarini aks ettiradi. Masalan, tabiiy sharoit va resurslardan to'g'ri foydalanish, aholi hayot-faoliyati yoki ishlab chiqarishni hududiy jihatdan to'g'ri tashkil qilish, geografik bashoratlash va h.k.

O'quvchilarning geografik tafakkur faoliyati quyidagi fikrlash jarayonlarida amalga oshadi:

1. *Geografik tahlil* (butunni bo'laklarga fikran ajratish) - o'rganilayotgan geografik ob'ekt yoki hodisani fikran tarkibiy qismlarga ajratish usuli. Masalan, tabiatni o'rganish jarayonida uni tarkibiy qismlarga: tog' jinslari, relef, Yer osti va Yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va havo massalariga ajratish. Butunni bo'laklarga ajratish jarayonida fikr murakkabdan oddiyya, umumiyyadan yakkaga, butundan bo'lakka qarab boriladi.

2. *Geografik sintez* (bo'laklarni butunga fikran to'plash) - bo'laklarga ajratilgan geografik ob'ekt yoki hodisani fikran to'plab, yaxlit holga keltirish

usuli. Masalan, tog' jinslari, relef, Yer usti va Yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va havo massalariga ajratilgan tarkibiy qismlarni to'plab, yaxlit tabiatni o'rganish. Bo'laklarni butunga to'plash jarayonida fikr yakkadan umumiya, qismidan butunga, aniqdan mavhumga qarab boriladi.

3. *Geografik taqqoslash* - geografik ob'ektlar yoki hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni aniqlash usulidir. Taqqoslashda quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

-taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak;

-taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar qanday belgisiga ko'ra qiyoslanishi oldindan ma'lum bo'lishi shart;

-hamma vaqt ikki yoki undan ortiq geografik ob'ekt yoki hodisani bir belgisi asosida bir xil nisbatda solishtirish kerak;

-taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar tasodifiy, muhim bo'limgan belgilariga qarab emas, aynan faqat muhim belgilari asosida qiyoslanishi lozim.

4. *Geografik umumlashtirish* - geografik ob'ektlar yoki hodisalarining o'xshash hamda muhim belgi va xususiyatlari, bog'lanishlarini fikran muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va natijasidir.

Umumlashtirish geografik ilmiy bilishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Unda ayrimlikdan umumiylikka o'tilib (masalan, «relef» tushunchasidan «Landshaft» tushunchasiga), umumiylar tushuncha, hukm va nazariyalar hosil qilinadi (masalan, Landshaft - geologik zamini, relefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumlari, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaralarga ega bo'lgan hudud; yomg'ir, qor, do'l, muz zarralari – yog'inlar va hakazo).

5. *Geografik mavhumlashtirish* - geografik ob'ektlar yoki hodisalarining yakka, ikkinchi darajali, muhim bo'limgan belgilaridan uzoqlashish va muhim belgilarini topish usuli. Mavhumlashtirish natijasida geografik ob'ektlar yoki

hodisalarning ichki tomonlari, mohiyati ochilib, geografik tushuncha shaklida ongda mustahkamlanadi.

O'quvchining geografik ob'ektlar yoki hodisalarni mavhumlashtirish qobiliyati aynan uning fikrlash qobiliyati hisoblanadi. O'quvchini mavhumlashtirishga o'rgatish geografiya ilmini egallash, uning qonuniyatlarini tushunishda juda muhim ahamiyatga ega.

2. Geografik til. Geografik ob'ektlar yoki hodisalarni o'rganish jarayonida o'quvchilar tomonidan geografiya fanlarining ilmiy tilini bilish va o'zlashtirish talab etiladi. Zero, geografiyaning tushuncha-terminlar, ilmiy dalillar, raqamlar, sanalar, geografik nomlar (atamalar), tasavvurlar va kartalar tili yordamida hamda geografik tafakkur vositasida geografik ta'lilotlar, nazariyalar, konsepsiylar, ilmiy farazlar va metodlarning mohiyati ochib beriladi va shu asosda dunyoning geografik manzarasi anglanadi (3-rasmga qarang).

Dernak, geografik ob'ektlar yoki hodisalarni bilish uchun avvalo tafakkur orqali ular haqidagi tushunchalarni vujudga keltirish talab etiladi, tushunchalar esa tilda o'z ifodasini topadi. Geografik til o'zining shu xususiyati bilan o'quvchiga geografik bilimlar to'plashga, uni saqlashga, avloddan-avlodga uzatishga, egallagan geografik bilimlaridan amalda foydalanishiga yordam beradi. Ayni paytda geografik til geografik tafakkurni takomillashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi va geografik tafakkur faqat til yordamida o'z ifodasini topadi.

Geografik tafakkurdagi fikr geografik tilning terminlari va so'z birikmalari orqali ifodalanadi. O'quvchi o'z ongida faqat geografik til yordamida geografik ob'ekt va hodisalar mohiyatini, mavhum geografik tushunchalar va qonuniyatlarini aks ettiradi.

Geografik tafakkur jarayonida hamma vaqt aniq geografik bilish maqsadi qo'yiladiki, bu hol geografik til geografik tafakkurning moddiy qobig'i ekinligidan dalolat beradi.

Geografik til ovozli-og'zaki va ovozsiz-yozma shakllarda bo'lishi mumkin. Ovozsiz-yozma shakldagi geografik til ko'pincha «geografik matn» deb ham

yuritiladi. Demak, geografik tilsiz (nutqsiz, matnsiz) geografik fikr yuritish aslo mumkin emas. Geografik til (nutq, matn) va tafakkur bir-biri bilan o'zaro uzviy, "genetik" bog'langan va bir-birining namoyon bo'lishida muhim o'rinn tutadi.

O'quvchining geografik tafakkuri turli shakllarda amalga oshadi. Xususan, geografik sezish va idrok geografik tasavvurda namoyon bo'lganidek, geografik tafakkur ham «geografik tushuncha», «geografik hukm» va «geografik xulosa chiqarish» orqali mavjud bo'ladi. Bularning barchasi geografik ob'ektlar va hodisalarning mavhum geografik tafakkurda namoyon bo'lish shakllari hisoblanadi hamda faqat geografik tilda (nutq, matnda) o'z ifodasini topadi.

3. Geografik bilish metodlari o'quvchilarni geografik ob'ektlar yoki hodisalarни tadqiq qilishga undaydigan yondashuvlar, shuningdek geografik tadqiqotlarning o'ziga xos usullari va metodikasıdir. Geografik tadqiqotlarning maqsadi ko'zda tutilayotgan ilmiy bilish jarayonining natijasi va uning amaliyotga yoki geografiya fani rivojiga munosabati bo'ladi. O'quvchilar geografiya ta'limi jarayonida ilmiy metodlar bilan turli xil usullar yordamida amaliy tanishtiriladi. Geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilar tanishtiriladigan ilmiy metodlarni foydalanshiga ko'ra an'anaviy va yangi metodlarga bo'lish mumkin (3-rasmga qarang).

An'anaviy metodlarga quyidagilar mansub:

1. *Geografik tavsiflash metodi* - geografik ob'ekt va hodisalarga tavsif berish. Masalan, "O'zbekistonning geografik o'mi", "Qashqadaryo viloyati refezi", "Quyi Amudaryo iqlimi", "O'zbekiston daryolari", "Farg'ona vodiysi aholisi", "Yapon an'analari", "Meksikaning madaniy mYerosi", "Afrikaning yovvoyi tabiatи", "Pekin" kabi aniq hududlar, ob'ekt va hodisalarini rejalar asosida tavsiflash.

Geografik tavsiflash tilini (nutqda, matnda) takomillashtirib borish, ayniqsa uning his-tuyg'ularga boyligini, jo'shqinligini kuchaytirish mazkur metodning o'ziga xos jihatidir.

2. *Kartografik metod* – kartalar ishtirok etadigan geografik tadqiqot metodlari bo‘lib, makoniy tasavvurlarni kengaytiradi, geografik bilimlarni xaritaga “joylashtirish” va kartadan foydalanish ko‘nikmasini hosil qiladi.

Kartalar ba’zan boshqa metodlar orqali olingan natijalarni namoyish qilishga xizmat qilsa, ba’zan kartaning o‘zi dastlabki axborotlarni olish va yakuniy natijalar chiqarishga xizmat qiladi. Kartografik metod geografiya fanining o‘ziga xos “tili” (shartli belgilari tzimi, kartografik tasvirlash usullari, muhimligi bo‘yicha ajratish qoidalari) sifatida o‘rganilayotgan ob’ektlarni aniq qayd etadigan va tasvirlaydigan metod bo‘lib, hozirgi kunda muayyan geografik qonuniyatlarni ochib beradigan, geografik ob’ektlar yoki hodisalarni majmuaviy tavsiflaydigan qudratli texnik vositaga aylangan.

Mazkur metod geografik ob’ektlar va hodisalarni kartalar yordamida o‘rganish, tahlil qilish hamda kartani o‘qish, tushunish, uning bilan ishslash ko‘nikmalarini vujudga keltiradi.

3. *Geografik qiyoslash metodi* – geografik tafakkurning asosini tashkil qilib, geografik ob’ekt va hodisalarni o‘xshashligi va tafovuti bo‘yicha, yaxlit holda va ayrim belgilari bo‘yicha qiyoslashda o‘z ifodasini topadi. Masalan, O‘zbekistondagi past, o‘rtacha va baland tog‘larni qiyoslash, Amshu daryo bilan Sirdaryoni qiyoslash, Orol dengizi bilan Kaspiy dengizini qiyoslash, Farg‘ona vodiysi xo‘jaligi bilan Quyi Amudaryo xo‘jaligini qiyoslash va x.k.

Qiyoslash ko‘pincha bir yoki bir necha belgililar bo‘yicha oddiy yoki birmuncha murakkab topshiriqlar tizimi shaklida amalgalashiriladi.

4. *Statistik metodlar* - geografik ob’ektlar va hodisalar mohiyatini ochishda turli xildagi raqamlari ko‘rsatkichlardan foydalanishga asoslanadi. Geografiya ta’limida geografik tasvirlar va tavsiflarga katta aniqlik kiritish, ko‘plab miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlarni aniqlashtirish, xilma-xil ob’ektlar va hodisalarning miqyosini aniqlash, har xil qonuniyatlarni ochish, turli mazmundagi grafiklar, diagrammalar va jadvallar tayyorlash uchun raqamlari ko‘rsatkichlardan foydalanish talab etiladi.

Keyingi paytlarda geografiya ta'limi jarayonida statistik ko'rsatkichlarning (mutloq, nisbiy, koeffitsientlar ko'rinishidagi) barcha turlarini qo'llashga, geografik hodisa va jarayonlarni statistik o'rganish (kuzatish, guruhlash, ajratib ko'rsatish, tahlil qilish) turlari va bosqichlariga, statistik ma'lumotlar tuzishning turli shakllaridan (yakka raqamlar, jadvallar, grafik tasvirlar) foydalanishga e'tibor kuchaymoqda.

Yangi metodlarga quyidagilar mansub:

1. *Matematik-geografik modellashtirish metodi* – xilma-xil geografik tadqiqotlarda sun'iy yaratilgan ob'ektlar-modellardan (geografik karta, globus, matematik formula, grafika, chizma, moslama va h.k.) foydalanish. Masalan, ekologik muammolarni echishda tabiiy jarayonlarni modellashtirish, geotizimlar modellari, tabiiy-hududiy va ishlab chiqarish-hududiy tizimlarning o'zaro munosabati modeli, urbanizatsiyaning salbiy ekologik va ijtimoiy oqibatlari modeli va h.k.

2. *Aerokosmik metod* - geografik ob'ektlar va hodisalar mohiyatini ifodalashda kosmik suratlardan foydalanishga asoslanadi. Masalan, aYerokosmik suratlarni o'qish va ularda mo'ljash olish bilan bog'langan amaliy ishlar. Geografiya ta'limida mazkur metodning ahamiyati haqida ko'p gapiriladi, biroq amalda bu metodning mohiyati ochib bYerilmayapti.

Geografik bilish metodlari haqida gap ketganda o'quvchilar geoaxborotlar tizimi bilan mutlaqo tanish emasligini alohida ta'kidlaymiz. Hatto ko'pchilikka anchadan bYeri nomlari ma'lum bo'lgan geokimyoiy, geofizik kabi metodlardan ham amalda foydalanilmaydi.

4. Dunyoning geografik manzarasi asosida zamonaviy geografiya sohasidagi tadqiqiy va amaliy ishlar jarayonida olingen va tekshirib ko'rilgan ilmiy bilimlar yotadi va odamning tabiat va jamiyat, unga munosabati haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi (3-rasmga qarang).

Geografiyaning tabiiy va ijtimoiy fanlar chegarasida o'ziga xos o'rinda joylashganligi oqibatida dunyoning geografik manzarasi dunyoning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-ilmiy manzaralari tarkibiga tashkil etuvchi omil sifatida kiradi.

Biz dunyoning geografik manzarasini geografik madaniyatning asosiy tushunchasi sifatida qarab chiqar ekanmiz, uning eng muhim tarkibiy qismi – ilmiy geografik bilimlarning bosqichma-bosqich bir-biriga bo'ysunishi haqida fikr yuritamiz.

Dunyoning zamonaviy geografik manzarasi haqida keng va rang-barang tasavvurlarni ifodalaydigan geografik bilimlar majmuasining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Geografiyaning nazariy asoslari.
2. Geografik tadqiqot metodlari.
3. Geografik ob'ektlar va hodisalar.
4. Hududlarning geografik tavsifi.
5. Dunyoni geografik bilishning moddiy va ma'naviy madaniyatda aks etishi.

Geografik bilimlar umumiy tarzda geografik ob'ektlar va hodisalarning tabiiy geografik til shaklida qayta ifodalanishi, aks etishi sifatida tavsiflanadi. Nazariy va empirik geografik bilimlar farqlanadi. Nazariy bilimlar geografik ob'ektlar va hodisalarning xususiyatlari, ichki aloqalari va munosabatlarini aniqlovchi mohiyatni aks ettiradi. Nazariy bilimlar ta'lilotlar, nazariyalar, konsepsiylar, ilmiy farazlar, qonunlar, qonuniyatlar, sabab-oqibat bog'lanishlari va tushunchalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Empirik bilimlar geografik ob'ektlar va hodisalarning tashqi xususiyatlarini ifodalaydi; ularga tasavvur va dalillar mansubdir.

Geografiya ta'limi mazmunida dunyoning geografik manzarasini shakllantiruvchi eng muhim nazariy bilimlar majmuasini quyidagicha ifodalash mumkin [98,99]:

I. Geografik qonunlar va qonuniyatlar:

1. Geografik qobiqning yaxlitlik qonuniyati.

2. Geografik qobiqning bir maromda ishlash qonuniyati.
3. Geografik qobiqning zonalar bo'yicha taqsimlanganlik qonuniyati.

II. Geografik ta'limotlar:

1. Umumilmiy ta'limotlar:

1. Tabiatdan foydalinish haqidagi ta'limot.
2. Dunyo okenai haqidagi ta'limot.
3. Tuproqlar haqidagi ta'limot.
4. Biosfera haqidagi ta'limot.
5. NoosfYera haqidagi ta'limot.
6. Evolyusiya ta'limoti.

2. Tabiiy geografik ta'limotlar:

1. Geografik qobiq haqidagi ta'limot.
2. Geografik zonalar bo'yicha taqsimlanganlik haqidagi ta'limot.
3. Geografik Landshaft haqidagi ta'limot.
4. Tabiiy-hududiy majmua haqidagi ta'limot.

3. Ijtimoiy-iktisodiy geografik ta'limotlar:

1. Iqtisodiy geografik o'rinn haqidagi ta'limot.
2. Geografik (hududiy) mehnat taqsimoti haqidagi ta'limot.
3. Hududiy-ishlab chiqarish majmui haqidagi ta'limot.

4. Kartografik ta'limotlar:

1. Karta haqidagi ta'limot.

5. Chegaradosh fanlar bilan bog'liq ta'limotlar:

1. Tabiiy-o'choqli kasalliklar haqidagi ta'limot.
2. Geobiotsenoz haqidagi ta'limot.
3. Landshaft geokimyosi haqidagi ta'limot.

III. Geografik ilmiy nazariyalar:

1. Umumilmiy nazariyalar:

1. Prognoz qilish nazariyasi.
2. Barqaror taraqqiyot nazariyasi.

4. Geografik determinizm nazariyasi.

5. Rayon planirovki nazariyasi.

2. *Ummungeografik nazariyalar:*

1. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasi.

2. Geografik baholash nazariyasi.

3. Tabbiy va texnogen xavf nazariyasi.

3. *Tabbiy geografik nazariyalar:*

1. Tabbiy geografik hududlarga bo'lish nazariyasi.

2. Litosfera plitalari nazariyasi.

4. *Iqtisodiy geografik nazariyalar:*

1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish nazariyasi.

2. Iqtisodiy hududlashtirish nazariyai.

3. Jahon xo'jaligi nazariyasi.

4. Xo'jalik va joylashishning hududiy tuzilmasi nazariyasi.

5. Urbanizatsiya nazariyasi.

5. *CHegaradosh fanlar bilan bog'liq nazariyalar:*

1. Demografik o'zgarish nazariyasi.

2. Etnogenetik nazariyasi.

IV. Geografik ilmiy konsepsiylar:

1. Geotexnik tizimlar konsepsiysi.

2. Atrof-muhit monitoringi konsepsiysi.

3. Geografik ekspertiza konsepsiysi.

4. Qutlashgan Landshaft konsepsiysi.

5. Geotizimlarning barqarorligi va o'zgaruvchanligi konsepsiysi.

6. Hududiy-rekratsion tizimlar konsepsiysi.

7. "Ekologik talab" konsepsiysi.

8. Geosiyosat konsepsiysi.

9. Tarixiy-madaniy hududlar konsepsiysi.

V. Geografik ilmiy farazlar:

1.Kosmogoniya ilmiy farazi.

2. "Materiklar dreyfi" ilmiy farazi.

3. "Bug'li gazlar ta'siri" ilmiy farazi.

VI.Geografiya ta'limi mazmunidagi sidirg'a yo'nalishlar:

1.Insonparvarlik – tabiatni insoniyatning vujudga kelish va yashash muhitini sifatida qarab chiqish.

2.Ijtimoiylik – tabiat va jamiyat hayotida shaxsnинг tutgan o'mini ko'rsatish.

3.Ekologik – ekologik madaniyatni shakllantirish .

4.Iqtisodiy – iqtisodiy madaniyatni shakllantirish .

Mazkur geografik bilimlar majmuasi geografiya ta'limidagi miqyosli-darajaviy tarzda, ya'ni mahalliy, mintaqaviy-milliy va sayyoraviy miqyoslarda o'rganiladi hamda tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy geografik muhit qonunlarini aks ettiruvchi hamda "tabiat-jamiyat" o'zaro aloqasini ifodalovchi g'oyalarda o'z aksini topadi.

Dunyoning geografik manzarasi geografik bilimlar va ko'nikmalarning quyidagi ikkita katta guruhini o'z ichiga oladi:

- geografiyaning boshqa fanlar bilan birgalikda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradigan bilim va ko'nikmalar;

- geografiyaning o'ziga xos xususiyatlarini hosil qiladigan va uning o'quvchi shaxsi umumiy madaniyatiga qo'shadigan hissasini belgilab beradigan bilimlar va ko'nikmalar.

Eng muhim dunyoqarashlik g'oyalari quyidagilardan iborat:

1.Geografik qobiq taraqqiyotidagi asosiy qonunlarning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi g'oyalari:

-geografiq qobiq – geosferalarning (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera) modda va energiya almashinuvida namoyon bo'ladigan o'zaro aloqador moddiy yaxlit tizimi;

-geografik qobiq o'z tuzilmasiga ko'ta xilma-xil va mintaqaviy-hududiy tuzilishga ega;

-geografiq qobiq – ichki va tashqi jarayonlar ko‘rinishlari oqibatida makonda va zamonda doimiy o‘zgarib turuvchi, o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi tizim.

2.Aholi va xo‘jalik joylashu vi va rivojlanishining dialektik qonunlarini aks ettiruvchi g‘oyalari:

-xo‘jalik va aholining joylashish va rivojlanish jarayonlari o‘zaro aloqador ekanligi;

-xo‘jalik – paydo bo‘lish va yo‘qolish bilan tavsiflanadigan doimiy rivojlanishdagi tizim ekanligi.

3.Tabiat va jamiyat o‘zaro aloqasini ifodalovchi g‘oyalari:

-inson – tabiatning bir qismi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omil;

-tabiiy shart-sharoitlar turli mintaqalar xo‘jaligiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi;

-xo‘jalikni joylashtirish va rivojlantirishda tabiatning tutgan o‘rni tarixan o‘zgaruvchan.

Biz yuqorida o‘quvchi shaxi geografik madaniyatining mohiyati va uning tuzilmaviy tarkibiy qismlari mazmuni bilan nazariji jihatdan tanishib chiqdik.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1.Qadimgi dunyo geografiyasini bilan hozirgi zamon geografiyasining farqi nimada?

2.Zamonaviy geografiyaning bosh vazifasi nima?

3.Geografik qobiq taraqqiyotidagi asosiy qonunlarning namoyon bo‘lishini aks ettiruvchi g‘oyalarga qaysi g‘oyalari kiradi?

4.Tabiat va jamiyat o‘zaro aloqasini ifodalovchi g‘oyalarga qanday g‘oyalari kiradi?

5.Chegaradosh fanlar bilan bog‘liq nazariyalarga kanday nazariyalar kiradi?

6.Iqtisodiy geografik nazariyalarga qanday nazariyalar kiradi?


7.Zamonaviy geografik tadqiqotlarni dolzarb umumiy yo‘nalishlariga qanday yo‘nalishlar kiradi?

4-§ Geografiya ta'limida o'quvchilar geografik madaniyatini shakllantirish jarayonining metodik ta'minoti

Manbamizda ta'kidlab o'tilganidek, amaliy geografiya ta'limi jarayoni - bu o'quvchini geografiyaga o'rgatuvchi, ularda geografik tafakkurni tarkib toptiruvchi va geografik madaniyatni rivojlantiruvchi jarayon bo'lib, uni muayyan tizim asosida tartibga solish va boshqarishga imkon beruvchi model ishlab chiqilgan edi. Mazkur modelga muvofiq amaliy geografiya darslarida o'quvchilar geografik madaniyatini shakllantirish uchun uning metodik ta'minotini vujudga keltirish talab etiladi.

Amaliy geografiya ta'limi mazmuniga jarayon nuqtai nazaridan tizimli yondashganimizda uning quyidagi tarkibiy qismlari namoyon bo'ladi (4-rasmga qarang):

1. Amaliy geografiya ta'limi jarayonini rejalashtirish. rejalashtirish geografiya o'qituvchisi tomonidan amaliy geografiya ta'limi mazmunining to'rtta tarkibiy qismi: geografik bilimlar, ko'nkmalar, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasiga muvofiq o'quvchilar geografik madaniyatini tegishli ta'lim texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati asosida tizimli-majmuaviy shaklda tashkil etish va o'tkazish rejasining ishlab chiqilishi.



4-rasm. Amaliy geografiya ta'limi jarayonining tarkibiy qismlari.

2. Amaliy geografiya ta'limi jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlik
ish. Tayyorgarlik ko'rishishlarida amaliy geografiya ta'limi mazmunining
ta tarkibiy qismi: geografik bilimlar, ko'nikmalar, ijodiy faoliyat va hissiy-
riyatli munosabatlar tajribasiga muvofiq o'quvchilar geografik madaniyatini
oshli ta'lim texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati asosida

tizimli-majmuaviy shaklda tashkil etish va o'tkazishning etarli darajada o'quv-moddiy jihozlanishi hamda geografiya o'qituvchilarining etarlicha o'quv-metodik tayyorgarligi talab etiladi.

3. Amaliy geografiya ta'limi jarayonini amalga oshirish. Amaliy geografiya ta'limi jarayoni amaliy gografiya ta'limi mazmunining to'rtta tarkibiy qismi: geografik bilimlar, ko'nikmalar, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasiga muvofiq o'quvchilar geografik madaniyatini har bir mavzu bo'yicha o'ziga xos va mos ta'lim texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati asosida tizimli-majmuaviy tashkil etilishi lozim. Bu esa amaliy geografiya ta'limi jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uni amalga oshirishga maxsus tayyorgarlik ko'rishva geografiya o'qituvchilari tomonidan yuqorida ta'kidlangan ta'lim texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini oldindan ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

4. Amaliy geografiya ta'limi jarayonini nazorat qilish. Amaliy geografiya ta'limi jarayonini nazorat qilish amaliy gografiya ta'limi mazmunining to'rtta tarkibiy qismi: geografik bilimlar, ko'nikmalar, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasiga muvofiq o'quvchilarda geografik madaniyatning rivojlanishini mos ravishda tizimli, ya'ni, ta'lim texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati turlari bo'yicha qo'yilgan maqsad va Erishilgan natijalar tashxisi (joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat) asosida yo'l qo'yilgan xatoliklar sabablari va ta'limni tashkillashtirish, uning metodlari, vositalari samaradorligini aniqlash hamda o'quvchilarda geografik madaniyatning rivojlanishini xolis baholash, ta'lim jarayonini samarali rejalashtirish uchun ma'lumotlar to'plash, shuningdek, o'quvchilarning geografik bilish va o'quv-ijodiy faoliyati xarakteri haqidagi tezkor axborotlarni olish (teskari aloqa) maqsadida amalga oshiriladi.

O'quvchilarda geografik madaniyatning rivojlanishini hisobga olish joriy (kuzatish, suhbatlashish, tekshirish, baholash), davriy (tekshirib borish, nazorat

qilish) va yakuniy (geografik madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlash ishlari) turlarda amalga oshiriladi.

shunday qilib, tadqiqot jarayonida tajribaviy kasb-hunar kollejlarida amaliy geografiya ta'limida o'quvchilar geografik madaniyatini shakllantirish mazmuni va jarayoni o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklar aniqlanib, ularning tarkibiy qismlari shartli ravishda alohida ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Mazkur masalaning metodik jihatni amaliy geografiya ta'limi jarayonining didaktik mohiyatini anglab olishni nazarda tutadi (5-rasmga qarang).


5-rasmdan ko'rinish turibdiki, amaliy geografiya ta'limi jarayonining asosini geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati tashkil qilib, maqsadi - o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish , asosiy mazmuni esa o'quvchilarda geografik bilim va ko'nikmalarni, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlardan tajribasini shakllantirish dan iboratdir.

Bunga erishish uchun, birinchidan, geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati jarayonlarining o'quv-moddiy jihozlanishi, ikkinchidan, nazariya bilan amaliyotning o'zaro mustahkam bog'liqligi etarli darajada ta'minlanishi lozim.


Biz amaliy geografiya ta'limi jarayonining metodik mohiyatini har tomonlama asoslashga harakat qildik:

1.Geografiya o'qituvchilari va o'quvchilarning faoliyati nuqtai nazaridan amaliy geografiya ta'limi jarayonining mazmuni quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi (6-rasmga qarang):

a) geografiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyati o'rgatishdan iborat bo'lib, o'quvchilarda geografik bilish jarayonlari, ularning shart-sharoitlari, usullari va vositalari haqida to'liq tasavvurlar hosil qilishni; geografiya ta'limi texnologiyalari va geografik o'quv-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar faoliyatiga rahbarlik qilishni;



5-rasm. Amaliy geografiya ta'limi jarayonining didaktik mohiyati



o'quvchilarning o'qishdagi yutuqlarini tahlil va nazorat qilib, ularda geografik madaniyatning rivojlanishini tekshirish va baholashni o'z ichiga oldi;

b) o'quvchilarning o'qув faoliyati o'rganishdan iborat bo'lib, geografiya o'qituvchilarining geografik bilish bo'yicha ko'rsatmalarini qabul qilishni, ularning mohiyatini anglashni, oldinda turgan ishlarni o'ylab ko'rishva rejalahtirishni; geografiya ta'limi texnologiyalari va geografik o'qув ijodiy

6-rasm. Amaliy geografiya ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari

ishlarni bajarish jarayonida o‘z-o‘zini va ish natijalarini nazorat qilishini o‘z ichiga oldi.

2.Ta’lim vositalari nuqtai nazaridan amaliy geografiya ta’limi jarayonining mazmuni quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oldi (7-rasmga qarang):

a) tabiiy ob’ektlar (foydali qazilmalar kolleksiyasi; tog‘ jinslari va mineral lar kolleksiyasi; gerbaryilar; ekskursiyalar uchun tabiiy ob’ektlar va h.k.);

b) geografik ob’ektlar va hodisalar tasviri (modellar; rasmlar, suratlar, portretlar; fotosuratlar; diafilmlar va diapositivlar; kinofilmlar va h.k.);


v) geografik ob’ektlar va hodisalarning tavsisi, ularning belgili-timsolli shaklda aks etishi: og‘zaki asosli qo‘llanmalar (darsliklar; o‘quv qo‘llanmalar, ish daftarlari; ma’lumotnomalar; sodda qo‘llanmalar (xrestomatiyalar) va h.k); kartografik qo‘llanmalar (kartalar; karta-chizmalar . va h.k); grafik qo‘llanmalar (grafiklar; diagrammalar va h.k);

g) geografik ob’ektlar va hodisalarni tahlil qilish va qayta aks ettirish asboblari (geografik ob’ektlar va hodisalarni kuzatish, o‘lhash va tahlil qilish uchun modellar, asbob-uskunalar, anjomlar va h.k);


d) o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar (amaliy geografiya ta’limini tashkil qilish va uning metodikasi bo‘yicha o‘quv-metodik ko‘rsatma va qo‘llanmalar, metodik ishlanmalar, ma’lumotnomalar qo‘llanmalari, ilg‘or tajribalar, metodik tavsiyalar va h.k.).

yuqorida ta’kidlangan nuqtai nazarlar bo‘yicha amaliy geografiya ta’limi jarayonini yaxlit tashkil etish uning bosh maqsadi - o‘quvchilarda geografik madaniyatni majmuaviy shakllantirish ga imkoniyat yaratadi.

Biz amaliy geografiya ta’limi jarayonida shakllantiriladigan geografik bilim va ko‘nikmalar majmui, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatlari munosabatlari tajribasi hamda shunga muvofiq rivojlantiriladigan o‘quvchilar geografik madaniyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliknini shartli ravishda quyidagicha ifodaladik (8-rasmga qarang).



7-rasm. Geografiya ta'lim vositalari va ularning turлari



8-rasm. Geografik bilimlar, koʼnikmalar, ijodiy faoliyat va bissiy-qadriyatlari munosabatlar tajribasi va geografik madaniyatning oʼzaro aloqadorligi

Amaliy geografiya taʼlimi jarayonining barcha bosqichlarida taʼlim texnologiyalari va oʼquvchilar oʼquv-ijodiy faoliyatiga oid har bir amaliy hatti-harakatning moʼljalli asoslari vujudga keltiriladi.

Hatti-harakatlarning moʼljalli asoslari oʼquvchilarda geografik koʼnikmalar hamda geografik ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatlari munosabatlar tajribasini, oʼz navbatida geografik tafakkurni maqsadga muvofiq shakllantirish da juda katta ahamiyat kasb etdi. Zero, hatti-harakatlarning moʼljalli asoslari amaliy harakatning maqsadi (nima qilish? nimani oʼrganish? nimaga Erishish?), sabablari (nima uchun bajarish kerak?), vositalari (nimaning yordami bilan bajarish? nimadan foydalanish?). usullari (qanday bajarish? qanday tartibda? qanday talablarga amal qilish?) va nazorat qilish usullari (harakatning qoʼyilgan maqsadga mosligini qanday aniqlash?) nimalardan iborat ekanligini asoslaydi.

Tajriba-sinov sharoitida hatti-harakatlarning moʼljalli asoslari bir necha tur koʼrinishlarida namoyon boʼldi. Jumladan, tegishli hududlar aholisiga tafsif

berishda muayyan hududning aholisiga berilgan tavsif namunasi asosida mo'ljal olingan hollarda «namuna va xato» usulidagi ta'lism; muayyan hududning aholisiga berilgan tavsif namunasi hamda tavsif tayyorlash harakatlarini to'g'ri bajarish ko'rsatmasi asosida mo'ljal olingan hollarda «men bajarganday bajar», «ko'rsatmali varaqada ko'rsatilganidek bajar» usulidagi ta'lism; muayyan hudud aholisini tavsiflash harakatlarini bajarish usullari va vositalari mustaqil izlanib mo'ljal olingan hollarda «o'ylab ko'r va o'zing bajar» usulidagi ta'lism amalgalashirildi.

Maktablar amaliyotida o'quvchilar geografik madaniyatini majmuaviy shakllantirish ga asosiy e'tibor qaratilishi va bir qator didaktik prinsiplarga asoslanib geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilar o'quv-ijodiy faoliyatini tashkil etiladi (9-rasmga qarang).


1. Amaliy geografiya ta'limi jarayonini rejalashtirish.

Amaliy geografiya ta'limini rejalashtirish orqali quyidagi vazifalar ijrosini ta'minlash ko'zda tutiladi:

- fan dasturining o'z vaqtida to'liq bajarilishi;
- o'quv va tajriba-sinov ishlarini o'zaro uyg'unlashtirish;
- tajriba-sinov va o'quv ishlarini tanlash;
- o'quv xonalarini moddiy-texnik jihozlash.

Amaliy geografiya ta'limini rejalashtirish mazmunan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilar o'quv-ijodiy faoliyatini turlarini tanlash va ularning ro'yxatini tuzish;
- geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilar o'quv-ijodiy faoliyatini o'tkazilish vaqtini bo'yicha rejalashtirish;
- amaliy geografiya ta'limining istiqbolli-mavzuiy rejasini ishlab chiqish;
- mashg'ulotlarning ish rejalarini hamda o'quvchilarga ko'rsatmalar varag'i matnlarini ishlab chiqish.



9-rasm. Amaliy geografiya ta'lim jarayoni prinsiplari

Mazkur rejalashtirish tizimida o'quvchilarda geografik madaniyat shakllanishini ta'minlovchi geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilar o'quv-ijodiy faoliyati turlarini tanlash eng muhim o'rinni tutdi. Jumladan, har bir mavzuning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqilgan holda eng maqbul geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilar o'quv-ijodiy faoliyati turlari tanlanadi.

2. Amaliy geografiya ta'limi jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlik ishlari.

Maktablarda amaliy geografiya ta'limini amalga oshirishga tayyorgarlik ishlari ikki jihatni o'z ichiga oladi:

1. Geografiya o'quv xonasi tayyorgarligi, unda o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ish o'rinalarini jihozlash.
2. O'quvchilar va o'qituvchilar uchun amaliy geografiya ta'limining majmuaviy metodik ta'minoti tizimini yaratish.

Shu maqsadda geografiya o'quv xonalari o'quv muhitiga qo'yilgan talablarga muvofiq: o'quv xonasi maydonining qurilish me'yorlari va qoidalariga mosligi; multimedia vositalari, o'quv adabiyotlari, globuslar, kartalar, kolleksiyalar, asbob-uskuna va jihozlarning me'yorlar bo'yicha joylashtirilishi va ulardan foydalanish shart-sharoitlariga muvofiqligi; xonaning me'yorida yoritilishi ; ish sharoitining maqbulligi; sanitariya- gigiena va mehnat xavfsizligi hamda estetika talablarini qondirishi tahlil qilinadi.

O'quv xonalari amaliy geografiya ta'limi mazmuniga muvofiq qayta jihozlanadi. Jumladan, «Jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri», «Tabiat komplekslari va ularning o'zgarishi», «Ekologik muammolar va ularning echimi», «Geografik baholash va bashorat tizimi», «Atrof-muhit monitoringi tizimi», «Geografik-ekologik ekspertiza tartibi», «O'quvchilarning atrof-muhitdagi xulq-atvor qoidalari» kabi devoriy plakatlar, namunaviy o'quv-ijodiy ishla ko'rgazmasi, aksariyat ko'p qo'llaniladigan ma'lumotnomalar va jadvallar, guruh devoriy gazetasi tashkil etiladi.

Geografiya o'quv xonalarida o'quvchilar va o'qituvchilarning ish o'rirlari o'quv jarayonini samarali tashkil etishga qulay holda qayta jihozlanadi: stol, stul; kompyuter va videoproektor; sinf doskasi; o'quv vositalaridan foydalanish va ularni joylashtirish uchun zarur bo'lgan maydon; o'quv jihozlari va materiallarini saqlash va joylashtirish uchun qutilar, moslamalar; asbob-uskunalar va o'quv hujjatlarni saqlash va joylashtirish uchun jovonlar; ish o'rirlariga biriktirilgan kodoskop va boshqa vositalar va mehnat xavfsizligi shart-sharoitlarini ta'minlovchi boshqa moslamalar o'rnatiladi.

Geografiya o'qituvchilarining amaliy geografiya ta'limi jarayonini amalga oshirishga tayyorgarligi alohida muhim o'rinni tutadi. Geografiya o'qituvchilarining amaliy geografiya ta'limini tashkil etish va o'tkazishga tayyorgarligi quyidagi uchta jihatni qamrab oladi:


1. Geografiya o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi.
2. Geografiya o'qituvchisining mavzular majmuini o'rganishga tayyorgarligi.
3. Geografiya o'qituvchisining alohida mashg'ulotlarni o'tkazishga tayyorgarligi.

Mazkur tayyorgarliklarning har bir turida geografiya o'qituvchisining amaliy geografiya ta'limini amalga oshirishga shaxsan tayyorgarligi, uni o'quv-moddiy jihozlashga tayyorgarligi va o'quv jarayonini rejalashtirishi ko'zda tutiladi (10-rasmga qarang).

O'quvchilar va geografiya o'qituvchilari uchun amaliy geografiya ta'limining majmuaviy metodik ta'minoti tizimini yaratish ta'lim muassasida amalga oshirilgan tayyorgarlik ishlarining eng muhim jihatlaridan biri.

Mazkur majmuaviy metodik ta'minot tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:
-dasturning barcha mavzulari bo'yicha o'quv materiallarini qamrab olishi;
-amaliy geografiya ta'limi jarayonining barcha bosqichlari uchun: amaliy hatti-harakatlarning mo'ljallasi asoslarini shakllantirish ;
-faoliyatning yangi usullarini joriy etish; faoliyatning o'zlashtirilgan usullarini yangi vaziyatlarda qo'llash; nazorat va xulosalar chiqarishni ta'minlash;

- geografiya o'qituvchisining o'qitish va o'quvchilarning o'quv faoliyatini ta'minlash;
- amaliy geografiya ta'liming xilma-xil vositalarini ularning didaktik



10-rasm. Geografiya o'qituvchisining amaliy geografiya jarayonini tashkil etish va o'tkazishga tayyorgartlik tizimining moxiyatı

funksiyalari va umumlashgan o'quv vaziyatlarini hisobga olgan holda qo'llash;

-amaliy geografiya ta'limi jarayonining ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlash;

-iqtisodiy omil, xavfsizlik qoidalari hamda sanitariya, gigiena va ekologik talablarni hisobga olish.

shunday qilib, amaliy geografiya ta'limining majmuaviy metodik ta'minoti tizimining mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi (11-rasmga qarang):

-o'quv-metodik hujjatlar;


-o'quvchilar uchun ta'lim vositalari;

-mashg'ulotlarning didaktik vositalari;

-geografiya o'qituvchilari uchun didaktik vositalar.

yuqorida ta'kidlangan geografiya ta'limi vositalarining didaktik funksiyalari nihoyatda keng va turli-tuman bo'lib, ulardan tajriba-sinov sharoitida vujudga kelishi mumkin bo'lgan yangi va notanish o'quv vaziyatlariga muvofiq foydalanish ko'zda tutildi. Jumladan: amaliy geografiya darsligi (elektron varianti), geografik o'yinlar to'plami, geografik ma'lumotnomalar, geografik ko'rsatmali qo'llanmalar (plakatlar, jadvallar, chizmalar, fotosuratlar), geografik kartalar, mashg'ulotlarning texnologik xaritalari, modellar, maketlar, kodoskop va boshqa o'quv-texnika vositalaridan geografik muhit, tabiat komplekslari va uning o'zgarishi haqidagi zaruriy ma'lumotlarni olishda; geografik baholash va bashorat qilishni loyihalash va tashkillashtirishda; atrof- muhit monitoringi, geografik-ekologik ekspertiza larga qo'yilgan talablarni aniqlashda; ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslari bo'yicha ishlarni bajarishning texnologik jarayonlarini mustaqil ishlab chiqishda; geografik hodisalar, jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri vaziyatlarini tahlil etish va turli xil sharoitlarda qaror qabul qilish malakasini shakllantirish da; ekologik muammolar va ularning echimini tashxis qilish hamda tabiiy-inson resurslari, ularni iqtisodiy-geografik baholashda; geografik ob'ektlar va hodisalarining tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi, faoliyat ko'rsatish prinsiplarini ko'rsatishda; geosiyosat asoslari va dunyoning geografik manzarasi yaratishda;

o'quv-ijodiy ishlarni bajarish va rejalashtirish uchun zarur bo'lgan axborotlarni olishda; navbatdagi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda; miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yoritishda; o'quv-ijodiy ishlarni bajarish usullarini namoyish etishda hamda geografik ob'ektlar, hodisalarни tezlashtirib yoki sekinlashtirib ko'rsatish va tushu ntirish kabi ishlarda muhim didaktik omillar sanaladi.



3. Amaliy geografiya ta'limini jarayonini amalga oshirish.

Ta'lismuassasalarida amaliy geografiya ta'limi jarayonini geografiya o'qituvchilari tomonidan tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshiriladi.

Tajriba-sinov ishlari sharoitida yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda **geografiya ta'limi metodlaridan** samarali foydalaniлади.

Geografiya ta'limi metodlari – o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyat usullari bo'lib, ular yordamida o'quvchilarning geografik bilim va ko'nigmalar majmuini, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasini o'zlashtirishi, geografik madaniyatning egallashi, shuningdek, atrofdagi geografik muhitga mas'uliyatli munosabati, qarashlari va e'tiqodini tarbiyalash hamda o'quv-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Tadqiqot jarayonida tajribaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishda qo'llanilgan geografiya ta'limi metodlari yaxlit tizimga solinib, ularning uchta guruhi ajratib ko'rsatiladi (12-rasmga qarang):

- og'zaki metodlar guruhi;
- ko'rsatmali metodlar guruhi;
- amaliy metodlar guruhi.

Mashg'ulotlarda suhbat, tushu ntirish, yo'riqli geografik yozma tavsiyalar bilan ishlash kabi og'zaki metodlardan; geografik ob'ektlar va hodisalarni hamda ko'rsatmali qurollarni namoyish etish kabi ko'rsatmali metodlardan; mashqlar, amaliy ishlar, geografik topshiriqlarni echish kabi amaliy metodlardan keng foydalaniлади. Jumladan, suhbat – geografiya o'qituvchilari bilan o'quvchilar muloqotining savol-javob metodi bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar mashg'ulotning barcha bosqichlarida o'r ganilgan o'quv-ijodiy ishlar muhokamasiga faol jalg tiladilar.

Tajribaviy maktablar sharoitida o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar jarayonida quyidagi savol turlari va namunalaridan keng foydalaniлган [103,104]:

–taqqoslash ga yo'naltirilgan (... o'xshashligi va farqi nimada?", " ... ular o'rta sidagi umumiyligimiz nimada?", « ... taqqoslang va xulosa chiqaring?);

-sabab-oqibat bog'lanishini o'matishga yo'naltirilgan (... nima sabab bo'ldi?", "nima sodir bo'ladi, agar?" " ... qanday aloqasi bor?);

-harakatlar, hodisalar va jarayonlar maqsadini aniqlashga yo'naltirilgan (... qanday maqsadga ega ...?", "... vazifasi nima?", "... nima uchun bajariladi?", "... ahamiyatini tushuntirib bering?);

-asosiy belgilar, sifatlar va shart-sharoitlarni izohlashga yo'naltirilgan (... xaraktYerli belgilarini ko'rsating?", "...qanday sharoitlar zarur?". "... qanday hollarda?", "... nima ta'minlaydi?);

-u yoki bu jarayonlarning ahamiyatini aniqlashga yo'naltirilgan (... qanday ahamiyatga ega?", "...qanday ta'sir ko'rsatadi?" "... vazifasi va harakat prinsipini asoslang.?);

-tushu ntirish, asoslash va isbotlash ga yo'naltirilgan (... nima bilan tushuntiriladi?", "... qanday isbotlanadi?", "... qanday asoslanadi?);

-xulosalar chiqarish va umumlashtirishga yo'naltirilgan (... qanday xulosa chiqarish mumkin?", "... mohiyati nima?).


Ayni paytda, suhbat jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilindi:

-savol, qoidaga binoan, butun guruhg'a berildi, so'ngra, bir oz vaqt dan keyin javob berish uchun ma'lum bir o'quvchilar chaqirildi;


-bir paytning o'zida bir necha savol berilishi ga yo'l qo'yilmadi - bu o'quvchilar fikrini tarqoq qiladi;

-o'quvchilarning bir-biriga va ishlab chiqarish ta'limi ustasiga bergan savollari rag'batlantirilib borildi;

-savollarga xohishga binoan javob berish taklif etildi; o'quvchilarga tez-tez o'ylab ko'rish, o'rtog'ining javobini baholash. javoblardagi xatolarni tuzatish, o'z fikrini Yerkin aytish tikoniylari yaratildi;



Geografiya ta'limi metodlari



12-rasm. Geografiya ta'limi metodlari tizimi

-suhbat ta'limning boshqa metodlari - tushu ntirish, usullarni ko'rsatish va ko'rsatmali qurollarni namoyish etish bilan qo'shib olib borildi;

-faqt faol o'quvchilarni tinglash bilan chegaralanib qolinmadni, suhbatga faolligi past o'quvchilar ham jalb etildi;

-ishlarning eng maqbul tartiblari, ish qurollari, moslamalari hamda texnologiyalarning eng yaxshi variantlari tanlandi;

-suhbat chog'ida o'quvchilar diqqati muhokama etilayotgan material mohiyatini tashkil etuvchi asosiy bog'lovchi dalillar, holatlar va xulosalarga qaratildi;

-umumi tarzdagi tushu ntirish va javoblardan qanoat hosil qilinmadni; qo'shimcha savollar berish bilan o'quvchilardan aniq javoblar olishga harakat qilindi;

-o'quvchi javob berishda qiynalayotgan bo'lsa, unga tushu narli bo'lgan yo'naltiruvchi savollar berildi, to'g'ri javobga yaqin ma'lum dalillar eslatildi.

Tushu ntirish metodidan foydalanilganda uning mazmuni va metodikasining quyidagi xususiyatlariga asosiy e'tibor qaratildi:

-boshqa metod va metodik usullar bilan uyg'unligi;

-sabab-oqibat bog'lanishlarini ochib berishi va isbotlashi;

-mavzuning bayoni jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishi;

-mazmunning tadbiqiy, amaliy xususiyati;

-mazmunni ifoda etishning mantiqan to'g'riliği;

-jumlalarning qisqa va aniqligi.

shuningdek, yo'riqli yozma geografik tavsiflar va tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliy faoliyatga joriy etish masalasiga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Xususan, yo'riqli yozma geografik tavsiflar va tavsiyalar quyidagi talablar asosida ishlab chiqiladi:

-o'quv dasturiga mos kelishi;

- geografik muhitdagi ob'ektlar va hodisalarining muayyan qismlarini aks ettirishi;

-shakli va tuzilishining maqbulligi, foydalanishda qulayligi;

-mazmunidagi namunaviy tavsiiflar va tavsiyalarni amalda qo'llash imkoniyatlariga mosligi;

-ko'rsatmalarning aniq, tushu narli va savodli bo'lishi;

-ko'rsatnalarining kartalar, chizmalar, rasmlar va jadvallar bilan ifodalanishi;

-ish usullarini to'g'ri bajarish va ularning sifati mezonlarining aks ettirilishi;

-o'z-o'zini nazorat usullarining yoritilishi .

Yo'riqli yozma geografik tavsiiflar mazmunan quyidagilardan iborat bo'ldi:

- geografiya ta'limi texnologiyalari yoki o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini o'rganishda qo'llaniladi;

- geografiya ta'limi texnologiyalari yoki o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati usullarini bajarish ketma-ketligi, qoidasi, vositalari hamda nazorat va o'z-o'zini nazorat usullarini yoritadi.

-geografik muhitdag'i majmuaviy xususiyatga ega bo'lgan ishlarni bajarishda qo'llaniladi;

- geografiya ta'limi texnologiyalari yoki o'quvchilarning o'quv-ijodiy ishlarni bajarishda texnologik ketma-ketlik, izchillik, qo'yilgan talablar, maqbul usullari va vositalarni aks ettiradi.

Yo'riqli yozma geografik tavsiyalar mazmunan quyidagilardan iborat bo'ldi:

-o'quvchilarni nisbatan murakkab bo'lgan geografik baholash va bashorat, atrof-muhit monitoringi va geografik-ekologik ekspertiza si ishlarini bajarishga o'rgatishda qo'llaniladi;

-turli vaziyatlarda ishni bajarishning aniq qoidasi va izchilligini ko'rsatadi.

-o'quvchilarga murakkab ishlab chiqarish va tabiiy sharoitlarda ta'lif berishda qo'llaniladi;

-murakkab geografik ob'ektlar va hodisalarining funksiyasi va tuzilishini o'rganish, ularga maqbul ta'sir ko'rsatish yoki jarayonlarni to'g'rakashga oid topshiriqlarni, shuningdek to'plangan tajribalarni umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Geografiya ta'limalda yo'riqli yozma geografik tavsiflar va tavsiyalarni qo'llash jarayonida quyidagi shart-sharoitlar yaratiladi:

-har bir o'quvchi o'zlarining o'quv-ijodiy ishlarini bajarishda tavsiflar va tavsiyalar bilan to'liq ta'minlash;

-yo'riqli yozma geografik tavsiflar va tavsiyalardan o'quvchilarga o'quv-ijodiy ishlarni bajarish usullarini ko'rsatish hamda tushu ntirish jarayonida foydalanish;

-o'quvchilar har bir o'quv-ijodiy ish boshlanishidan oldin yo'riqli yozma geografik tavsiflar va tavsiyalarni mustaqil o'rghanishga jalg qilish;

-o'quvchilar o'quv-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida yo'riqli yozma geografik tavsiflar va tavsiyalardan mustaqil foydalanishga o'rgatish.

Geografiya o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga geografik bilish usullarini ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi shart-sharoitlar yaratish:

-o'quvchilarga ko'rsatilayotgan usulni sifatli o'zlashtirishi uchun qulay vaziyat yaratish;

-ko'rsatilayotgan usullarning yaxshi ko'rinishi ta'minlash (o'rinni tanlash, yoritilanlik, o'quvchilarning joylashuvi);

-usullarni ko'rsatish ularni tushu ntirish bilan birga qo'shib olib borish;

-usullarni ko'rsatishda ko'rsatmali qurollardan foydalanish;

-yo'riqli yozma geografik tavsiflar va tavsiyalardan to'g'ri foydalanish;

-qiyin o'zlashtiriladigan usullar qayta ko'rsatish;

-o'quvchilarning ko'rsatilayotgan usullarni qay darajada o'zlashtirishi yo'l-yo'lakay nazorat qilib borish.

Tajriba-sinov sharoitida **ko'rsatmali qo'llanmalarni** namoyish etish usuli keng qo'llanilib, ular quyidagi uchta guruhga ajratiladi [18]:

-tabiiy ko'rsatmali qo'llanmalar;

-tasviriy ko'rsatmali qo'llanmalar;

-aralash ko'rsatmali qo'llanmalar.

O'z navbatida yuqorida ta'kidlangan har bir guruh tarkibida bir qancha turlar farqlandi (13-rasmga qarang).

Amaliy geografiya ta'limi jarayonida ko'rsatmali qo'llanmalar majmuidan foydalanish orqali quyidagilar ta'minlanadi:

- ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etishda faoliyat usullarini ko'rsatish, tahlil qilish va ishlarni bajarish texnologiyasi bir-biriga tabiiy mos bo'ladi;

- ko'rsatmali qo'llanmalar o'r ganilayotgan material mazmuniga aloqador bo'lganda namoyish etiladi;

- namoyish etish so'zlash bilan muvofiqlashtiriladi;

- barcha namunalar mavzuiy lavhalarda mujassamlashtirildi, bu taqqoslash va umumlashtirishga imkon beradi;

- geografik muhitdagi o'zgarishlar tushu ntirilganda tabiiy va texnologik o'tish ketma-ketligida ishlangan namunalar qo'llaniladi.

Ma'lumki, geografik mashqlar - atrof-muhitdagi axloqiy hatti-harakatlarni, geografik tafsakkurni ongli ravishda takomillashtirish uchun ularni ko'p martalab takrorlash tufayli amalga oshiriladi. Geografik mashqlardan unumli foydalanish natijasida o'quvchilarda geografik madaniyat fazilatining barcha tarkibiy qismlari majmuaviy shakllantiriladi. Geografik mashqlarning mazmuni didaktik maqsadlar, o'quv jarayoni talablari va o'quvchilarning mustaqillik darajasiga muvofiq holda asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Tajriba-sinov ishlari sharoitida amalga oshirilgan ta'lif texnologiyalarida amaliy geografiya ta'limining **tashkiliy shakllari** tizimidan ham keng foydalanilgan. Ta'lif muassasalari amaliyotida o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi-ommaviy, jamoaviy-guruqli va yakka tartibdagi shakllaridan keng foydalaniladi.

YAlpi-ommaviy shakldagi ta'lif texnologiyalaridan birmuncha keng foydalaniladi. Ta'lifning mazkur shaklida o'qituvchi turli xil metodik usullarini (hikoya, tushu ntirish, suhbat va h.k.) qo'llab, butun sinf bilan ish olib bordi, o'quvchilar esa hamma uchun bir xil bo'lgan topshiriqlarni bajaradilar. Natijada

o'quvchilarning shaxsiy sifatlari, kuchsiz o'quvchilar bilan ishlash kabi holatlar jiddiy e'tiborga olinmadi. Biroq, ta'limning mazkur shaklida mavzuni muammoli bayon qilish amalga oshirilib, sinf o'quvchilarining faolligi va qiziqishi ta'minlab boriladi.

Darslarda yakka tartibdagi ish shakllaridan ham foydalaniadi, biroq bu ish o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Jumladan, o'quvchilar darslik matnlari bilan ishlaydilar, yozuvsiz kartalarni to'ldiradilar, turli mazmundagi jadvallar va grafiklarni to'ldirdilar. Darslarda yakka tartibdagi ish shakllari ommaviy ish shakllari bilan birgalikda qo'llanialiadi. Jumladan, mustaqil ishlar bajarilganidan keyin ommaviy muhokamalar o'tkaziladi.


Tajriba-sinov ishlari sharoitida geografiya darslarida jamoaviy-guruhli ish shakllarini qo'llashga asosiy e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, juftlik va kichik guruhlarga bo'lingan holda topshiriqlarni mustaqil bajarish, olingen natijalarни guruhda muhokama qilish va xisobot tayyorlash, har bir guruhning mustaqil ishini sinfda muhokama etish, shuningdek, mashg'ulot yakunida o'qituvchi tomonidan guruhlarning ish natijalarini umumlashtirish va baholash texnologiyasi katta samara beradi. Zero, geografiya ta'limidagi eng keng tarqalgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining asosini ham aynan guruhli ish shakllari tashkil etadi [20].

Amaliy geografiya ta'limida shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va modulli ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalaniadi, bu esa o'quvchilarda geografik madaniyat fazilatini samarali tarkib toptirish imkoniyatini yaratadi.

4. Amaliy kasbiy ta'lim jarayonini nazorat qilish. "Nazorat" tushunchasi biror ish yoki narsaning holati, borishi, kishining yurish-turishi va shu kabilar ustidan doimo kuzatishni, tekshirishni anglatadi.

Amaliy geografiya ta'limi jarayonini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun uni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini nazorat qilish amaliy geografiya ta'limi jarayonining barcha bosqichlarida uzlusiz ravishda amalga oshiriladi. Zero, o'quvchilarning o'quv-

ijodiy faoliyatini nazorat qilish va tekshirib borish geografiya o'qituvchilari bilan o'quvchilar o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minladi hamda shu orqali o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirishga imkon yaratiladi.



Ainaliy geografiya ta'limi jarayonini nazorat qilish aslida o'quvchilar ko'nikmalari, malakalari hamda o'quv-ijodiy faoliyati natijalarining o'matilgan talablar, qoidalar, me'yoriy hujjatlar va shu kabilarga mos kelishini aniqlashdan iboratdir. Demak, nazorat qilish boshqariladigan tizimning ma'lum maqsadga Erishishga qaratilgan faoliyati sabablari va mexanizmini o'rganishdan iborat bo'lib, u hisobga olish va baholashni o'z ichiga oladi.


Amaliy geografiya ta'limi va o'quvchilarda geografik madaniyatning rivojlanish jarayonlarining borishi va natijalarini qayd qilish va tahlil etish; ularni me'yoriy va dastlabki ma'lumotlar bilan qiyoslash; haqiqiy holatning dastlabki ma'lumotlarga muvofigligi haqida xulosalar chiqarish; jarayonlarning borishi va natijalarini tavsiylovchi miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlash **hisobga olish** orqali amalga oshiriladi. **Baholash** orqali esa o'quvchilarda shakllangan geografik madaniyat darajasi va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati natijalari haqida xulosalar chiqariladi.

Amaliy geografiya ta'limi jarayonining borishi va natijalarining to'g'ri nazorat qilinishi nafaqat o'quvchilar amaliy faoliyatini baholash va tekshirish vositasi, balki geografiya o'qituvchilari kasbiy faoliyatining ko'rsatkichi ham hisoblanadi. Ayni paytda, geografik bilim va ko'nikmaning, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasining o'zlashtirilishini nazorat qilish o'quvchilarni amaliy geografik o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning eng muhim omili sanaladi (14-rasmga qarang).

Tajriba-sinov sharoitida amaliy geografiya ta'limida o'quvchilar geografik madaniyatining rivojlanish jarayonini nazorat qilish asosiy mezon sifatida tanlanadi. Shundan kelib chiqilgan holda geografik ko'nikmalar hamda ular bilan bog'langan ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasining o'zlashtirilishni hisobga olish orqali bir qancha vazifalar hal qilinadi:

-o'quvchilarning yangi geografik ko'nikmalar, ijodiy faoliyat va hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasini o'zlashtirishga qay darajada tayyorligi aniqlanadi;

- o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklar, paydo bo'lgan qiyinchiliklar va ularning sabablari tahlil etiladi;
- o'quvchilarning geografik bilish va o'quv-ijodiy faoliyat haqida tezkor axborotlar olinib, qaytar aloqalar yo'lga qo'yiladi;
- amaliy geografiya ta'limining tashkiliy shakllari, metodlari va vositalari samaradorligi aniqlanadi;
- o'quvchilar o'zlashtirishini xolis baholash uchun ma'lumotlar to'planadi;



14-rasm. Amaliy geografiya ta'limida o'quvchilarai o'zlashtirishi hisobga olish metodlari

-amaliy geografiya ta'limi jarayonini to'g'ri rejalashtirish uchun ma'lumotlar yig'iladi.

O'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olish quyidagi metodlardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

-o'quvchilarni joriy kuzatiladi;

-o'quvchilarning o'quv-ijodiy ishlarini tekshirish;

-og'zaki so'rash, suhbat.

SHakllantiruvchi tajriba-sinov jarayonida nazorat qilishning og'zaki so'rash, suhbat kabi metodlari keng qo'llanildi. Jumladan, o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlarda quyidagi savol turlaridan foydalaniлади:

1.Taqqoslashga yo'naltirilgan savollar:

a) geografik hodisa bilan geografik jarayon o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar nimalardan iborat?

b) geografik ob'ekt bilan geografik hodisa o'rtasidagi umumiyligimizda?

v) jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirini istalgan hudud bo'yicha o'zaro taqqoslang va xulosalar chiqaring.

g) istalgan hudud bo'yicha jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirini taqqoslab, eng maqbul variantni tanlang va asoslang.

2.Sabab-oqibat bog'lanishini o'rnatishga yo'naltirilgan savollar:

a) tabiat komplekslarining o'zgarishiga nima sabab bo'ladi?

b) tabiat komplekslariga inson xo'jalik faoliyati ta'sirida nima sodir bo'ladi?

v) agar jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirida muvozanat ta'minlanmasa, nima sodir bo'ladi?

g) ekologik muammolar bilan iqtisodiy muammolar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

3.Harakatlar, xodisalar va jarayonlar maqsadini aniqlashga yo'naltirilgan savollar:

a) tabiatni muhofaza qilishdan qanday maqsad ko'zda tutilgan?

b) geografik baholashning vazifasi nima?

v) geografik bashoratlash nima uchun bajariladi?

g) geografik baholash va bashorat sifati nimalarga bog'liq?

4.Asosiy belgilar, sifatlar va shart-sharoitlarni izohlashga yo'naltirilgan savollar:

a) geografik-ekologik ekspertiza ning xarakterli belgilarini ko'rsating?

- b) Orolbo'yi ijtimoiy-ekologik muammolari echimi uchun qanday sharoitlar zarur?
- v) Quyi Amudaryo hududida Yer osti suvlarini qochirish qanday hollarda ko'p qo'llaniladi?
- g) ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslari nimalarga bog'liq?

5.Tushu ntirish, asoslash va isbotlash ga yo'naltirilgan savollar:

- a) O'zbekiston geosiyosati asoslarini nima bilan tushu ntirasiz?
- b) tabiiy resurslarni iqtisodiy-geografik baholash zarurligi nima bilan isbotlanadi?
- v) atrof-muhit monitoringi qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi?
- g) aholini iqtisodiy-geografik baholash zarurligi nimalar bilan isbotlanadi? va h.k.

Amaliy geografiya ta'limi jarayonida yuqorida ta'kidlangan metodlar yordamida o'quvchilarning geografik madaniyatni qay darajada o'zlashtirganligi haqida xolis ma'lumotlar olish maqsadida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar amalga oshirildi. Mazkur nazorat turlari barchaga yaxshi ma'lum bo'lganligi uchun ishimizda ularning mazmun-mohiyatiga alohida to'xtalganimiz yo'q.

Tajriba sharoitida geografiya o'qituvchilariga o'quvchilar faoliyatini doimiy nazorat qilish va baholash bo'yicha quyidagi metodik tavsiyalar muntazam ravishda b'yerib boriladi:

-nazorat qilish va baholash paytida doimo ishonch, yaxshi niyat va adolat muhitini yaratish lozim; o'quvchilar o'qituvchining xolisligi va adolatlilikiga ishonishi kerak;

-har bir o'quvchiga hamda guruh faoliyatiga qo'yiladigan baholar doimo izohlanib, tushu ntirilib borilishi zarur;

-o'quvchi qanchalik "kuchsiz" bo'lmasin, nazorat qilish va baholashda ularning noto'g'ri javoblari va harakatlariga keskin qarshi fikr bildirish yaramaydi, balki ularning xato va kamchiliklarini imkon qadar shaxsiyatiga tegmasdan, ko'p

urg'u b'Yermasdan va ko'pchilik oldida o'sal qilmasdan tushu ntirish zarur; bu o'quvchiga keyinchalik uddalashi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni yaratadi;

-o'quvchiga qoniqsiz baho qo'yilganda, uning kelgusida muvaffaqiyatga Erishishi va o'z kuchiga ishonch ruhini saqlab qolish zarur;

-o'quvchilarning yaxshi ishlarini "baland ovoz" bilan e'lon qilish va baholash tavsiya etiladi; bunday rag'batlantirish bo'shashgan, o'rtamiyona o'quvchilarga turki bo'ladi;

-doimiy ravishda bir o'quvchini maqtash va rag'batlantirish yaramaydi, bu holat uni guruhga teskari qilib qo'yishi mumkin;

-muvaffaqiyatli o'quvchilarni nafaqat yaxshi o'qigani uchun, balki yaxshi o'rganishga harakat qilganligi, intilganligi uchun ham maqtash va rag'batlantirish zarur;

-o'quvchilarning o'quv-ijodiy ishlarni bajarishdagi muvaffaqiyatiga befarq bo'imaslik kerak, bu ularning g'ururini Yerga uradi. Aksincha, o'quvchilar muvaffaqiyatiga, ular tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarga birlgilikda shYerik bo'lism o'quvchilarni o'qituvchiga yaqinlashtirib, ularning faolligini oshiradi. shunday qilib, amaliy geografiya ta'limi jarayonini tizimli nazoratga olish o'quv jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaliy geografiya ta'limi jarayonini amalga oshiradigan asosiy shaxs - geografiya o'qituvchisi ziyoli va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi, pedagogika, psixologiya fanlari hamda geografiya o'qitish metodikasini puxta bilishi, shuningdek o'quvchi-yosh larga mehr-muhabbatli va pedagogik mahoratlri bo'lishi lozim.

Xususan, geografiya o'qituvchisining kasbiy-pedagogik mahorati quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi: zamonaviy geografiya ta'limi metodlari va vositalarini egallaganligi; pedagogik faoliyatda o'zining shaxsiy ish uslubiga ega bo'lishi; o'quvchilar bilan oqilona pedagogik muloqot o'mnata olishi va uni saqlab turishi; pedagogik texnikasining yuqori bo'lishi; talabchanligi va haqqoniyligi;

ishi va so'zi bilan ishontirishi; pedagogik muomalasi; yangilikka o'chligi; doimiy ijodiy faollikka egaligi.

shu boisdan geografiya o'qituvchisi davriy ravishda malakasini oshirishi, mustaqil holda o'z metodik bilimlarini oshirib borishi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi va ulardan foydalanishi, o'z shaxsiy pedagogik tajribasini tahlil etishi va umumlashtirishi, metodik kengash va birlashmalar ishlarida ishtirot etishi, ochiq darslarga kirishi va ulami tahlil etishi, o'zaro darslarga kirishi, pedagogik o'qishlar, konfYerensiyalar va seminarlar ishida ishtirot etishi va murabbiylik ishlari orqali o'zining pedagogik mahoratini doimo oshirib borishi lozim.

shu maqsadda ta'lif muassasasida «Amaliy geografiya ta'lifi» o'quv-metodika majmuasi ishlab chiqilib, metodik ishlari ilmiylik, maqsadga muvofiqlik va muntazamlik, ijodiy yo'nalganlik talablari bo'yicha o'ziga xos tizim sifatida shakllantiriladi (15-rasmga qarang).

Mazkur o'quv-metodika majmuiga muvofiq geografiya o'qituvchilarining o'zaro hamkorlikdagi ommaviy va shaxsiy metodik ishlari rejalashtiriladi va tashkil etiladi.

Ommaviy ishlar metodik kengash orqali muvofiqlashtirilib, amaliy geografiya ta'lifi mazmuni, jarayoni va ularga oid tashkiliy-metodik masalalar metodik komissiya tomonidan tartibga solib boriladi.

Xususan, metodik kengash faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tashkil etiladi:


- amaliy geografiya ta'limining joriy va istiqbolli ish rejalarini muhokama qilish;

- o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati natijalarini tahlil qilish;

- turli o'quv-metodik tadbirlar, ularning bajarilish holati va samaradorligini muhokama etish;

- amaliy geografiya bo'yicha darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasini ishlab chiqish;

- amaliy geografiya ta'limining boshqa fanlar bilan aloqadorligi tahlili;



15-rasm. Geografiya o‘qituvchisining metodik ishlar tizimi

- amaliy geografiya ta’limida o‘quvchilar geografik madaniyatini shakllantirish ning metodik shart-sharoitlari va h.k.

Metodik kengash yig‘ilishlari rejaga muvofiq o‘tkazilib, uning faoliyatida quyidagilarga asosiy e’tibor qaratiladi:

1. Kengashga tayyorgarlik ko‘rish(muhokama etiladigan masalalar bo‘yicha 1-1,5 oy oldin tayyorgarlik ko‘rish; oldin o‘tkazilgan metodik kengash qarorlarini amaliyotga joriy qilish holatini tahlil etish; muhokama etiladigan masalalar bo‘yicha mas‘ul shaxslarni aniq belgilash va ularga ilmiy-metodik yordam ko‘rsatish; kengash majlisiga tayyorgarlik jarayoniga barcha mas‘ul xodimlarni imkon qadar keng jalb etish; oldindan qaror loyihalarini tayyorlab qo‘yish va h.k.).

2. Kengashni o‘tkazish (masalalarni maqsadga muvofiq muhokama etish; aniq va qisqa gapirish, vaqt reglamentiga amal qilish; muhokama etilayotgan masalalar bo‘yicha kengash a’zolarining faol ishtirokini ta’minalash; kengashni avtoritar yo‘riq-ko‘rsatmalar beriladigan tadbirga aylantirmaslik va uning maslahatlashu v mohiyatini, demokratik asoslarini va ish uslubini ta’minalash; so‘zga chiquvchilarning fikr-mulohazalariga diqqat-e’tiborli va hurmatli bo‘lish; kun tartibiga va mavzu yo‘nalishiga qat’iy amal qilish; masalalar bo‘yicha joriy va yakuniy xulosalar chiqarish va h.k.).

3.Kengash qarorlarini amaliyotga joriy etish (kengash qarorlarini kengash a’zolariga, birinchi navbatda, mas‘ul ijrochi shaxslarga etkazish; qarorlarni kasb-hunar kollejining joriy va istiqbol ish rejalariga kiritish, ularning bajarilishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish; qarolarning bajarilish nazoratini tashkil etish; kengash a’zolarini qabul qilingan qarorlar bo‘yicha bajarilgan ishlarni bilan muntazam tanishdirib borish; davriy ravishda qabul qilingan qarolarning amaliyotga joriy etilishi haqidagi hisobotlarni muhokama etib borish va h.k.).

Metodik ishlarning ommaviy shakllaridan, xususan, pedagogik o‘qishlar, ilmiy-amaliy konfYerensiyalar, yo‘riqli-metodik yig‘inlar va ilg‘or tajriba maktabi imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

Pedagogik o‘qishlar – geografiya o‘qituvchilarining metodik mahoratini takomillashtirish, ijodiy tashabbuslarini rivojlantirish va amaliy geografiya ta’limi

sohasidagi ilg'or tajribalarni aniqlash, umumlashtirish va amaliyotga joriy etish maqsadlarini ko'zlab o'tkaziladi.

Pedagogik o'qishlarda quyidagi mavzular bo'yicha ma'ruzalar tinglanadi:

- darslarda mustaqil ishlarni tashkil etish, ularga rahbarlik qilish metodlari;

- amaliy geografiyaning umumkasbiy va maxsus fanlar bilan aloqadorligini o'matish;

- darslarda o'quvchilar faolligini oshirish metodlari;

- darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini tashkil qilish texnologiyalari;

- amaliy geografiya ta'limi texnologiyalari bo'yicha metodik ishlarni tashkil etish va h.k.

Ilmiy-amaliy konfYerensiyalar – ta'lim muassasalarining geografiya o'qituvchilari tomonidan amaliy geografiya ta'limi masalalari va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlarni muhokama etish maqsadida tashkil etiladi.

O'tkazilgan ilmiy-amaliy konfYerensiyalarda quyidagi mavzular davriy ravishda muhokama etib boriladi:

- tajriba-sinov mashg'ulotlarida samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;

- o'quvchilarning kichik guruhlar shaklidagi ta'limini tashkil etish metodikasi;

- o'quvchilarda geografik madaniyatning shakllanish jarayoni va darajasini aniqlash hamda nazorat qilish metodikasi;

- darslarda rolli geografik o'yinlardan foydalanish texnologiyalari;

- darslarda ishga aloqador geografik o'yinlardan foydalanish texnologiyalari;

- darslarda o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash texnologiyalari va h.k.

3. Yo'riqli-metodik yig'inlar ta'lim muassasalarida direktor, direktor o'rinnbosarlari, yo'riqchi va geografiya o'qituvchilari tomonidan amaliy geografiya ta'limi bo'yicha o'z echimini kutayotgan ayrim metodik masalalarini tezkor

muhokama etish, joriy vazifalarni belgilash, geografiya o'qituvchilariga joriy yo'riqlar berish maqsadida o'tkazilib boriladi.

Yo'riqli-metodik yig'inlarda quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

- geografiya o'qituvchilari faoliyatini rejalashtirish;

- hisobga olish va hisobot hujjatlarini yuritish;

- amaliy geografiya ta'limentarying majmuaviy-metodik ta'minoti bo'yicha ishlarni tashkil etish;

- nazorat ishlarga tayyorgarlik ko'rish;

- o'quvchilar ijodkorligi va geografik madaniyat tanlovlарини tashkil etish va h.k.

4. Ilg'or tajriba maktabi - ta'lim muassasalarida amaliy geografiya ta'limi ishlarini samarali tashkil etayotgan malakali geografiya o'qituvchilari atrofida birlashgan ilmiy-ijodiy guruh bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish bo'yicha geografiya o'qituvchilarining o'zaro pedagogik tajriba almashishini yo'lga qo'yishdan iborat.

Ilg'or tajriba maktabida amaliy geografiya ta'limi bo'yicha tashkil etilgan ilmiy-ijodiy guruh a'zolarining mashg'ulotlarni rejalashtirishi, ularga tayyorgarlik ko'rishi va ayrim mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari kuzatilib borildi va ilmiy-metodik tahlil etildi, ayniqsa, tajriba-sinov ishlari, mustaqil ishlar hamda majmuaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi kabi birmuncha murakkab masalalarning yosh mutaxassislar tomonidan o'rganilishi yo'lga qo'yiladi.

shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida ilmiy-ijodiy guruhlar tomonidan geografiya o'qituvchilariga geografiya o'quv xonalari va atrof-muhit sharoitida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha metodik ishlanmalarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar b'yerib boriladi.

Ta'lim muassasalarida har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan metodik komissiyalar va ilmiy-ijodiy guruhlar faoliyatida o'zaro mashg'ulotlarga kirish, geografiya o'qituvchilari faoliyatini kuzatish va tahlil qilish asosida ularga doimiy metodik yordam ko'rsatib borish alohida muhim o'rinni tutadi. Bunda

geografiya o'qituvchilari faoliyatiga majmuaviy yondashuv asosida metodik yordamlar berildi.

Ta'lismuassasalarining geografiya o'qituvchilari faoliyatida ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, ulardan foydalanish va o'z bilimlarini mustaqil oshirish ham muhim o'rinni tutdi. Bu borada pedagogik murabbiylilik ishlari orqali geografiya o'qituvchilariga tavsiyalar bYerib boriladi.

shuningdek, ta'lismuassasalari metodik xonasida «Geografiya ta'limi» metodik burchagi tashkil etilib, geografiya ta'limi mazmuni va jarayoniga oid o'quv-metodik hujjatlar majmui shakllantiriladi.

shunday qilib, geografiya ta'limi mazmuni va uning to'rtta tarkibiy qismiga mos ravishda o'quvchilarda geografik madaniyatning to'rtta tarkibiy qismi integrativ ravishda rivojlantirilib boriladi. Ayni paytda o'quvchilarda geografik madaniyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan amaliy geografiya ta'limi jarayonining tashkiliy-metodik shart-sharoitlari asosida aniqlangan quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilarining o'quv-ijodiy faoliyatini ta'minlash yo'llari:

-geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilarining o'quv-ijodiy ishlarini metodik (texnologik) asoslangan holda to'g'ri tanlash;

-amaliy geografiya ta'limining o'quv-moddiy jihozlanishini yuqori darajada ta'minlash;

-o'quvchilarining o'quv-ijodiy ishlarini to'g'ri tashkil etish va ularga o'rgatish metodikasini joriy etish;

-o'quvchilarga o'z-o'zini nazorat qilish usulida ta'lim berish, ularning geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quv-ijodiy ishlarida o'zaro sifat nazoratini yo'lga qo'yish;

-amaliy o'quv-ijodiy natijalarga Erishish tizimini joriy etish;

-geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilarining o'quv-ijodiy ishlari sifatini oshirishda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini qo'llash.

2. Geografiya ta'lifi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyati mahsulorligini ta'minlash yo'llari:

- geografiya ta'lifi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini pedagogik-fiziologik jihatdan to'g'ri me'yorlash;
- geografiya o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga vaqtidan oqilona foydalanishga oid yo'l-yo'riqlar berish;
- geografiya ta'lifi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini samaradorligini oshirish yo'llarini izlab topishga yo'naltirilgan maxsus topshiriqlarning bajarilishini ta'minlash;
- geografiya ta'lifi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini amalga oshirishda unumli va vaqt ni tejashta imkon beruvchi shakllardan foydalanish;
- amaliy geografiya ta'lifida guruhli tashkiliy shakllarni joriy etish.

3. Geografiya ta'lifi texnologiyalari va o'quvchilar o'quv-ijodiy faoliyatining ilg'or, samarali usullarini egallash yo'llari:

-amaliy geografiyaning ilmiy asoslarini va o'quvchilarda ijodiy faoliyat va atrofdagi muhitga hissiy-qadriyatli munosabat tajribasini o'zlashtirish bo'yicha o'quv ishlarining to'g'ri usullarini o'rganish yuzasidan maxsus mashqlar tashkil qilish;

-geografiya ta'lifi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy ishlarini ko'rsatmali varaqalarni qo'llash orqali o'rganish;

-geografiya o'qituvchilar tomonidan amaliy geografiya ta'lifida o'quvchilarning o'quv-ijodiy ishlari usullaridan to'g'ri foydalanishi yuzasidan doimiy talabchanlikni ta'minlash;

-geografiya ta'lifi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatida geografik kartalar va boshqa ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha samarali ish usullarini o'zlashtirish;

-o'quv-ijodiy ishlar usullarining to'g'ri bajarilishini geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv-ijodiy faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri sifatida belgilash.

4. Geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quv-ijodiy faoliyatni tashkil qilishda o'quvchilar mustaqilligini shakllantirish yo'llari:

-geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quv-ijodiy faoliyat jarayonida o'quvchilarni mustaqil qarorlar qabul qilish talab etadigan vaziyatlarga tushirish;

-turli xil geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quv-ijodiy vaziyatlarda o'quvchilarning mustaqil qarorlar qabul qilishlariga imkon beruvchi maxsus mashqlar bajarilishini tashkil etish;

-o'quvchilar bilan geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quv-ijodiy faoliyatga oid ish o'yinlarini o'tkazish;

-o'quvchilar tomonidan darslarda va uy vazifalarini bajarishda tashxis qo'yish, baholash va bashorat qilish mazmunidagi topshiriqlarni echish;

-o'quvchilarni doimiy ravishda ishlarning borishi va natijalari bo'yicha o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish;

-o'quvchilarni joriy xatoliklar, murakkabliklar hamda ish natijalari tahliliga jalb qilib, hamkorlikda geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quv-ijodiy ishlar sifati va samaradorligini oshirish yo'llarini izlash.

5. Geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilarning o'quv faoliyatiga ijodiy yondashuvni shakllantirish yo'llari:

- o'quvchilarni geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quv ishlarida geografik bilim va ko'nikmalarini ijodiy qo'llash sharoitlariga tushirish;

-amaliy geografiya ta'limining samarali shakl va usullarini (suhbat, munozara, geografik topshiriqlarni echish, o'quvchilarning ijodiy takliflarini muhokama etish, o'quvchilar tomonidan atrofdagi geografik muhitda kechayotgan jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish va h.k.) joriy etish;

-o'quvchilarni ijodiy mazmundagi geografik topshiriqlarni bajarishga yo'llash (atrofdagi geografik muhit muammolarini aniqlash va yangi qarorlar qabul

qilish; atrof-muhitdag'i sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatish; geografik muhitning rivojlanish xususiyatlarini bashorat qilish, antropogen ta'sirlardan vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni tahlil qilish, tabiiy sharoit, resurslar va aholini xo'jalikda foydalanish uchun baholash va h.k);

-o'quvchilarining ijodiy yutuqlarini ovoza qilish; o'quvchilar ijodiy faoliyati bo'yicha tajriba almashinuvini tashkil etish.

6. Geografiya ta'limi texnologiyalari va o'quvchilar o'quv-ijodiy faoliyatining iqtisodiy-ekologik maqsadga muvofiqligini shakllantirish yo'llari:

-o'quvchilarda o'zları bajarayotgan o'quv-ijodiy faoliyatni iqtisodiy-ekologik tahlil etish qobiliyatlarini rivojlantirish;

-o'quvchilarining o'quv-ijodiy ishlarida iqtisodiy-ekologik jihatdan maqsadga muvofiq usullarini tanlashini rag'batlantirish;

-o'quvchilarni o'zları bajarilayotgan o'quv-ijodiy ishlarni iqtisodiy-ekologik asoslashga, imkonli boricha iqtisodiy-ekologik hisob-kitoblarni bajarishga, ishlarni bajarishda iqtisodiy-ekologik qulay va xavfsiz usullarni qo'llashga o'rgatish.

shunday qilib, ta'lim muassasalarida geografiya ta'limi jarayonida amalgan oshirilgan tashkiliy-metodik ishlar natijasida o'quvchilar geografik madaniyatida sifat o'zgarishlari yuz beradi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Amaliy geografiya ta'limi tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
2. Geografik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
3. Amaliy geografiya ta'limi jarayonining didaktik mohiyati nimada?
4. Geografiya ta'limi vositalari va ularning turlariga nimalar kiradi?
- 5..Amaliy geografiya ta'limi zamonaviy metodik ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
- 6.Amaliy geografiya ta'limida geografik madaniyat deganda nimani tushunasiz?

2-BO'LIM

GEOGRAFIK MATNLAR BILAN ISHLASH

5-§ Geografik bilish va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida tabiiy geografik til - matnlarning tutgan o'rni

Maktab geografiyasi – umumiy ta'lif maktablari o'quvchilariga insoniyat yashovchi Yer sayyorasi haqida to'liq ma'lumot beruvchi, ularda geoekologik madaniyatni rivojlantiruvchi yagona o'quv fani hisoblanadi. U o'quvchilarga Yer sayyorasida ro'y beradigan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarini umumbashariy, mintaqaviy va milliy (mahalliy) miqyoslarda o'rgatadi. shunga ko'ra geografiya fan va o'quv fani sifatida ikki katta tarmoqqa: tabiiy geografiya - maktab tabiiy geografiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya - maktab ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi fanlariga bo'lib o'rganiladi. Maktab geografiyasining bunday tuzilishi zamonaviy tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlari asoslarini ta'lif mazmunida birmuncha to'liq aks ettirishga imkon beradi [98].

Zamonaviy pedagogika fani yutuqlari hamda maktablar amaliyotidagi ilg'or geografiya ta'limi tajribalariga suyangan holda geoekologik madaniyatli o'quvchi shaxsini shakllantirish ga yo'naltirilgan **geografik ma'rifat** mazmuni va bu jarayonda tabiiy geografiya ta'limining tutgan o'rmini belgilovchi asosiy tushuncha-terminologiya tizimini, ularning ifodalanishini muayyan majmua sifatida nazariji jihatdan aniqlashga harakat qildik.

Geografik ma'rifatning asosiy jihatni jamiyatda to'plangan ijtimoiy geografik tajribaning o'quvchi shaxsiga o'tkazilish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon xususiy metodikada «geografik ta'lif» deb yuritiladi. Geografik ta'lif bir-biri bilan o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo qiluvchi ikki jihatni o'z ichiga oladi: o'quvchi faoliyati nuqtai nazaridan «geografik o'qish (o'rganish)» va o'qituvchi faoliyati

nuqtai nazaridan «geografik o'qitish (o'rgatish)». Oqibatda, geografik ta'lif natijasida «geografik ma'lumotli (o'qimishli) o'quvchi» shaxsi shakllanadi.

Geografiya ta'lifining asosiy jihat - o'quvchilar tomonidan geografik bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon «geografik bilish» deb ham yuritiladi. Geografik bilish ham bir-biri bilan o'zar bog'langan va bir-birini taqozo qiluvchi ikki jihatni o'z ichiga oladi: o'quvchi faoliyati nuqtai nazaridan «geografik uqish (o'zlashtirish)» va o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan «geografik o'qitish (o'rgatish)». Oqibatda, geografik bilish natijasida «geografik bilim va ko'nikmali (savodli) o'quvchi» shaxsi shakllanadi. Zero, o'zbek xalq pedagogikasida «o'qigan o'qigan emas, uqqan o'qigan» deb ta'kidlanishi bejiz emas [149].

Ma'lumki, respublikamizda umumi o'rta ta'lifning Davlat ta'lif standartlariga muvofiq matabda geografiya kurslarini o'rganish ketma-ketligi quyidagicha belgilangan:

-V sinfda - Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi;

-VI sinfda - Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi;

-VII sinfda - O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, O'zbekiston tabiiy geografiyasi.

-VIII sinfda - O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

-IX sinfda - Jahonning iqtisodiy- ijtimoiy geografiyasi

- X sinfda- Amaliy geografiya

Maktab tabiiy geografiya kurslari o'quvchilarni Yer sayyorasi, uning qobiqlari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar hamda har bir Materik va okeanning, O'rta Osiyo va O'zbekiston hududining tabiiy xususiyatlari haqidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantiradi, tabiiy geografiyaning nazariy asoslariiga oid o'ndan ortiq ta'lifotlar bilan tanishtiradi [113].

Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi o'quvchilarga Yer haqidagi yaxlit: geoqobiqlar (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera) va ularni tadqiq qilish

metodlari, tabiiy majmualarning asosiy tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi bilimlarni qulay holda beradi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini kursi Materiklarning tabiatini, ularning rang-barangligi, aholisi va siyosiy xaritasi haqidagi bilimlarni, shuningdek muayyan umumiy tabiiy geografik masalalar hajmini o'z ichiga oladi.

O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini kursi mazmunida o'lka tabiatining xususiyatlari: geologik tuzilishi, relesi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek aholisi, siyosiy xaritasini o'rganishga, ayni paytda o'quvchilarning geografik xaritalar, atlaslar va globus bilan ishlashiga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasini kursida respublikamiz tabiatining umumiy hamda alohida tabiiy geografik o'lkalari tavsifi keltiriladi, ularning rang-barangligi va taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beriladi. Mazkur kursda oldingi kurslarda olingan tabiiy geografik bilimlarga tayanish, shuningdek yangi geologik, geomorfologik, gidrologik va iqlimshu noslikka oid bilimlarning berilishi o'quvchilarning O'zbekiston tabiatini yuqori ilmiy darajada o'rganishlariga imkon beradi [10, 57, 63].

V-VII sinflarda tabiiy geografik bilimlarning izchil berilishi va davomli rivojlanishi ularni yagona tabiiy geografiya o'quv kursi sifatida qarab chiqishga imkon beradi. Bunday birlik, birinchidan, tabiatning ayrim tarkibiy qismlari haqidagi bilimlarning rivojlanishi bilan, ikkinchidan, tabiatning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hamda tabiiy-hududiy majmualar (THM) haqidagi bilimlarni izchil chuqurlahtirish bilan, uchinchidan, har bir kurs mazmuni bilan mustahkam o'zaro bog'langan yagona amaliy ishlar tizimi bilan ta'minlanadi [163,153].

Keyingi yillarda maktab tabiiy geografiya kurslarida sabab-oqibat bog'lanishlari orqali geoekologik hodisalar va jarayonlar mohiyatini o'rganishga e'tibor sezilarli kuchaydi. Bu tabiiy muhit va aholi salomatligi holatining umumiy degradatsiyasi, Landshaftlarning antropogen o'zgarishi, tuproq qatlamining degradatsiyasi, quruqlik va Dunyo okeani suvlarining ifloslanishi, atmosferaning ifloslanishi, inson va jamiyatning moddiy va ma'nnaviy madaniyati shakllanishida

atrof-muhitning tutgan o'rni, odamning atrofdagi tabiiy muhitga moslashishi, tabiiy xom-ashyolar milliy boylikning eng muhim qismi ekanligini o'rganishda, bilishda o'z aksini topadi [165]. Oqibatda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'ladijan fuqarolar shakllanadi [166; 85]


Xo'sh, o'quvchi o'zini o'rab olgan tabiatni, geografik qobiqni, tabiiy va antropogen Landshaftlarni qanday biladi? Biz quyida mazkur jarayonning falsafiy, umumiyligi psixologik va pedagogik jihatlariga to'xtalamiz.

Falsafiy-psixologik nazariyalarga ko'ra o'quvchi shaxsi o'zaro va bioijtimoiy munosabatlardan jarayonida tarkib topadi [140]. O'smirlilik davrida bu munosabatlarni keltirib chiqaradigan asosiy omil o'quvchining o'qish, o'yin va mehnat faoliyatidir. Demak, o'quvchi shaxsiga xos bo'lgan barcha psixologik ho'lat va jarayonlar ham ijtimoiy hayot, ham tabiiy muhit ta'sirida vujudga keladi. O'quvchi o'z amaliy faoliyati natijasida o'zini o'rab turgan tabiiy va antropogen ob'ektlar va hodisalar mohiyatini bilib oladi hamda o'quv faoliyati jarayonida egallagan tabiiy geografik bilimlarini boyitib, mukammallashirib boradi [89; 106].

O'quvchining tabiiy geografik bilish jarayoni, keng ma'noda, o'z mohiyati va xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiluvchi ikki bosqichdan iborat bo'ladi (16-rasm). Tabiiy geografik bilish jarayonining birinchi bosqichi «**hissiy tabiiy geografik bilish**» bo'lib, u «**tabiiy geografik sezish**», «**tabiiy geografik idrok**» va «**tabiiy geografik tasavvur**»dan iborat bo'ladi.

Hissiy tabiiy geografik bilish adabiyotlarda va amaliyotda «jonli geografik mushohada» deb ham yuritiladi. U geografik bilishning birinchi, Boshlang'ich bosqichini tashkil qiladi. Hissiy geografik bilish o'quvchining sezgilariga bevosita ta'sir etgan tashqi geografik muhit (tabiat) va uning alohida xossalalarining ko'rinishlar, qiyofalar, tasvirlar, manzaralar shaklida miyasida eks etishidir [71, 31, 37].

O'quvchi o'zini o'rabi turgan atrof-muhit, tabiatning muayyan xossalari: havoning issiq-sovuqligini kechishi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil ob'ektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'nii mazkur xossalalar bolaning besh turli sezgisiga



ta'sir etib, shu a'zolarda joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyaga borib etib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi [51, 17].

16-rasm.O'quvchining tabiiy geografik bilish jarayoni


Falsafiy-psixologik nuqtai nazardan o'quvchi bilimining manbai sezgidir. Chunki o'quvchi o'zining dastlabki va boshlang'ich tabiiy geografik bilimlarini o'z sezgilaridan oladi. O'quvchining boshqa barcha tabiiy geografik bilimlari mana shu dastlabki boshlang'ich bilimlari asosida vujudga keladi. Demak, o'quvchini tabiiy va antropogen muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l ham **tabiiy geografik sezishdir**.

Tabiiy geografik idrok tabiiy geografik sezishga nisbatan birmuncha murakkab jarayon bo'lib, u tabiiy geografik sezish asosida vujudga keladi. Tabiiy geografik idrokning tabiiy geografik sezishdan farqi shundaki, unda tabiiy ob'ektlar yoki hodisalarning ayrim xossalari emas, balki tabiiy ob'ektlar yoki hodisalar butun holicha aks etadi. Boshqacha ifodalarsak, tabiiy ob'ektlar yoki hodisalarning yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi [48; 158].

Hissiy tabiiy geografik bilishning yana bir shakli **tabiiy geografik tasavvurdir**. Tashqi muhit ta'siri natijasida bosh miya qobig'inining muayyan qismida paydo bo'lgan qo'zg'alish, ya'ni sezish va idrok ma'lum muddatgacha o'z izini qoldiradi. Demak, tabiiy geografik tasavvur muhiddagi ob'ektlar va hodisalarning xuddi shu onda idrok qilinmaydigan, biroq miyada qolgan, ko'z oldiga keltirilgan manzaraning tiklanishi yoki manzarali xotira, manzaralarda eslashdir [158; 71].

Tabiiy geografik tasavvur bilimlarni saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi, ayni paytda tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarning xususiyatlarini bilib olishda, ya'ni umumlashtirishda ham muhim o'rinn tutadi. Tabiiy geografik tasavvurdagi umumlashtirish xususiyati aqliy tabiiy geografik bilishning, tabiiy geografik tushunchalarning tashkil topishiga katta yordam beradi [51]

Maktab tabiiy geografiyası kurslarida o'quvchilar oladigan tasavvurlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin: a) tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalar to'g'risidagi umumiy tasavvurlar; b) xususiy tabiiy geografik tasavvurlar (17-rasm).




17-rasm. Tabiiy geografik tasavvurning turlari va o'zaro bog'liqligi

Umumiy tabiiy geografik tasavvurlar ko'p jihatdan umumlashgan bo'ladi, masalan, tepalik to'g'risidagi tasavvur. Tabiiy geografiya kursida o'quvchilarda tepalik haqida hosil qilingan tasavvur maktab yonidagi aniq tepaliklardan birining tasviri emas, balki umuman tepalik tasviridir.

Xususiy tabiiy geografik tasavvurlar aniq tabiiy geografik ob'ektlar va hududlarning tasviri, manzarasidir. Bu tasavvurlar aniq ob'ektlarni, masalan, aynan Amudaryoni, Sulton Uvays tog'ini, Bodayto'qay qo'riqxonasini, Urganch shahrini, Xiva shahrini aks ettiradi. Xususiy tabiiy geografik tasavvurlar ayni paytda birorta mamlakat, mintaqqa yoki alohida hududning tabiatini va Kishilar hayotini ham aks ettiradi. Natijada o'quvchilar ongida hududlarning hajmdor yoki hajmsiz, rangli yoki rangsiz, aniq yoki noaniq shakldagi manzarasi hosil bo'ladi.

Xususiy tabiiy geografik tasavvurlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z makoniga ega bo'ladi, ya'ni muayyan hududdagi tabiiy ob'ektlar va hodisalar bilan birga hududning shakli, kattaligi, boshqa hududlarga nisbatan tutgan o'mini xaritaga asosan joy nomlari bilan yaqqol, to'liq ko'rsatib beradi. Masalan, Amudaryoning tasavvur etilishi (18-rasm).



18-rasm. Amudaryoning tasavvur etilishi

O'quvchilar maktab tabiiy geografiyasida o'r ganiladigan ob'ektlar, xususan hududlar juda katta bo'lganligi sababli Materiklar, okeanlar, orollar, yarim orollar, dengizlar, tog'lar va tekisliklarning shakli, kattaligi va o'mini ularning xaritada tasvir etilishiga qarab tasavvur etish bilangina bilib oladilar. Shu bois o'r ganilayotgan katta tabiiy ob'ektlar yoki hududlar haqida o'quvchilar olgan tasavvurlar albatta xarita bilan bog'langan bo'ladi [61].

Masalan, o'quvchilar Xorazm viloyatini qanday tasavvur qilishi mumkin? Dastlab o'quvchilar ongida Xorazm viloyatining tabiatи va aholisi tur mush tarzining muayyan manzaralari hosil bo'ladi, keyin O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatini ham o'z ichiga olgan xaritasi to'g'risida, viloyat hududining o'ziga xos shakli, kattaligi to'g'risida, uning Turkmaniston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan chegaradosh ekanligi haqida, Amudaryo va Sulton Uvays tog'iga nisbatan holati to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. O'quvchilarning ilgari egallagan tushunchalari, fikrlash darajasi va xususiyatiga qarab turli o'quvchida bu viloyat haqida turlicha tasavvur vujudga keladi [23,40,42].

O'quvchining tabiiy geografik bilish jarayoni yuqorida ta'kidlangan hissiy geografik bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy geografik bilish asosida o'quvchining o'qish, o'yin va mehnat faoliyati jarayonida ikkinchi, yuqori bosqich - **aqliy tabiiy geografik bilish** paydo bo'ladi.

Aqliy tabiiy geografik bilish «**tabiiy geografik tafakkur**» deb ham yuritiladi. Hissiy geografik bilish orqali atrof-muhitdagi tabiiy ob'ektlar va hodisalardan olingan «materiallar» ni qayta ishlash, ularning munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim jihatlarini nomuhimlaridan ajratib olish. ular o'rtaсидаги bog'lanishiarni ochish tabiiy geografik tafakkurda amalga oshiriladi [71, 42].

Aqliy tabiiy geografik bilish, ya'ni tabiiy geografik tafakkur har doim hissiy geografik bilishga asoslanadi. undan oziqlanadi. O'quvchining hissiy geografik bilishi esa uning tabiiy geografik tafakkuri tufayli ongli tusga kiradi.

Mavhum tabiiy geografik tafakkur tabiiy geografik voqelikni vositali aks ettirishdir. Tabiiy geografik tafakkur faqat va hamma vaqt tabiiy geografik hissiyot asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi [158]. Tabiiy geografik voqelikni tabiiy geografik tafakkur orqali bilishda sezgilar vosita xalqalari hisoblanadi. Masalan, o'quvchi 1 km. balandlikdan yuqori bo'lgan tog' tepasiga chiqish jarayonida shisha trubkadagi simobning harakatini, ya'ni pasayishini ko'rib, tafakkuri yordami bilan bu hodisa atmosfera bosimi ekanligini ocha oladi. Demak, o'quvchi tabiiy geografik tafakkuri orqali o'zi sezmag'an, biroq aslida mavjud bo'lgan geografik hodisalarning xossalari, tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarning muştarak xossalari ifodalash orqali esa ular o'rtaсидаги munosabat va aloqalarni aniqlaydi.

Tabiiy geografik tafakkur orqali tabiiy ob'ektlar yoki hodisalarni bilish uchun avvalo ular haqida tushuncha hosil etish lozim [159]. Tushunchalar esa tilda (matnda) o'z ifodasini topadi. Demak, tilda (matnda) tabiiy geografik tafakkur natijasi mustahkamlanadi.

«Tabiiy geografik til (matn)» o‘zining shu xususiyati bilan o‘quvchiga geografik bilim to‘plashga, uni saqlashga, avloddan-avlodga uzatishga, egallagan geografik bilimlaridan hayotida unumli foydalanishiga yordam beradi. Ayni paytda tabiiy geografik til tabiiy geografik tafakkurni takomillashtirish vositasi hisoblanadi. shu boisdan ham tabiiy geografik tafakkur geografik voqelikni bevosita aks ettiradigan hissiy tabiiy geografik bilishdan tabiiy geografik til yordamida ifodalash i bilan farq qiladi.

Tabiiy geografik tafakkurdagi fikr tabiiy geografik til (matn) terminlari va so‘z birikmlari orqali ifodalanadi. O‘quvchi o‘z ongida tabiiy geografik til (matn) elementlari yordamida tabiiy geografik ob’ekt va hodisalar mohiyati hamda qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiy geografik til yordamida mavhum tabiiy geografik tushunchalar yaratiladi [145,38].

Bu mavhum tabiiy geografik tushunchalarda yakka, tabiiy geografik ob’ektlarga xos bo‘lgan bir necha umumiylar va muhim belgililar ajratiladi. O‘quvchi mana shunday mavhum tushunchalarga tayanib tabiat va jamiyat taraqqiyotining qonunlari va o‘zaro bog‘lanishlarini ta’riflaydi.


Tabiiy geografik tafakkur jarayonida hamma vaqt aniq tabiiy geografik bilish maqsadi qo‘yiladi. Demak, tabiiy geografik til tabiiy geografik tafakkurning moddiy qobig‘idir. Tabiiy geografik tilsiz, nutqsiz, matnsiz tabiiy geografik fikr yuritish aslo mumkin emas (1.1-rasm).

Tabiiy geografik til ovozli va ovozsiz, og‘zaki va yozma shakllarda bo‘lishi mumkin. Biz tadqiqotimizda ovozsiz, yozma shakldagi tabiiy geografik tilni **«tabiiy geografik matn» deb belgiladik**. Demak, tabiiy geografik til, matn va tafakkur bir-birining namoyon bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchining tabiiy geografik tafakkuri turli shakllarda amalga oshadi. Tabiiy geografik sezish, tabiiy geografik idrok tabiiy geografik tasavvur orqali namoyon bo‘lganidek, tabiiy geografik tafakkur ham «tabiiy geografik tushuncha», «tabiiy geografik hukm» va «tabiiy geografik xulosa chiqarish» orqali mavjud bo‘ladi.


Bularning barchasi tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarning mavhum tabiiy geografik tafakkurda namoyon bo'lish shakllari hisoblanadi va tabiiy geografik tilda va matnlarda o'z ifodasini topadi [23,30,33].

Tabiiy geografik tushuncha ma'lum tabiiy geografik ob'ekt va hodisalar xususiyatlarining umumiyligi va muhim belgilari yaxlit holda ifodalaydi. Masalan, «tog'i», «daryo», «ko'l» va boshqalar. Tabiiy geografik tushuncha yakka tabiiy geografik ob'ektni ham ifodalash i mumkin. Masalan, Hisor tog'i, Zarafshon daryosi, Chorvoq suv ombori va boshqalar.



19-rasm. Tabiiy geografik til bilan matnning o'zaro aloqadorligi.

Maktab tabiiy geografiyasi kursida o'quvchilar egallaydigan tushunchalar ikki asosiy turga: **umumiy tabiiy geografik tushunchalar** va **xususiy tabiiy geografik tushunchalarga** bo'linadi (20-rasm).



20-rasm. Tabiiy geografik tushunchalarning turlari va o'zaro aloqadorligi

Umumiy tabiiy geografik tushunchalar bir xil nom bilan ataladigan turdosh tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarining butun bir majmuini o'z ichiga oladi. Ular ba'zan «tabiiy geografik terminlar» deb ham yuritiladi. Bunday tushunchalar asosan tabiiy geografiya boshlang'ich kursida ochib beriladi. Masalan, «zilzila», «vulqon», «vodiyl», «voxa» va boshqalar ana shunday tushunchalardir.

Xususiy tabiiy geografik tushunchalar faqat bitta tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisaga tegishli bo'ladi va faqat uning o'ziga xos ekanligini ko'rsatadi. Xususiy tabiiy geografik tushunchalar boshqa yerda takrorlanmaydi va bunday tushunchalarning har biri undan ajratib bo'lmaydigan muayyan geografik nomga ega bo'ladi. Masalan, «Farg'ona vodiysi», «Xorazm vohasi», «Termiz shahri»,

«Qizilqum» kabi tushunchalar. Xususiy tabiiy geografik tushunchalarni umumiy tabiiy geografik tushunchalardan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Barcha xususiy tabiiy geografik tushunchalar bir-biridan farqlanadi va tegishli hollarda bir-biriga bo'ysunadi. Masalan, «Quyi Amudaryo tabiiy-geografik o'lkasi» tushunchasi «Ustyurt», «Sulton Uvays tog'i» tushunchalarini o'ziga bo'ysundiradi, ikkinchi tomondan esa «Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasi» tushunchasiga bo'ysunadi. «Turon tabiiy-geografik kichik o'lkasi» tushunchasi o'z navbatida «O'rta Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi» tushunchasiga bo'ysunadi. «Ustyurt» tushunchasi esa «Borsakelmas» tushunchasini o'ziga bo'ysundiradi.

Har qanday tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisaning o'ziga xos xususiyatini ifodalaydigan asosiy belgisi geografik o'midir. Hudud yoki joyning geografik o'rni faqat xarita yordamida anglab olinadi. shu bois xususiy tabiiy geografik tushunchalarni xaritadan ajratib bo'lmaydi, ular har doim xarita bilan bog'lanadi [123]. Xaritani shu sababli geografiyaning «ikkinchi tili» deb atashadi. Xususiy tabiiy geografik tushunchalar hudud xaritasi haqidagi xususiy tabiiy geografik tasavvurlar bilan birgalikda geografik voqelikning yaqqol manzarasini aks ettiradi [32,35,98,94,95, 134].

Xususiy tabiiy geografik tasavvur muayyan hududning tashqi xususiyatlarini tavsiflaydi; xususiy tabiiy geografik tushuncha esa mazkur hududning muhim belgilarni aks ettiradi. **Tabiiy geografik tushunchalarni aniq tabiiy geografik tushunchalarga va mavhum tabiiy geografik tushunchalarga ajratish mumkin.**

Aniq tabiiy geografik tushunchalar aniq tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarini aks ettiradi, masalan, «aholi», «iqlim», «siklon», «sunami», «vodiy», «yog'inlar» va boshqalar.

Mavhum tabiiy geografik tushunchalar esa fikrlash orqali tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarining belgilari va xususiyatlarini ifodalaydi. Masalan, «aholi zichligi», «aholi soni», «aholining joylashishi», «Farg'ona vodiysining iqlimi» kabi tushunchalar. Bunday tushunchalarning mavhumlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Tushunchada mavhumlik alomatlari qancha ko'p bo'lsa, mazkur tushunchanining mavhumlik darjasini shu ncha yuqori bo'ladi.


Tabiiy geografik tushunchalar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar tabiiy geografik ta'lilotlar, nazariyalar va konsepsiylarda o'z ifodasini topadi [98.51]. Bunday ta'lilotlar, nazariyalar va konsepsiylar ham mavhum tabiiy geografik tushunchalar sirasiga kiradi. Agar tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalar biron sifati bilan bir-biriga o'xshash yoki bir-biridan farqli bo'lsa, shu o'xshashlik yoki tafovut **tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarning belgisi** deb ataladi. O'quvchining ongida aks etgan tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarning belgisi **tabiiy geografik tushuncha belgisi** deb ataladi.

Tabiiy geografik tushunchalarda ikki: **muhim va muhim bo'limgan belgilari** farqlanadi. Tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarning tub xususiyatlarini ifodalovchi belgilari muhim belgilari deb ataladi. Masalan, siklon tushunchasining muhim belgilari, birinchidan, atmosferaning past bosimli qismi ekanligi, ikkinchidan, shamolning atrofdan markazga qarab esishi, uchinchidan, yog'in yog'ishidir. Tushunchadagi qator belgilarni ajratib yaxlit ifodalash **tushunchaning mohiyatini** anglatadi.

Tabiiy geografik tushunchalarni ko'rib, hidlab, sezib yoki sezgi va idrok yordamida aniqlab bo'lmaydi. Tabiiy geografik tafakkur tabiiy geografik til (matn) bilan qanday bog'langan bo'lsa, tabiiy geografik tushuncha ham so'z (matn) bilan shunday bog'liqdir. Tabiiy geografik tushunchaning moddiy asosi so'z (matn) dir. So'zdan, matndan ajralgan hech qanday tabiiy geografik tushuncha yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. So'zsiz, matnsiz tabiiy geografik tushuncha paydo bo'lmaydi. **Har bir tabiiy geografik tushuncha faqat so'z va matn orqaligina ifodalanadi.**

Har bir so'z va matn o'quvchining sezgi organlariga ta'sir etadi va oqibatda tushuncha paydo bo'lishi uchun zamin tayyorlanadi. Demak, so'z tabiiy geografik tushunchani shakllantiruvchi dastlabki asos bo'lib, oddiy, yakka ma'nolarni, nomni ifodalaydi. Tushuncha esa tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarning mohiyatini umumiy aks ettiradi. shuni alohida Ta'kidlash zarurki, so'z og'zaki, yozma shakllarda matnda ifoda etiladi, tushuncha esa faqat so'z va matn vositasida boshqalarga etkaziladi.

O'quvchilarda tabiiy geografik tushunchalarning vujudga kelishida taqqoslash , butunni bo'laklarga fikran ajratish, bo'laklarni butunga fikran to'plash, mavhumlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanish (21-rasmga qarang) muhim o'rinni tutadi [167,63].



21-rasm. O'quvchida tabiiy geografik tushunchani shakllantirish usullari

Taqqoslash - atrof-muhitdagi tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalar o'rtaсидаги о'xshashlik va tafovutni aniqlash usulidir. Taqqoslashda quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

- taqqoslanadigan tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak;
- taqqoslanadigan tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalar qanday belgisiga ko'ra qiyoslanishi oldindan ma'lum bo'lishi shart;
- hamma vaqt ikki yoki undan ortiq tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisani bir belgisi asosida bir xil nisbatda solishtirish kerak;

-taqqoslanadigan tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalar tasodifiy, muhim bo'lмаган белгиләргә өзбек таралып жаткан табиий географиялық об'екттердің мәндерін анықтауда көрсөткөндеңдеги мәндерге салынады.

Butunni bo'laklarga fikran ajratish – о'рганилайотган табиий географик об'ект yoki hodisani fikran tarkibiy qismlarga ajratish usuli. Masalan, tabiatni o'rganish jarayonida uni tarkibiy qismlarga: tog' jinslari, relef, Yer usti va Yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va havo massalariga ajratish. Butunni bo'laklarga ajratish jarayonida fikr murakkabdan oddiyga, umumiyyadan yakkaga, butundan bo'lakka qarab boriladi.

Bo'laklarni butunga fikran to'plash – bo'laklarga ajratilgan tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisani fikran to'plab, yaxlit holga keltirish usuli. Masalan, tog' jinslari, relef, Yer usti va Yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va havo massalariga ajratilgan tarkibiy qismlarni to'plab, yaxlit tabiatni o'rganish. Bo'laklarni butunga to'plash jarayonida fikr yakkadan umumiyyaga, qismdan butunga, aniqdan mavhumga qarab boriladi.

Mavhumlashtirish - tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalarning yakka, ikkinchi darajali, muhim bo'lмаган белгиләрдән узоqlashish va muhim белгиләrin topish usuli. Mavhumlashtirish natijasida tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalarning ichki tomoniari, mohiyati ochilib, tabiiy geografik tushuncha shaklida ongda mustahkamlanadi.

O'quvchining tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalarni mavhumlashtirish qobiliyati aynan uning fikrlash qobiliyati hisoblanadi. O'quvchini mavhumlashtirishga o'rgatish tabiiy geografiya ilmini egallash, uning qonuniyatlarini tushunishda juda muhim ahamiyatga ega.

Umumlashtirish - tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi va xususiyatlarini, bog'lanishlarini fikran muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va natijasidir.

Umumlashtirish tabiiy geografik ilmiy bilishning asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Unda ayrimlikdan umumiylilikka o'tilib (masalan, «relef»

tushunchasidan «Landshaft» tushunchasiga), umumiy tushuncha, hukm va nazariyalar hosil qilinadi (masalan, Landshaft - geologik zamini, relef, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumlari, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaralarga ega bo'lgan hudud; yomg'ir, qor, do'l, muz zarralari – yog'inlar va hakazo).

Tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalarining tushunchada aks etgan muhim belgilari yig'indisi **tabiiy geografik tushunchaning mazmunini** tashkil etadi. Masalan, «dovul», «bo'ron» tushunchalarining mazmunida juda kuchli shamol, «do'l» tushunchasida muz donalari asosiy belgilardir.

Bitta tabiiy geografik tushunchaning mohiyatiga kiradigan tabiiy geografik ob'ektlar yoki hodisalar yig'indisi, to'plamiga **tabiiy geografik tushuncha hajmi** deyiladi. Masalan, «kanal» tushunchasi hajmiga bor bo'lgan, hozirda mavjud va bo'lajak kanallar ham kiradi.

Tabiiy geografik tushunchaning mazmuni qancha keng bo'lsa, ya'ni tushuncha belgilari qancha ko'p bo'lsa, uning hajmi shu ncha tor bo'ladi va aksincha, tushunchaning mazmuni qancha tor bo'lsa, ya'ni belgilari kam, umumiy bo'lsa, uning hajmi shu ncha keng bo'ladi. Tabiiy geografik matnlar bilan ishlashda bu prinsipga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi [42; 46; 58].

Tabiiy geografik hukm ikki tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisa o'rtaсидаги aloqa, munosabat va bog'lanish jarayonini ifodalaydi. Masalan, «quyun – shamoldir», «qum – tog' jinsidir», «quyosh – yulduzdir», «yulduz – osmon jismidir», «sho'rxok – tuproqdir», «tuproq – tabiatning tarkibiy qismidir» kabilar. Tabiiy geografik hukm bir tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisa to'g'risida tasdiq yoki inkor shaklida kelgan fikrdir. Har bir fikr bir vaqtida ham mazmunga, ham mantiqiy shaklga, shuningdek til terminlari va so'zlar orqali ifodalanishi sababli grammatic ifoda - **tabiiy geografik matn** shakliga ham ega bo'ladi. Bir qancha tabiiy geografik hukmlar asosida bitta tabiiy geografik tushuncha paydo bo'ladi.

Tabiiy geografik xulosa chiqarish ikkidan ortiq tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisa o'rtaсидаги aloqa, munosabat va bog'lanishlarni ifodalaydi. Tabiiy

geografik xulosa chiqarish yangi tabiiy geografik bilimni vujudga keltirishning muhim va asosiy usuli hisoblanadi. Masalan, quyun shamoldir, har qanday shamol havoda hosil bo‘ladi. Demak, quyun ham havoda hosil bo‘ladi; bulbul jonivordir, har qanday jonivor ovqatsiz yashay olmaydi. Demak, bulbul ham ovqatsiz yashay olmaydi [167. 61].

shunday qilib, biz yuqorida o‘quvchining tabiiy geografik bilish jarayoni mohiyati, uning asosiy jihatlari bilan umumiy tarzda tanishib chiqdik. Xo‘s, bu jarayonga mutanosib ravishda maktab tabiiy geografiyasi mazmuni nimalarni o‘z ichiga oladi?

Maktab tabiiy geografiyasi mazmuni umumiy holatda amaldagi o‘quv dasturlari va darsliklarda etarlicha aniq ifodalangan tabiiy geografik bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Geografiya bo‘yicha Davlat ta’lim standartlaridagi tabiiy geografik bilimlar majmuasi

Tabiiy geografik bilimlar majmuasining asosiy yo‘nalishlari:

1.Tabiiy geografiyaning nazariy asoslari.

2.Tabiiy geografik tadqiqot metodlari.

3.Tabiiy ob’ektlar.

4.Tabiiy hodisalar va jarayonlar.

5.Olamni tabiiy geografik bilishning moddiy va ma’naviy madaniyatda ifodalanishi.

6.Hududlar tabiiy geografik tavsifining tuzilishi.

Tabiiy geografik bilimlar

Tabiiy geografik bilimlar umumiy tarzda tabiiy geografik ob’ektlar, hodisalar va jarayonlarning tabiiy geografik til (matn) shaklida qayta ifodalanishi, aks etishi sifatida tavsiflanadi. Nazariy va empirik tabiiy geografik bilimlar farqlanadi.

Nazariy bilimlar tabiiy geografik ob’ektlar, hodisalar va jarayonlarning xususiyatlari, ichki aloqalari va munosabatlarini aniqlovchi mohiyatni aks ettiradi.

Nazariy bilimlar ta'limotlar, nazariyalar, konsepsiylar, ilmiy farazlar, qonunlar, qonuniyatlar, sabab-oqibat bog'lanishlari va tushunchalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Empirik bilimlar tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarning tashqi xususiyatlarini ifodalaydi; ularga tasavvur va dalillar mansubdir.

Umumgeografik va tabiiy geografik ta'limotlar:

1. Geografik muhit haqidagi ta'limot.
2. Geotizimlar haqidagi ta'limot.
3. Geoekologiya haqidagi ta'limot.
4. Konstruktiv geografiya haqidagi ta'limot.
5. Geografik qobiq haqidagi ta'limot.
6. Geografik zonallik haqidagi ta'limot.
7. Geografik Landshaft haqidagi ta'limot.
8. Tabiiy-hududiy majmua haqidagi ta'limot.

Umumgeografik va tabiiy geografik nazariyalar:

1. Mintaqaviy rivojlanish nazariyasi.
2. Geografik baholash nazariyasi.
3. Tabiiy geografik rayonlashtirish nazariyasi.
4. Litosfera qatlamlari tektonikasi nazariyasi.

Umumgeografik va tabiiy geografik konsepsiylar:

1. Geotexnik tizimlar konsepsiysi.
2. Atrof-muhit monitoringi konsepsiysi.
3. Geografik ekspertiza konsepsiysi.
4. Qutlashgan Landshaft konsepsiysi.
5. Geotizimlarning barqarorligi va o'zgaruvchanligi konsepsiysi.
6. Tabiiy resursli potensial konsepsiysi.

Umumgeografik va tabiiy geografik ilmiy farazlar:

1. Kosmogoniya ilmiy farazi.
2. Materiklar dreyfi ilmiy farazi.

3. «Parnik effekti» ilmiy farazi.
4. Yerda aholi sonini barqarorlashtirish ilmiy farazi.

Umumgeografik va tabiiy geografik tafakkur:

- 1.Hududiy yondashuv.
- 2.Majmuaviy yondashuv.
- 3.Tarixiy yondashuv.
- 4.Tipologik yondashuv.
- 5.Tizimli yondashuv.
- 6.Muammoli yondashuv.
- 7.Ekologik yondashuv.
- 8.Konstruktiv yondashuv.
- 9.Xulqiy yondashuv.

Umumgeografik va tabiiy geografik metodlar:

- 1.Tavsiflash metodi.
- 2.Kartografik metod.
- 3.Qiyosiy-geografik metod.
- 4.Miqdoriy metodlar (kartometriya, ballar metodi, statistik metod).
- 5.Matematik metodlar.
- 6.Modellashtirish metodi.
- 7.Aerokosmik (masofaviy) metod.
- 8.Geoaxborot metodi.
- 9.Geokimyoiy metod.
- 10.Geofizik metod.
- 11.Paleogeografik metod.

Umumgeografik va tabiiy geografik til:

- 1.Tushuncha va terminlar tili.
- 2.Ilmiy dalillar tili.
- 3.Raqamlar tili.
- 4.Sanalar tili.

5. Geografik nomlar tili.

6. Tasavvurlar tili.

7. Xaritalar tili.

Sabab-oqibat bog'lanishlari

Maktab tabiiy geografiya kurslarining barchasida umumiy tabiiy geografik tushunchalar (relef shakkllari haqidagi, iqlim turlari haqidagi va h.k.), tabiatning ayrim tarkibiy qismllari va tabiiy-hududiy majmualarning xususiyatlarini belgilovchi sabab-qibat bog'lanishlari, umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar va tabiatning ayrim tarkibiy qismalarining shakllanish qonuniyatlar va shu kabilalar markaziy o'rinni egallaydi.

Sabab-oqibat bog'lanishlari tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi sababiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu bog'lanishlar mohiyati tabiiy geografiya ta'limining ilmiy darajasini belgilaydi. «Hodisalarning bog'lanishlari haqidagi masala ilmiy yo'nalish sifatida geografiya metodologiyasi uchun ham, maktab o'quv fani sifatida geografiya metodikasi uchun ham eng muhim masaladir» (N.N. Baranskiy).

Maktab tabiiy geografiya kurslarida tabiatning har bir tarkibiy qismi: relef, iqlimi, quruqlikdagi suvlar, dunyo okeani va tuproqlarning xususiyatlarini aniqlovchi sabab-oqibat bog'lanishlari ochib beriladi. Masalan, relief, birinchidan, ichki sabablar (tug'lar paydo bo'lishi, Yer po'stining mo'tadil harakati, vulqonlar) va ikkinchidan, tashqi sabablar (muz bosishi, dengiz transgressiyasi, ya'ni dengizning quruqlikka bosib kirishi, shamol, oqar suvlarning ishi) oqibati sifatida qarab chiqiladi. Sabab-oqibat bog'lanishlari orqali maktab tabiiy geografiyasini kurslarining markaziy tushunchasi - **tabiiy-hududiy majmular** tushunchasining mohiyati ochib beriladi.

O'quv dasturlarida o'quvchi istiqomat qilayotgan hududning tabiiy geografiyasini o'rganish, tabiatiga ekskursiyalar uyushtirish, ob-havo va iqlimini kuzatish kabilalar ko'zda tutilganki, bular tabiiy geografiya ta'limining o'lakashunoslikka asoslanganligini ta'minlaydi.

Geografiya bo'yicha Davlat ta'lim standartlaridagi o'quvchilar egallashi shart bo'lgan tabiiy geografik ko'nikma va malakalar ko'rsatkichlari

Geografiya bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga muvosiq tabiiy geografiya ta'limining tayanch mazmuni, ya'ni o'quvchilar egallashi shart bo'lgan **tabiiy geografik ko'nikma va malakalar** quyidagi ko'rsatkichlar vositasida ifodalanadi va bevosita tabiiy geografik matnlar bilan ishslash jarayonida shakllantiriladi:

- 1.Ayta (ko'rsata) olish.
- 2.Aniqlay (o'lcay) olish.
- 3.Tasvirlay bilish.
- 4.Tushù ntira bilish.
- 5.Bashorat qila bilish.

O'quv dasturlariga tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalarini o'rghanishning ilmiy metodi hisoblangan kuzatish, tajribada sinash, majmuaviy yondashish, qiyoslash, modellashtirish va eng muhimi, xaritashu noslik bo'yicha mavzularning kiritilishi o'quvchilarda nafaqat tabiiy geografik bilimlar, balki tegishli ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishini ham ta'minlaydi.

Tabiiy geografik ko'nikma va malakalar tabiiy geografik faoliyat usullari bo'lib, o'quvchilar ular vositasida o'zları egallagan bilimlardan o'zib ketadi, bu bilimlardan turli xil o'quv topshiriqlarini bajarishda foydalanadi va yangi bilimlarni egallaydi. Soddarоq tarzda ifodalaydigan bo'lsak, **ko'nikma** – o'quvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilimlari asosida ongli ravishda bajaradigan amaliy harakatlaridir, **malaka esa** ko'nikmani ko'p marta takrorlash va mashq qilish natijasida odat tusiga kirib qolgan ish usulidir.

Har qanday tabiiy geografik ta'lim vositalari yoki bilim manbalarining tarkibiy qismini matnlardan tashkil qiladi. V-VII sinflardagi tabiiy geografiya kurslarida foydalilanidigan ta'lim vositalarining matnlari ta'lim mazmunining asosini tashkil qilib, o'zida tabiiy geografik bilimlarni aks ettiradi [89. 42.47].

Tabiiy geografik matnlarda tushunchalar, ular o'rtasidagi aloqadorlik, dalillar, qonun va qonuniyatlar asosli ravishda yoritiladi. Eng muhimi, ularda

ta'larning maqsadi, vazifalari va o'quvchilarni tarbiyalashga imkon beradigan bilimlar mazmuni hamda hajmi ochib beriladi.

Tabiiy geografik matnlarning mazmuni o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda hamda oldingi kurslarda egallangan bilimlar zahirasi nuqtai nazaridan kelib chiqib tanlanadi. Matn uchun tanlangan bilimlar nafaqat o'quvchilarning yosh xususiyatlari, balki didaktikaning asosiy tamoyillariga ham bo'ysunishi kerak [100.65,67].

Demak, tabiiy geografiya ta'limdi o'quv materiallarining mazmuni matnlar mazmuni bilan chegaralanib qolmaydi. Buning asosiy sababi matnlarning tabiiy geografiya fanlari mazmuni, uning yangilanishlaridan kelib chiqqan holda davriy ravishda o'zgarib turishidadir [28. 23,29].

Ta'limiy matnlar, xususan, darsliklar va qo'llanmalar mazmuni ko'pincha fan taraqqiyoti va rivojlanishidan orqada qolib ketadi. shu tufayli ayrim ta'lim vositalari, ayniqsa darsliklar zamon talablaridan orqada qolmasligi uchun qayta ishlanib, to'ldirilib, ba'zi ma'lumotlari yangilanib turiladi. O'quv yili davomida esa tabiiy geografiya fanidagi yangiliklarni ta'lim vositalari yoki darsliklar matnlarining mazmunida doimiy ravishda aks ettirish imkon bo'lmaydi [63.73].

shuningdek, tabiiy geografiya fanlarida ayrim dalillar, u yoki bu ob'ektni o'rghanishning tadqiqiy metodlari tez-tez o'zgarib turadi [50]. Ta'lim vositalari yoki darsliklar matnining har 5-6 yilda qayta yozilishiga qaramasdan matnlar mazmunida barcha tabiiy geografik jarayonlarni izchil ravishda aks ettirib berish ancha murakkab masala hisoblanadi. Bunday qiyinchilikning oldini olish maqsadida o'quvchidan ta'lim vositalarining matnlari bilan ishlashda o'ziga xos ijodiy yondashuvni qo'llash taqozo etiladi. Bunday hollarda geografiya fani o'qituvchisiga ta'lim vositalarining matnlari mazmuniga ba'zi yangiliklarni qo'shishlariga ham to'g'ri keladi [168].

Tabiiy geografik matnlarga kiritilgan bilimlar avvalo ta'lim maqsadiga, o'quvchilar bilim darajasiga, ularning ehtiyojiga, zamon talablariga javob berishi

kerak. Aks holda bunday matnlarni nafaqt o'quvchi, balki hayotning o'zi ham inkor etadi [65; 136.182].

Kuzatishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tabiiy geografiya ta'limi vositalari, xususan darsliklar matnining mantiqan izchil va ilmiy bo'lishida bir qancha omillarga e'tibor berilgan.

Darsliklar matnining mantiqan izchil va ilmiy bo'lishi omillari:

1.Tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni muttasil tadqiq qilish, shu asosda turli xil yangi tabiiy geografik axborotlar to'plash.

2.To'plangan tabiiy geografik axborotlarni mavhum tizimga solish.

3.Tabiiy geografik qonuniyatlarni nisbatan bo'rttirib bayon etish va ular o'rtaсидаги сабаб-оқибат боғланышларини о'рнатиш.

4.Ilmiy tabiiy geografik axborotlarni o'quv qo'llanma, maqolalar tarzida chop qilib turish va kelgusida yaratiladigan ta'lim vositalari- darsliklar matnlarini tuzishda ulardan foydalanish.

Demak, o'quvchilarning tabiiy geografik bilish jarayonida, ularda tegishli tabiiy geografik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish da tabiiy geografik til, tabiiy geografik matnning tutgan o'rni beqiyosdir. Tabiiy geografik matnlarning tafsifi ishimizning keyingi qismida bayon qilinadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1.Respublikamizda umumiyo o'rta ta'limda DTS ga munosib maktabda geografiya kurslarini o'rganish ketma-ketligini belgilang?

2.O'quvchining tabiiy geografiyani bilish jarayoni deganda nimani tushunasiz?

3.Tabiiy geografik tushunchalarning turlari va o'zaro aloqadorligi deganda nimani tushunasiz?

4.UO'quvchida tabiiy geografik tushunchalarni shakllantirish ning qanday usullari bor?

5. Tabiiy geografik ko'nikma va malakalarga nimalar kirdi?

6.Tabiyy geografiya fanlari mazmunini geografik matnlarda qanday izohlasa bo'ldi?

6-§ Geografik matnlarning tavsisi va ular bilan ishlash usullari

Tabiyy geografiya ta'limi vositalari o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy vazifalarini hal qilish, ularda tabiat haqidagi ilmiy bilimlarni shakllantirish uchun zarurdir. Tabiyy geografiya ta'limi vositalari ilmiy-metodik adabiyotlarda va amaliyotda «o'quv-ko'rsatmali qo'llanmalar va bilim mambalari» deb ham yuritiladi.

Tabiyy geografiya ta'limi vositalarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida **ko'rsatmalilikni** ta'minlashdan iborat. Buning sababi shundaki, o'quvchilar tabiyy geografiyanı o'rganish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishi noqulay bo'lgan ob'ektlar va hodisalar bilan to'qnash keladi. shuningdek, tabiyy muhitdagi murakkab ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarning muhim belgilarini ajratib ko'rsatish maqsadida chizmalar, modellar va shu kabilardan foydalanishga to'g'ri keladi. Tabiyy geografiya ta'limi vositalari ayni paytda **bilimlarning eng mubim manbai** ham hisoblanadi va o'quvchilarda juda ko'plab ko'nikmalarni shakllantirish ga imkon beradi. Muhim, ular o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatining xususiyatlariga moslashgan bo'lishi, qisqa vaqt va kam quvvat sarf qilib, ko'proq bilim va ko'nikmalarni egallashga imkon berishi kerak [154.32,37].

Tabiyy geografiya ta'limi vositalaridan to'g'ri foydalanish ularning **tasnisi** bilan tanishishga yordam beradi. Biz aksariyat pedagog-olimmlarning fikrlariga tayanib, tabiyy geografiya ta'limi vositalarini tasniflash asosiga tabiyy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni **tasvirlash usuli** bo'yicha guruhlashtirish **prinsipini** qo'yish maqsadga muvofiq deb hisobladik. shundan kelib chiqqan holda tabiyy geografiya ta'limining barcha vositalarini to'rtta guruhga ajratildi va ularning turlarini tavsiflandi.

Tabiiy geografiya ta'limi vositalari va ularning turlari: 1. **Tabiiy ob'ektlar** o'r ganilayotgan tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida bevosita tasavvurga ega bo'lish maqsadiga xizmat qiladi va quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

-sinf sharoitida o'r ganiladigan tabiiy ob'ektlar (gerbariyalar, kolleksiyalar va boshqalar);

-tabiiy muhitga ekskursiyalar paytida o'r ganiladigan tabiiy ob'ektlar.

2. **Tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar tasviri** o'r ganilayotgan tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar haqida aniq tasavvur va tushunchalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi va quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

-hajmiy modellar (globuslar, ob'ektlarning yuza shakllari modellari va boshqalar);

-yassi ko'rgazmali qo'llanmalar (devoriy suratlar, rasmlar, fotografiyalar, portretlar, diapositivlar, diafilmlar, kinofilmlar, kinofragmentlar);

3. **Tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni shartli vositalar (so'zlar, belgilar, raqamlar)** bilan tasvirlash tasavvurlarni shakllantirish , o'r ganilayotgan tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarning mohiyati va tuzilishini, ularning makoniylarini, hududiy joylashish xususiyatlarini ochib berish maqsadlariga xizmat qiladi va nazariy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ular quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

-og'zaki asosli qo'llanmalar (nashr qilingan darsliklar, ma'lumotnomalar, daftarlari, matndagi jadvallar);

-xaritali qo'llanmalar (devoriy, stolda foydalilanadigan va yozuvsiz xaritalar, xarita-lavhalari, xarita-chizmalar va shu kabilari);

-grafik chizmali qo'llanmalar (tuzilishga, tasnifga oid chizmalar, tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarning aloqalari va o'zaro aloqadorlik chizmalar);

-grafik miqdorli qo'llanmalar (grafiklar, diagrammalar, jadvallar).

4. Tabiat hodisalarini tahlil qilish va qayta aks ettirish asboblari tabiatni o'rganishda asboblardan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish ga, materiallarni qayd etish va qayta ishlashga, hodisalarini tahlil qilishga xizmat qiladi va quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: joyda o'Ichov ishlarini o'tkazish asboblari; tabiat hodisalarining miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlarini aniqlash asboblari; kartometrik asboblar; Yerding yillik va sutkalik harakatini ko'rsatuvchi asboblar.

Har qanday tabiiy geografiya ta'limi vositalari, u gerbariyalar yoki kolleksiyalar bo'ladimi, hajmiy modellar yoki yassi ko'rgazmali qo'llanmalar bo'ladimi, og'zaki asosli qo'llanmalar yoki xaritali, grafik chizmali, grafik miqdorli qo'llanmalar bo'ladimi, o'zining turli mazmundagi katta-kichik matnlariga ega bo'ladi. Bu matnlar umumiy holatda tabiiy geografik matnlar deb yuritiladi. Matnsiz yoki matn qo'llanilmaydigan ta'lim vositasi bo'lmaydi.

Tabiiy geografiya fanlari mazmunini tabiiy geografik **matnlar mazmunida** aks ettirish omillari rang-barang.

Tabiiy geografiya fanlari mazmunini tabiiy geografik matnlar mazmunida aks ettirish omillari

1. Matnlarning muammoli bayon etilishi.
2. Matnlarning o'quvchilarni izlanishga o'rgatishi.
3. Matnlarning o'quvchilar bilim sifatini oshirishi.
4. Matnlar mazmunining sabab-oqibat aloqadorligi tarzida ifodalanishi.
5. Matnlar mazmunining mantiqan izchil yoritilishi.
6. Matnlarda kuzatishga oid ma'lumotlarning berilishi .
7. Matnlar mazmunining qiziqarli bo'lishi.
8. Matnlarda to'ldiruvchi xaritalar, qo'llanmalar va chizmalarning bo'lishi
9. Matnlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlar tarjibasidan foydalanish.

Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, tabiiy geografik matnlarga kiritilgan tabiiy geografik bilimlar badiiy, tasviri shaklda ilmiy-ommabop tarzda b'Yerilsa, u o'quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinadi [164.108.111].

Tabiiy geografik matnlar o'quv dasturlaridagi mavzularning maqsadlaridan kelib chiqib, Yer yuzasining tashqi xususiyatlari, ichki tuzilishi, geografik qobiq tarkibi va tabiiy-hududiy majmualar hamda ularda sodir bo'layotgan rivojlanish qonuniyatları haqidagi bilimlarni eltuvchi hisoblanadi. V-VII sinflardagi tabiiy geografiya ta'limi vositalarining matnlari tarkibiy jihatdan juda xilma-xildir.

Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursidagi tabiiy geografik matnlar asosan geografik qobiq va uning tarkibiy qismlarini ta'riflashdan iborat. Ularda geografik qobiqning moddiy tarkibi, kattaligi, xususiyati va boshqa tomonlari atroflicha aks ettilgan. Geografik qobiqdagi organik va noorganik moddalarning gaz, qattiq va suyuq holatlarida bo'lishiga ham tavsif berilgan.

Tabiiy geografik matnlarda tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar doimiy, to'xtovsiz harakatda va o'zgaruvchanlik nuqtai-nazaridan qarab chiqilgan. Bundan tashqari, xaritagrafik, gidrologik hamda dunyoning siyosiy xaritasiga oid bilimlar ham keltirilgan.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasiga oid matnlarda geografik xaritalar, Yerning geografik qobiqlari xususiyatlari, qonuniyatları hamda Materiklar va okeanlarda tabiat majmualarining almashinushi, tabiat zonalari haqidagi ilmiy bilimlar atroflicha jamlangan. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiat majmualari haqidagi bilimlar esa matnlarda muayyan hududlar bo'yicha tizimga solingan.

Xilma-xil tabiiy geografik matnlarning mazmuni tabiiy geografik bilimlarni sharhlashning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini o'zida mujassamlashtirган. Ulardagi tabiiy geografik tafsiflar maqsadga muvofiq reja asosida yoritilgan. Ammo tabiiy geografik matnlar o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ular mazmunida xilma-xil ta'riflar, tushunchalar, terminlar, nomlar, hodisalar va

jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishlar aks etadi. Turli kattalikdagi tabiiy hududiy majmualar esa yagona uyg'unlikda o'rganiladi.

Darsliklar, ma'lumotnomalar, matndagi jadvallar mazmuni bilan xaritalar, grafiklar mazmuni bir-biri bilan yaqindan aloqaga ega. Tabiiy geografik matnlar mazmunining nazariy jihatdan takomillashuvi avvalo unda tushunchalar, qonuniyatlar, umumlashirishlar va xulosalarning aks etganligi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, matnlar mazmunida sabab-aloqadorlik bog'lanishlarining mavjudligi uning nazariy jihatdan yuqori saviyada ekanligini ko'rsatadi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida umumlashiruvchi mavzularning matnlari ilmiy va nazariy jihatdan ancha puxta yoritilgan. Ammo boshqa mavzularda matnlarni tushu ntirish birmuncha zaif bo'lib, ta'riflovchi matnlar ko'pchilikni tashkil etadi, ularda dalillarni qayd etish nisbatan zaif ifodalangan. Demak, tabiiy geografiya kurslarining matnlari mazmunida ta'riflash va tushuntirish usullarining nisbati bir xil emas.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi hamda Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursiga oid matnlarda **ta'riflovchi matnlar** ustunlik qilsa, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursi matnlarida **tushuntirish matnlar** nisbatan ustun turadi. Tushuntirishlar ko'pchilik hollarda umumlashgan tarzda emas, balki qayd qilish tarzida aks etgan [170.109,111].

Kuzatishlar va tadqiqotlar jarayonida aniqlandiki, darsliklar va boshqa qo'shimcha adabiyotlardagi 1 bet hajmidagi tabiiy geografik matnda o'rtacha 3–9 ta tushuncha, qonuniyat yoki prinsip berilgan. V sinfga oid tabiiy geografik matnlarda ularning soni ancha yuqori . Matnlardagi nazariy jihatlarning salmog'i avvalo umumlashgan va yakunlovchi matnlarda kuzatiladi.

G.G. Granik va S.V. Bondarenko o'z tadqiqotlarda darslik matnlari va ularning turlari haqida fikr yuritganlar. Ularning fikricha, darslik matnlarining turlari darslik mazmuni va muammosiga aloqador bo'lgan jarayon hisoblanadi. Mazkur yo'naliishda olib borilgan tadqiqotlarda darsliklardagi matnlar tahlil etilib,

ular ta'lim metodlari bo'yicha tasnif qilingan. shu nuqtai nazardan izohli-ko'rgazmali tabiiy geografik matnlar hamda muammoli bayon etilgan tabiiy geografik matnlar, qisman-izlanuvchanlik tadqiqot metodlarini o'zida aks ettirgan tabiiy geografik matnlar farqlanadi [63;73,85].

Darsliklar va boshqa qo'shimcha adabiyotlardagi tabiiy geografik matnlarning asosiy, qo'shimcha va izohlovchi (tushuntirish) qismlardan iborat bo'lishi D.D.Zuev, I.V.Dushina, O.Mo'minov kabi olimlarning ishlarida turli jihatdan asoslab berilgan [79; 68; 115].

Geografiya ta'limi metodikasida yaqin vaqtarga qadar darsliklar va boshqa qo'shimcha adabiyotlardagi tabiiy geografik matnlar asosan mazmun nuqtai nazardan qarab chiqilgan. A.G.Bondarev, I.V.Dushina, D.D.Zuev, M.N.Kovalevskaya, V.B.Pyatunin, V.A.Sschenev kabi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda matnlarning nazariy, ta'riflovchi, tushuntiruvchi, izohlovchi, dalillarni qayd etuvchi va metodologik mazmundagi matnlar ajratib ko'rsatilgan [45; 67; 80; 90; 128; 152; 155].

Bu borada tadqiqotchi V.A. shchenevning amalga oshirgan ishlari ancha e'tiborga loyiqidir [184; 153; 154; 155]. U tabiiy geografik matnlarning o'ziga xos xususiyatlari - mantiqiy tuzilishini ajratib ko'rsatadi: matnning tuzilishi, matnning mazmuni va matnni bayon etish shakli. U matnlarda tabiiy geografiya fanlarining mazmuni to'liq aks etishi lozim deb hisoblaydi va shu nuqtai nazardan matn tuzilishining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

- sababdan oqibatga yo'naltirilgan matnlar;
- oqibatdan sababga yo'naltirilgan matnlar;
- butundan qismlarga yo'naltirilgan matnlar;
- dalillardan umumlashtirishga yo'naltirilgan matnlar.

V.A. shchenev matnlarning mazmuniy qismini ta'riflar ekan, ularni muammoli bayon qilish zarurligini ajratib ko'rsatadi: bilishga oid masalaning qo'yilishi, fikrning ifodalanishi, uning isboti va xulosalar. Matnni bayon qilish

shaklida esa tabiiy geografik ob'ektlar va jarayonlarning tavsifi, ularning paydo bo'lishi yoki o'zgarishi, ayrim dalillar, raqamli ma'lumotlar keltiriladi.

shunday qilib, tabiiy geografik matnlarga oid adabiyotlar tahlili matnlarning xilma-xil asoslar bo'yicha turlarga tasniflanishi haqida quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon bYerdi: tabiiy geografik bilimlarning yoritilish darajasiga ko'ra - tavsiflovchi, tushu ntiruvchi; tabiiy geografik bilimlarning mazmuniga ko'ra - nazariy, metodologik matnlar farqlanadi. Tabiiy geografik matnlarning tuzilishi esa matnlarda tabiiy geografiya fanlari mantig'ining aks etishi bo'yicha, tuzilishning tarkibiy qismlari esa muayyan mazmunning belgilariga ko'ra - fikrning ifodalanishi, uning isboti bo'yicha farqlanadi.

Amaldagi tabiiy geografiya darsliklari matnlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, V-VII sinflar darsliklaridagi tabiiy geografik matnlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: ta'riflovchi, tushu ntiruvchi va aralash matnlar.

Ta'riflovchi matnlar o'rganilayotgan tabiiy ob'ekt, hodisa va jarayonlarning asosiy belgilari va ularga aloqador bo'lgan xilma-xil dalillarni o'z ichiga oladi. Ta'riflovchi tabiiy geografik matnlarda tabiiy ob'ekt, hodisa va jarayonlarning qismlari o'rtasidagi murakkab aloqadorlik aksariyat hollarda bYerilmaydi, shu tufayli o'quvchilar matn mantig'ini tushunishda qiynaladilar. Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursida tog'lar, tekisliklar va shu kabi tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlikning yoritilishi bunga misol bo'la oladi.

Tushu ntiruvchi matnlarda sabab-oqibat bog'lanishlari asosida tabiiy aloqadorlikni aks ettirish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday tabiiy geografik matnlarda dalillar asosida tushunchalarni izohlab berish ustunlik qiladi. Masalan, VI sinfdagi passat, briz, atmosfera bosimi va havo sirkulyasiyasi kabi tushunchalarning tavsifi bunga misol bo'ladi. Bu matnlar mazmuni o'quvchilarning yosh iga nisbatan ancha murakkab bo'lganligi sababli ta'riflovchi matnlarga nisbatan soddarоq usullarni qo'llashni taqozo etadi.

Aralash matnlar xilma-xil tuzilishga ega bo'lib, ular ko'proq Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi

kurslarida uchraydi. Bunday matnlardagi dalillarning tushu narli bo'lishi avvalo uning mazmunini bayon qilishni taqozo etadi. Masalan, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini kursida iqlimni ta'riflashda avvalo iqlim hosil qiluvchi omillar, keyin esa iqlimning boshqa belgilari: o'rtacha oylik harorat, yog'inlar miqdori, uning alohida hududlar bo'yicha tafsilotlari bilan bayon etiladi.

Aralash tabiiy geografik matnlarning boshqa shakllari ham mavjud bo'lib, ularda tabiiy geografik ob'ekt, hodisa yoki jarayonlarning asosiy belgilari avvalo tasvirlanadi, keyin esa tushuntiriladi. Masalan, V- sinfdagi «Ko'llar» mavzusining matni shunday tuzilishga ega. Unda oldin «ko'l» tushunchasiga ta'rif bYerilib, uning belgilari ajratilib, keyin tushuntirib berilgan. Oqar va oqmas ko'llar, ko'l chuqurliklarining hosil bo'lishi ta'riflashdan keyin tushuntiriladi.

Tabiiy geografik matnlar tuzilishida keng qo'llaniladigan usullardan yana biri muayyan hududning avvalo bir butun holda, keyin uni qismrlarga bo'lib o'rganish hisoblanadi. Bu usul Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida Afrika relfini tasvirlashda qo'llanilgan.

shunday qilib, tabiiy geografik matnlarni tuzilishi va mazmuniy xususiyatlarini umumlashtirgan holda jadval tarzida quyidagicha ifodalash mumkin (1.1-, 1.2-jadvallar).

1.1- va 1.2-jadvallar mazmunidan ko'rinish turibdiki, tabiiy geografik matnlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turlicha tuzilish va mazmunga ega bo'ladi. Ularning tarkibi tabiiy geografik matnlarning mantig'idan kelib chiqadi.

Tabiiy geografik matnlarda o'quv materiallarini o'rganish bosqichlari e'tiborga olinadi. Bu xususiyatlar matnlar bilan ishlashda muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy geografiya ta'limi vositalari matnlarning asosiy vazifalari o'quvchilar tomonidan ilmiy tabiiy geografik bilimlarning mustahkam egallanishini, ularda tegishli tabiiy geografik ko'nikmalarni shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, barcha turdag'i tabiiy geografik matnlar mazmun jihatidan bir-biriga yaqin va

ularning asosiy maqsadi o'rganilayotgan tabiiy geografik ob'ekt, hodisa va jarayonlarning mohiyati va mazmunini o'quvchiga sodda va lo'nda qilib ochib berishdan iboratdir. Bu esa ko'p jihatdan o'qituvchi mehnatini engillashtiradi.

O'qituvchi tomonidan sayqal berilgan tabiiy geografik matnlarning o'quvchiga etkazilishi ularning geografiya faniga bo'lgan qiziqishlari va aqliy faoliyat bilan shu g'ullanishlariga keng imkoniyatlar yaratadi. Matnlar mazmunan oddiy, muammoli bo'lishi, ular o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga o'rgatishi kerak. Ayni paytda matnlar o'quvchilarning mustaqil holda savol yoki topshiriqlar tuzishi uchun qulay tarzda bo'lishi kerak.

I-jadval

Matn tuzilisbioint turlari va ularga xos misollar

Matnlarning tuzilishiga ko'ra turlari:	Misollar:
-sababdan oqibatga yo'naltirilgan;	-passatlar, passatlarning yog'inlar taqsimotida tutgan o'mi (VI sinf);
-oqibatdan sababga yo'naltirilgan;	-O'rta Osiyo relefining xilma-xilligi (VII sinf);
-butundan qismlarga yo'naltirilgan;	-Afrika refezi (VI sinf);
-dalillardan umumlashtirishga yo'naltirilgan.	-O'rta Osiyo iqlimi (VII sinf).

2-jadval

Matnlarning mazmuniga ko'ra turlari va ularga xos misollar

Matnlarning mazmuniga ko'ra turlari:	Misollar:
-ta'riflovchi; -tushu ntiruvchi; -aralash.	-daryolar va boshqalar; -teklisliklarning hosil bo'lishi, geografik koordinatalar; -O'zbekistonning refezi, geologiyasi va boshqalar.

O'quvchilarning turli xil tabiiy geografik matnlar mazmuni asosida o'qituvchiga muqobil savollar bYera olishi ularda savol yoki topshiriqlar tuza olish ko'nikmalarini shakllantirish ga yordam beradi. Zero, N.N. Baranskiy «taqqoslash , qiyoslash, solishtirish geografiyaning jonidir», deb ta'kidlagan edi [34.303].

Tabiiy geografiya darsliklari matnlari asosida tabiiy geografik ob'ektlar, xodisalar va jarayonlarni qiyoslash orqali yakka tushunchalarni shakllantirish imkoniyati tug'iladi. Har qanday mavzuga oid matnlarning asosiy maqsadi o'quvchilarda tegishli tabiiy geografik tushunchalarni shakllantirish dan iboratdir. Bu esa o'quvchilardan tabiiy geografiya darsliklari va boshqa ta'lim vositalari

matnlaridagi tushunchalarni guruhlarga (umumiylar, yakka, mavhum) ajrata olish ko'nikmalarini talab qiladi. Masalan, o'quvchilar tabiiy geografiya boshlang'ich kursida «Gidrosferaning tarkibiy qismlari» mavzusiga oid tushunchalarni muayyan tartibda guruhlashi mumkin.

**«Gidrosferaning tarkibiy qismlari» mavzusining asosiy
tushunchalari va uning turlari**

Umumiy Tushunchalar	YAkka tushunchalar	Mavbum Tushunchalar
-Gidrosfera, okean va h.k.	-Dunyo okeani, Atlantika okeani, SHimoliy muz okeani va h.k.	-Okean tagi, chuqurlik, to'lqinlar va h.k.
-Dengizlar, qo'ltiqlar va h.k.	-Arabiston dengizi, Qora dengiz, Bengaliya qo'ltig'i va h.k.	-CHekka, ichki dengizlar, oqimlar, sho'rlik va h.k.
-Orollar, yarim orollar va h.k.	-Islandiya oroli, Taymir yarim oroli va h.k.	-Kenglik, uzunlik va h.k.

Tabiiy geografik matnlarni tahlil qilish va o'rganish jarayonida shu narsa aniqlandiki, o'rtacha katalikdagi mavzular matnida 30-35 ta turli xil tushunchalar mavjud bo'ladi. O'quvchilar tabiiy geografiya darsliklari va boshqa ta'lim vositalari matnlaridagi tushunchalarni guruhlay olishni o'rganganlaridan keyin, ularga xos bo'lgan muhim belgilarni ajratish esa mantiqiy fikrlashni talab qiladi.

O.Mo'minov fikricha, tabiiy geografiya ta'limida xaritalar bilan ishlash ham matnlarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu o'quvchilarga xaritali qo'llanmalar vositasida alohida hududlarga mustaqil majmuaviy tavsif yozish, yozgan tavsifini darsliklardagi matnlar bilan solishtirib ko'rishva darslikdagi ma'lumotlarni xaritadan aniqlab olishga imkon beradi [115; 117].

Natijada qaysi ma'lumotlarni xaritadan aniqlab olish yoki qaysi ma'lumotlarning xaritada aks etmagani aniq namoyon bo'ladi. Eng muhimi, o'quvchilar xaritada aks etgan tabiiy geografik bilimlarni matnlarda aks etgan tabiiy geografik bilimlar bilan qiyoslaydilar va o'z xatolari, kamchiliklarini mustaqil aniqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladir. Oqibatda o'quvchilar darslik matnlari xaritani qanday bilimlar bilan to'ldirishi yoki xaritalar darslikni qanday

bilimlar bilan to'ldirishi mumkinligini aniqlaydilar. Bu eng ajoyib mantiqiy umumlashtirish hisoblanadi [115.56].

shuningdek, tabiiy geografiya darsliklari va boshqa ta'lif vositalari matnlari bilan ishlash jarayonida o'quvchilar jamoasini uyuştirish ham mumkin. Zero, o'quv jarayonida guruhlarga bo'linib ishlash o'quv topshiriqlarini birgalikda rejalashtirish, o'quv manbalari ustida birgalikda fikr yuritish, ularni hamkorlikda muhokama qilish imkoniyati yaratadi. Demak, tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ham faoliyat, ham vosita, ham metod, ham omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tabiiy geografik matnlar bilan ishlash tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning rang-barangligi tufayli ma'lum bir, qat'iy, aniq pedagogik yo'nalish shakllanmagan. Darslarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash masalasi olimlar, o'qituvchilar va metodistlar diqqatini o'ziga tortgan, lekin bu masala tabiiy geografiya ta'lifi metodikasi sohasida muammo sifatida maxsus o'r ganilmagan.

T.Abdullaeva, M.Abdurahmonov, I.I.Barinova, I.V.Dushina, P.Musaev, O.A.Mo'minov, M.Nabixonov, V.V.Nikolina, L.M.Pancheshnikova, R.Qurban niyozov, A.Hayitov va boshqalarning ishlarida geografiya darslari va darsdan tashqari ishlar jarayonida tabiiy geografik matnlar bilan ishlash masalasining turli jihatlari yoritilgan. Bu tadqiqotlarda quyidagi masalalarga e'tibor berilgan: matnlar bilan ishlash turlarini belgilash, dars va darsdan tashqari paytlarda matnlar bilan ishlash o'mini aniqlash, matnlar bilan ishlash mazmuni va uni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish [12; 14; 37; 38; 68; 69; 109; 116; 117; 118; 119; 124; 162; 164; 164; 165; 167; 168; 170; 188].

Biz geografiya ta'limida tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning ahamiyatini quyidagi mulohazalar bilan to'ldirishni lozim topdik:

Birinchidan, tabiiy geografik matnlar bilan ishlash asosan darsdan tashqari paytlarda amalga oshirilgan, darslarda esa matnlar bilan ishlashning ayrim qismlari qo'llanilgan, xolos.

Ikkinchidan, tabiiy geografik matnlar bilan ishlashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni darsga qiziqtirishdan iborat bo'lgan. O'quvchilar bilimini mustahkamlash va umumlashtirish, yangi bilimlarni o'zlashtirishda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash masalasiga etarlicha e'tibor berilmagan.


Uchinchidan, tabiiy geografik matnlar bilan ishlashni geografiya ta'limi mazmuniga bog'lab tashkil etish, ya'ni tabiiy geografik matnlar bilan ishslash texnologiyasi ko'rsatilmagan.

Ayni paytda tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning imkoniyatlarini ortiqcha bo'rttirish ham yaramaydi. shunga Erishish kerakki, matnlar bilan ishslash o'quv jarayonining tarkibiy qismiga aylansin. Bunga Erishish uchun darslarning qaysi qismida, qanday tartibda va mavzular mazmuniga muvofiq holda matnlar bilan ishslash texnologiyasi ishlab chiqilishi lozim.

O'quvchilar aqliy-ijodiy faoliyatini o'stirishda ham tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Matnlar bilan ishslash jarayonida o'quvchilar turli holatlarga duch kelib, vaziyatdan chiqish yo'llarini o'ylaydilar, mulohaza qiladilar va ijodiy fikrlashga majbur bo'ladilar. Buning natijasida qandaydir o'quv topshirig'i bajariladi. Bu vaziyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantiradi, o'z bilimlari va harakatlarini asoslashga undaydi [86].

Tabiiy geografik matnlar bilan ishslash usullariga e'tibor bermaslik yoki shakllangan usullardan ta'lim jarayonida o'rinni foydalanmaslik o'quvchilarning matnlar mazmunini ijodiy o'zlashtira olmasligiga hamda ularda geografiya bo'lgan qiziqishlarning so'nishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari va geografiya ta'limi metodikasiga oid adabiyotlar tahliliga asosan tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning eng keng tarqalgan quyidagi usullarini ajratib ko'rsatdik (22-rasm).



22-rasm. Tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullari

Didaktikada 1.2-rasmida ko'rsatilgan matnlar bilan ishlash usullarining muayyan turlari maxsus o'r ganilgan. Ayniqsa matnni to'liq, qisqa yoki tanlab o'qish va gapirib berish, matn bo'yicha savollarga javoblar berish, matndan tegishli tushunchalarni topish, oddiy va murakkab rejalar tuzish, xulosa qila olish kabi usullar kengroq tadqiq qilingan.

Ayrim mualliflar taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, isbotlash va shu kabilalarni matn bilan ishlash usullari sifatida ajratib ko'rsatadilar. shuningdek,

o'quvchining tabiiy geografik matnlar asosida konspekt, diktant va refYeratlar yozishi, test, krossvord va rebuslar tuzishi, yozuvsız xarita, chizma va rasmlar bilan ishlay olishi, annotatsiyalar tayyorlashi kabilar ham matnni o'zlashtirish usullari sirasiga kiradi, deb hisoblaydilar [81].

Ilg'or tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ayrim o'qituvchilar o'z faoliyatida tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning birmuncha murakkab turlaridan foydalanadilar. Ular tabiiy geografik matnlarni xarita bilan bog'laydilar, matnlar asosida chizmalar, jadvallar tuzadilar, matnlardagi raqamli materiallarni tahlil qilib, xulosalar chiqaradilar. O'quvchilar esa uyga berilgan vazifalarni darsliklar va boshqa manbalar asosida bajarayotganlarida quyidagi mazmundagi topshiriqlarni bajaradilar: tabiiy geografik matnlar asosida reja tuzish, savollarga javob topish, o'qituvchi savoliga matndan javob topish, alohida geografik hodisa, jarayon yoki hududlarni taqoslash, xilma-xil dalillarni tizimlash, qiziqarli savollar tuzish va hakozo.

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, tabiiy geografik matnlar asosida reja tuzish bilan tayyor matnlar asosida ishlash o'rtasida deyarli bir xil usullar qo'llaniladi. O'quv materiallarini (matnlarni) tanlash, matnni bo'laklarga ajratish, matndagi asosiy g'oyani topish, undagi fikrlarni guruhash va shu kabilar bunga misol bo'ladi.

Tabiiy geografik matnlarning eng muhim xususiyatlaridan yana biri ularning turli mazmundagi xaritalar bilan uzviy bog'liqligidir. Matn bilan xaritani uyg'unlashtirishning eng oddiy usuli matnda berilgan xilma-xil ob'ektlar va nomlarni xaritadan topish hisoblanadi. Xarita bilan matnni o'zaro bog'lashning murakkab usullaridan yana biri matnda berilmagan, ammo unga bevosita aloqador bo'lgan bilimlarni xaritadan topa olish hisoblanadi. Xaritada berilgan, lekin matnda aks etmagan bilimlarni matn bilan bog'lash birmuncha murakkab usul deb e'tirof qilingan. Demak, geografiya o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni xarita bilan matnni bog'lay olishga o'rgatishdan iboratdir. Matnlar bilan ishlash usullarining samaradorligi avvalo o'quvchilarda egallangan bilimlarni

xilma-xil sharoitlarda qo'llay olish ko'nikinalarining hosil bo'lishi bilan belgilanadi [24].

Tadqiqotchi olim I.V. Dushina tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullarining to'rtta asosiy guruhini ajratib ko'rsatadi.

Birinchi guruhga tabiiy geografik matnni izohli o'qish, matn bo'yicha savollarga javob berish, matndagi ma'lumotlarni yozib olish, yozuvsız xaritaga tushiriladigan ob'ektlar ro'yxatini tuzish usullari kiritiladi.

Ikkinci guruhga tabiiy geografik matnni mantiqiy tahlil qilishga yo'naltirilgan matnlarni saralash, undan asosiy g'oyani ajratish va reja tuzish usullari kiritiladi.

Uchinchi guruhga tabiiy geografik matnlarni izohlashga oid sabab-oqibat bog'lanishlarini ajratish, taqqoslash va tushunchalarni aniqlash usullari kiritiladi.

To'rtinchi guruhga esa tabiiy geografik matnlar bilan ishlashda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish ga yo'naltirilgan matnlar asosida chizmalar, rasmlar, jadvallar tuzish, muayyan hududga tavsif berish, tezislar tuzish kabi usullar kiritiladi [68,18,20].

yuqorida ta'kidlangan fikrlarga tayanib, o'quvchilarning tabiiy geografik matnlar bilan ishlash faoliyatini shartli ravishda quyidagi tarkibiy qismrlarga ajratish mumkin:

- tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning asosiy maqsadi;
- tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning mazmunga muvofiqligi;
- o'quvchilarning tabiiy geografik matn bilan mustaqil ishlash faoliyati;
- tabiiy geografik matnlar bilan ishlashni baholash.

Bularni quyidagicha izohlash mumkin: tabiiy geografik matnlar bilan ishlash o'rganiladigan mavzu va o'quvchilar faoliyatiga moslashtiriladi. Shu ndagina o'quvchilar tabiiy geografik matnlar bilan ishlashga va bu orqali bilimlarni o'zlashtirishga qiziqadilar. Qiziqish esa amaliy faoliyatni oshiradi.

P. Musaev, R. Qurban niyozov, O. A. Mo'minovlarning tadqiqotlaridan ma'lumki, o'quvchilar tabiiy geografik matnlar vositasida bilimlarni ongli

harakatlar orqali puxta egallaydilar. Ayrim harakatlarni mustaqil bajarib, yangi o'quv topshiriqlarini ham o'zlashtiradilar. shuning uchun tabiiy geografik matnlar bilan ishlashni belgilashda o'quvchilarga matnlar bilan ishlash harakatlarini bajarish yo'llarini ko'rsatishga to'g'ri keladi. Buning natijasida o'quvchilar tabiiy geografik matnlar bilan ishlashni mustaqil tashkil etishi va shu orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin.

O'quvchilarning tabiiy geografik matnlar bilan ishlash faoliyatini to'g'ri boshqarish uchun uning tarkibiy qismlarini aniq tasavvur etish talab qilinadi.


Biz tadqiqotimizda tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning tarkibiy qismlarini quyidagicha belgiladik (23-rasm):

maqsad - tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning vazifasi;

mazmunga muvofiqlik - tabiiy geografik matnlar bilan ishlash qoidalari, zaruriy ish-harakatlar;

o'quvchi va o'qituvchi faoliyati - tabiiy geografik matnlar bilan ishlash jarayonidagi holatlar;

baholash - tabiiy geografik matnlar bilan ishlash natijasi. Ishimizda tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning yangi texnologiyalarini yaratishda mazkur tarkibiy qismlar hisobga olindi.



23-rasm. Tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning tarkibiy qismlari

Ma'lumki, geografiya darslarida muammoli vazifalarni birqalikda hal etishda kuchli o'quvchilar faol ishtirot etadilar. Qolgan o'quvchilar esa vazifani qanday bajarish kerakligini tushunmay, ishga aralashmay, harakatsiz o'tiraveradilar, shuningdek vazifani xato bajarib qo'yishdan qo'rqib, ishga kirisholmaydilar. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, tajribaviy darslarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash texnologiyalaridan foydalanish barcha o'quvchilarning ishga kirishib ketishlarini ta'minladi.

shunday qilib, tabiiy geografik matnlar bilan ishlash turlarini tanlashga quyidagi shart-sharoitlar ta'sir qilishi aniqlandi:

- o'rganiladigan tabiiy geografik manbalarning mavjudligi va ular mazmunining xususiyatlari;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlari;
- o'quvchilar va o'qituvchilarning tayyorgarlik darajalari.

O'tkazilgan adabiyotlar tahliliga asoslanib, «tabiiy geografiya ta'limining o'quv-metodik ta'minoti» tushunchasi to'g'risida ham qisqacha to'xtalamiz. E.Pichugina ta'risiga asoslangan holda xulosa chiqarilsa, **tabiiy geografiya ta'limining o'quv-uslubiy ta'minoti** - bu tabiiy geografiya fanining o'quv maqsadlari va vazifalarini to'liq va samarali joriy etish uchun mo'ljallangan o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, didaktik materiallar va o'qituvchi uchun metodik ko'rsatmalar majmuidir [125]. shu nuqtai nazardan tabiiy geografiyaning majmuaviy o'quv-uslubiy ta'minoti ma'lum vaqt mobaynida geografiya fanini to'liq va samarali o'rganish uchun o'quv dasturiy hujjatlar va ta'lim vositalari tizimini yaratish va ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

V.V. Kraevskiy va I.YA Lerner konsepsiyasiga asoslangan holda xulosa chiqarilsa [142; 93; 98], tabiiy geografiya ta'limi mazmuni ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatga, ya'ni aniq o'quv jarayoniga o'tadi hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyati davomida **o'quvchining shaxsiga yo'naltirilgan** bo'ladi [105]. Ushbu konsepsiya tabiiy geografiya o'quv fanining ta'lim mazmunini belgilaydi, darslik va boshqa jamiki tabiiy geografik matnlar esa uning o'quv materiali sifatida

namoyon bo'ldi. O'quv dasturi o'quv-uslubiy ta'minot asosida ishlab chiqiladi, uning etaricha minimumi esa Davlat ta'lif standarti tarkibida keltiriladi. shuni Ta'kidlash joizki, darsliklar va boshqa tabiiy geografik matnlari eng keng tarqalgan ta'lif vositalari bo'lib, ular o'quv-uslubiy ta'minotning etakchi tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Demak, o'quv-uslubiy majmuaning ta'minlanishi deyilganda o'quv-me'yoriy hujjatlar orqali tabiiy geografiya ta'lifining muntazam va oqilona tizimini yaratish va o'quv jarayoniga ajratilgan vaqt oralig'ida o'quv fanini to'la va sifatli o'rghanish tushuniladi.

Tegishli adabiyotlarni o'rghanish va ularni tahlil qilish quyidagilarni aniqlash imkoniyatini berdi: **o'quv-uslubiy majmua** (O'UM)- oddiy to'plam emas, balki tarkibiy qismlari bir-biri bilan o'zaro mustahkam bog'langan va bir-birini taqozo qiluvchi turli xil ta'lif vositalari majmuidir. Bu didaktik vositalar ochiq tizimli bo'lib, darslik, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalardan tashqari turli xil adabiyotlarni (lug'atlar, ma'lumotnomalar va boshqalar) ham o'zida qamrab oladi [144.5,6].

Demak, o'quv-metodik majmua (O'MM) – bu tabiiy geografiya ta'limalda mazmunan va tashkiliy jihatdan o'zaro yagona metodologiya bilan bog'langan tabiiy geografik o'qitish hamda tabiiy geografik o'qishning didaktik vositalari va o'quv-me'yoriy hujjatlar yig'indisidir. Ular esa tegishli tabiiy geografik matnlarda o'z aksini topadi.

yuqorida ta'kidlangan holatlardan kelib chiqqan holda bugungi maktablar amaliyotida tabiiy geografiya darsliklari va boshqa ta'lif vositalari matnlari bilan ishlash qanday ahvolda, bu sohadagi yutuq va kamchiliklar nimalardan iborat, o'z echimini kutayotgan qanday muammolar mavjud, degan tabiiy savollar tug'iladi. Bular ishimizning navbatdagi qismiga aloqador masalalardir.

7-§ O'quvchilarda geografik matnlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni va mohiyati

Davlat ta'lif standartlariga muvofiq darslar va darsdan tashqari vaqtarda turli xil tabiiy geografiya ta'limi vositalarining matnlari bilan ishlash jarayonida o'quvchilar egallashi shart bo'lgan tabiiy geografik ko'nikma va malakalar hajmi tegishli ko'rsatkichlar orqali aniqlandi.

Tabiiy geografik ko'nikma va malakalar hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

1.O'quvchilar: tog' jinslari turlarini; Yerning geologik yoshini; tirik organizmlarning tarqalish chegaralarini; odamning quruqlikdagi suvlardan foydalanishini; Yerdagi issiqlikning manbalarini; daryolarning to'yinish manbalarini; ozon qatlaming emirilishi va uni saqlash usullarini; iqlimni hosil qiluvchi omillarni; suvlarni muhofaza qilish yo'llarini; atmosferani muhofaza qilish yo'llarini; tabiiy resurslarning asosiy turlarini; Yer qobiqlarini; asosiy geologik eralarni; havo massalarining asosiy turlarini; bulutlarning asosiy turlarini; kun va tunning tengligini hamda eng uzun va qisqa kunlarda Quyosh ning usqidan balandligini; Dunyo okeanidagi antropogen o'zgarishlarga misollarni; turli Landshaflarda Yer melioratsiyasini; mineral resurslardan to'g'ri va noto'g'ri foydalanishga misollarni; biologik resurslardan to'g'ri va noto'g'ri foydalanishga misollarni; Yer orbitasining shaklini, o'qining orbita tekisligiga og'ish burchagini; okean resurslari va ulardan foydalanish yo'llarini; daryo vodiysining tuzilishini aytalishi hamda xarita bo'ylab vaqtning almashinish chiziqlarini; Materiklar va okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar va oqimlarni; foydali qazilma konlari, havzalari va resurslar joylashgan hududlarni; Yerning magnit qutblarini; geografik axborotlarni olishning asosiy vositalari va metodlarini; tektonik xaritadan Yer po'stining asosiy tuzilishlarini; muzloqliklar joylashgan asosiy hududlarni va yirik muzliklarni; passatli va mussonli hududlarni; shimoliy va janubiy sovuq qutblarni; davlatlar, mintaqalar, zonalar, o'lkkalar va o'z joyini; okean va ichki quyilish havzalari bo'yicha daryolarning taqsimlanishini; seysmik havfli hududlarni; issiq va sovuq oqimlarni; ekvator, meridianlar, parallelilar,

tropiklar, qutb doiralari, qutblar, yorug'lik mintaqalarini k o'rsata olishi kerak.

2.O'quvchilar: kompas yordamida azimutni; ob'ektlarning geografik o'rmini; statistik ma'lumotlar bo'yicha haroratning yillik amplitudasini; xaritadan tegishli huddudda radiatsiyaning umumiy miqdorini; xaritadan yog'inlar miqdorini; tog' jinslarining magmatik, cho'kindi va metamorfik turlarga mansubligini; xaritada ob'ektlarning balandligi va chuqurligini; izoterma va mutloq belgilari bo'yicha haroratni; xaritalar va globusdan geografik koordinatalar, yo'nalishlar va masofalarni a n i q l a y o l i s h i va meteorologik asboblar yordamida harorat, namlik, bosim hamda shamolning yo'nalishi va kuchini o'chay o l i s h i lozim.

3.O'quvchilar: tuproqlar turlarining asosiy xususiyatlarini; muzliklarning faoliyatini; ob-havo bashoratining qanday tuzilishini; Yerning iqlim mintaqalarini; suvning geologik, biotik aylanma harakatlarini; o'z joyining Landshaftini; Yer yuzidagi tabiat zonalarini; sinoptik xaritadan ob-havoni; siklon va antitsiklondagi ob-havoni; atmosferaning isish jarayonini; Yerning tuzilishini va havo massalarining xususiyatlarini t a s v i r l a y o l i s h i shart.

4.O'quvchilar: hudud iqliniiga, Kishilar ning hayot va xo'jalik faoliyatiga okeanlarning ta'sirini; muzloqlarning Yer tabiatiga ta'sirini; odamning hayoti, turmush tarzi, xo'jalik faoliyatiga iqlimning ta'sirini; tabiatdagi sutkalik va mavsumiy ritmlarga yorug'likning ta'sirini; issiq va sovuq oqimlarning iqlimga ta'sirini; ozon qatlaming Yerdagi hayot uchun ahamiyatini; iqlimning o'zgarishini; inson faoliyati natijasida Landshaftlarning o'zgarishini; havo massalari va frontlarining vujudga kelishini; atmosferada yog'inlarning hosil bo'lishini; Yer osti suvlarining hosil bo'lishi, ulardan foydalanishni; okeanda oqimlar va to'lqinlarning vujudga kelishini; atmosfera frontlarining vujudga kelishi va ularning ob-havo holatiga ta'sirini; biosferaning paydo bo'lishi va rivojlanishini; ayrim hududlarning tabiatini, aholisi va xo'jalik xususiyatlarini; ayrim Landshaftlarning o'simlik va hayvonot dunyosidagi xususiyatlarini; antropogen

Landshaftlarning xususiyatlarini; xavfli tabiat hodisalari (qurg'oqchilik, sel kelishi, suv toshqini, qattiq sovuq, ko'chki va h.k.), ularning hududlarda tarqalishini; yil fasllari, kun va tunning almashinish sabablarini; Landshaftlarning o'zgarish sabablarini; ko'llarning vujudga kelishdagi farqlarini; global muammolarning vujudga kelish sabablarini; yog'inlarning notekeis taqsimlanish sabablarini; tuproq hosil bo'lismay jarayonlarini; xaritada daraja to'rining tuzilishini; yuqori va past bosimli hududlarning vujudga kelish sabablarini; shamolning hosil bo'lishini; doimiy muzloqlarning tarqalishi va uning tabiiy majmua holatiga ta'sirini; ayrim hududlar iqlimidagi tavofutlarni, harorat invYersiyasini; tabiat va madaniyat yodgorliklari ob'ektlarining buyukligini **t u s h u n t i r a o l i s h i** zarur.

5.O'quvchilar inson faoliyati ta'sirida daryolar, ko'llar, qumliklar, botqoqliklar, Yer osti suvlari, ayrim hududlarning iqlimi, tuproq unumдорлигi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda Landshaftlarining o'zgarishini **b a s h o r a t q i l a o l i s h i** lozim.

O'quvchilarning tabiiy geografik tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarning bajarilishi, ya'ni tegishli ko'nikma va malakalarning shakllanish i bugungi maktablar amaliyotida qay ahvolda, degan tabiiy savol tug'iladi?

V.A.SHchenevning ko'nikmalarni shakllantirish ga oid fikrlariga asoslanib, agar o'quvchi tabiiy geografik bilimlar manbalari – darsliklar, qo'llanmalar, xaritalar va shu kabi vositalarning matnlarini tushu nsa, ko'nikma va malakalarni qo'llash sohalarini, tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullariga oid hatti-harakatlar mazmuni va izchilligini bilsa, amaliy ishlar rejasini tuza olsa, o'quv jarayonida, shuningdek yangi, notanish vaziyatlarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash harakatlaridan amalda foydalana olsa, tabiiy geografik matnlar bilan ishslash ko'nikmalari o'zlashtirilgan deb hisobladik [148.41,45].

O'quvchilar tabiiy geografik matnlar bilan ishslash usullarini amalda o'zlashtirgan paytdagina har bir usulga oid tegishli ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarda tabiiy geografik matnlar bilan

ishlash ko'nikmalari tabiiy geografik bilimlar bilan chambarchas aloqada shakllanadi. Masalan, V sinfda tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi mazmunida umumiy tushunchalarni shakllantirish ustunlik qiladi, ular negizida esa tabiiy geografik ob'ektlarni xaritadan ko'rsatish, ularni tavsiflash, oddiy sababiy aloqalarni o'rnatish kabi xarita matni bilan ishlash ko'nikmalar shakllantiriladi. O'quvchilar VII sinfda O'zbekiston tabiiy geografiyasini kursida Yer yuzasining asosiy xususiyatlari haqidagi bilimlarni (tekisliklar, tog'lar, ularning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, ko'tarilish yoki pasayish yo'nalishlari, tizma tog'lar, botiqlar) o'zlashtirish jarayonining o'zida ularni tabiiy xaritadan belgilab boradilar va shu asosda xarita matni bilan ishlash ko'nikmalar shakllantiriladi.

Geografiya o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbat va so'rovlardan tabiiy geografiya kurslarida tabiiy xaritalar, ularning matnlari, matematik asoslari, shartli belgilari va geografik axborotlarni uzatishning boshqa usullarini ham o'rganishga e'tibor qaratilayotganligi ma'lum bo'ldi.

Maktablar amaliyotida o'quvchilarda tabiiy geografik xaritalarning matnini o'qish ko'nikmasini hosil qilish nihoyatda rang-barang bo'lib, ular muayyan mavzularga mos holda shakllantirilmoqda. Jumladan, o'rganilayotgan tabiiy ob'ektlar va jarayonlarni tabiiy geografik xaritadan topish ko'nikmasi, makoniylarini tavsiflash ko'nikmasi va shu kabilalar. Biroq geografik xaritalar, globuslar tabiiy geografik bilimlarni o'zlashtirishning yagona manbai bo'lib qolmayapti. Bu o'rinda o'quvchilarni tabiiy geografiya darsligi, uning matnlari – tarkibiy qismlari bilan tanishtirish hamda ularga matn bilan ishlash usullarini o'rgatish eng muhim omillardan biri bo'layotganligini alohida Ta'kidlash lozim. Zero, o'quvchilarni darsliklar va boshqa ta'lim vositalarining matnlari bilan ishlashga o'rgatish o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi [65.13,14].

Bugungi tabiiy geografiya ta'limi amaliyotida tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni tavsiflashning namunaviy rejalaridan foydalanish odat tusiga kirmagan. Namunaviy rejalar turli mazmundagi tabiiy xaritalarni o'qishda

keng qo'llanilmaydi. Bunday rejalardan tabiiy geografiya darsliklari va boshqa ta'lim vositalari matnlari bilan ishlash jarayonida ham kam foydalaniladi.

Maktablar amaliyotida o'quvchilarni tabiiy geografik matnlar asosida taqqoslash , sabab-oqibat aloqalarini topish, umumlashtirish va muhimlarini ajratib ko'rsatish, xulosalar chiqarish ko'nikmalariga o'rgatish o'ziga xos usullar orqali amalga oshirilmoqda. Bunday ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun turli xil ko'rsatmalar, esdaliklardan foydalanilmoqda. Ayrim maktablarda tabiiy geografiya Boshlang'ich kursida darslik va xarita matnlari vositasida ob'ektlarni taqqoslash usulini shakllantirish uchun maxsus esdalikdan foydalaniladi.

Tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni to'g'ri taqqoslash bo'yicha esdalik

Tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni to'g'ri taqqoslash yo'llari:	
Taqqoslash qoidalari	
1. Avvalo taqqoslanadigan belgilarni ajratib oling	Hisor va Nurota tog'larining balandligi
2. Ularni taqqoslang	Hisor tog'larining balandligi (Hazrat Sulton cho'qqisi) 4643 metr bo'lsa, Nurota tog'larining balandligi (Hayotboshi cho'qqisi) 2165 metr.
3. O'xshashligi yoki farqi haqida xulosa chiqaring	Hisor tog'lari Nurota tog'laridan baland.
4. Agar zarur bo'lsa, o'xshashligi yoki farqining sabablarini tushu ntiring	Hisor tog'lari Nurota tog'lariga nisbatan yosh va kam emirilgan.

Aytish mumkinki, darsliklar matnlari darslarda juda kam qo'llaniladi, ulardan aksariyat hollarda uyg'a berilgan vazifalarni bajarishda foydalaniladi, xolos. Aksariyat darslarda o'quvchilar tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar tasviri (globuslar, ob'ektlarning yuza shakllari modellari, devoriy suratlar, rasmlar, fotografiyalar, portretlar va h.k.) hamda tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni shartli vositalar bilan tasvirlash (ma'lumotnomalar, daftarlар, matndagi jadvallar, devoriy, stolda foydalaniladigan va yozuvsiz xaritalar, xarita-chizmalar, grafik chizmali va miqdorli qo'llanmalar: grafiklar, diagrammalar, jadvallar va h.k.) ga oid ta'lim vositalari matnlaridan ham samarali foydalanmaydilar.

Bularning barchasi o'quvchilarning tabiiy geografiya darsliklari va boshqa ta'lif vositalari matnlari bilan ishlashning o'ziga xos usullarini bilmasliklaridan kelib chiqadi. Aksariyat hollarda darslik yoki boshqa vositalar bilan ishlashdan asosiy maqsad mavzu yoki uning muayyan qismini o'zlashtirishdan iborat deb tushuniladi. Darslarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash qisman qo'llanilsada, u pala-partish, ma'lum qoidalarsiz amalga oshiriladi. O'qituvchilar uchun nashr qilingan mavjud metodik adabiyotlarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning aniq usullari berilmasdan, tavsiyanoma tarzidagi maslahatlardan nariga o'tilmayapti. O'quvchilar esa dars va darsdan tashqari vaqlarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash yo'llarini, texnologiyalarini deyarlik bilmaydilar, ularni egallamaganlar.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar ayniqsa tabiiy geografik matnlar bilan ishlashda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Buning asosiy sababi matnlarning murakkab yoritilishi va yozilishidir. Aksariyat hollarda o'quvchilar matn mazmunidagi asosiy g'oyani ajrata olmaydilar. Oqibatda matnlarning ayrim qismi o'quvchilar tomonidan quruq yodlab olinadi. O'quvchilarda mustaqil bilim egallahsha bo'lgan qiziqishning yo'qligi yoki kamligi tufayli matnlar bilan ishlashda darslarning ta'lif-tarbiyaviy vazifalariga putur etkaziladi. Bunday paytlarda darslarning ta'lif-tarbiyaviy maqsadlariga erishishda ko'proq xaritalar etakchi bo'lib, ular tabiiy geografik matnlar o'mini egallaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, umumta'lif maktablarning tabiiy geografiya ta'lifi amaliyotida tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi eng murakkab masalalar sirasiga kiradi. Umuman, o'quvchilarda matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish jarayoni ularning bilim egallah jarayoniga nisbatan ancha og'irligi qayd qilindi. Tabiiy geografiya darslarida turli xil matnlar bilan ishlashning ahamiyati juda yuqori bo'lishiga qaramasdan, u aksariyat maktablar amaliyotida keng tarqalgan emas.

Tadqiqot jarayonida ma'lum bo'ldiki, jami so'rovlarda ishtiroy qilgan geografiya fani o'qituvchilarining atigi 35-40 foizi tabiiy geografik matnlar

majmui bilan ishlaydilar, biroq o'quvchilarga turli xil tabiiy geografik matnlar, hatto darslik matnini o'qish va tushunish yo'llari deyarlik o'rgatilmaydi.

Savolnomadagi «Siz tabiiy geografiya ta'limi vositalarining qaysi turlarini bilasiz?» degan savolga 115 nafar ishtirokchi o'qituvchining 18 nafari (15,6 %) deyarlik to'liq bilishini, 55 nafari (47,8 %) noto'liq, ya'ni bir necha turlarini bilishini, 20 nafari (17,3 %) bu haqda tasavvurga ega emasligini, 22 nafari (19,1 %) esa javob berishga qiynalishini bildirdilar.

Savolnomadagi «Siz tabiiy geografiya darslarida darsliklar matnidan qanday foydalanasiz?» degan savolga 109 nafar ishtirokchining 74 nafari (79,8 %) yangi mavzuni bayon qilishda o'quvchilarni darslik matni bilan ishlashga jalb qilaman deb, shuningdek, ularning 9 nafari (8,2 %) o'tilganlarni takrorlashda, 11 nafari (13,7 %) umumlashtirishda, 15 nafari (16,5 %) bilim va ko'nikmalarni baholashda darslik matnidan foydalananaman, deb javob berishdi.

So'rovlarda qatnashgan o'qituvchilarning deyarlik to'rtidan uch qismi darsliklar matnlaridagi tushuncha va terminlarni topish, matnlar asosida reja tuzish, matnlar asosida ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni taqqoslash, matnlar asosida sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatish, matnlar asosida yozuvsız xaritaga tushiriladigan ob'ektlar ro'yxatini tuzish, matnlar asosida hududga tavsif berish kabi usullarning mohiyati va metodikasi haqida to'liq tushunchaga ega emaslar.

Darsliklar va geografik atlasning maxsus xaritalariga oid savollar bo'yicha so'rovlarda qatnashgan o'qituvchilarning 38 nafari (34,8 %) belgili xaritalarning, 41 nafari (37,6 %) xaritadiagrammalarning, 30 nafari (27,5 %) nuqtali xaritalarning, 46 nafari (42,2 %) xaritogrammalarning, 28 nafari (25,6 %) ranglar bilan ko'rsatiladigan xaritalarning, 47 nafari (43,1 %) areal xaritalarning, 44 nafari (40,3 %) izoliniyalı xaritalarning, 60 nafari (55 %) harakat liniyalı xaritalarning mohiyati va mazmunini tushuntirib bYera olmadilar.

«Tabiiy geografik xaritalar matni nimalarni o'z ichiga oladi?» degan savolga 109 nafar ishtirokchining 27 nafari (24,7 %) to'r va konturlarni, 51 nafari (46,7 %) shartli belgilarni, 31 nafari (28,4 %) geografik nomlar va raqamlarni, deb javob

qaytardilar. So'rovda ishtirok etgan o'qituvchilarning birortasi «tabiiy geografik xarita kartografik to'mi, muayyan mashtabda chizilgan konturlarni, shartli belgilarni, geografik nomlar va raqamlarni o'z ichiga oladi», degan to'g'ri va to'liq javobni bYera olmadilar.

«Tabiiy geografik xaritani o'qiy olish deganda nimalarni tushunasiz?» degan savolga so'ralganlarning atigi 46 nafari (42,2 %) «hududni va ayrim tabiiy geografik ob'ektlarni xarita asosida ta'riflash» degan to'g'ri javobni bYera oldilar, xolos.

Tabiiy geografiya ta'limida yozuvsiz xaritalar bilan ishslash, o'quvchilarda mazkur ko'nikmalarini shakllantirish ishlari nihoyatda qoniqarsiz ahvolda. Jami ishtirokchi o'qituvchilarning atigi 12,1 foizi o'z faoliyatida bunday xaritalardan foydalanishga harakat qilishadi.

Ayrim o'qituvchilar globus to'ri va mashtabning mohiyatini, hatto globusdan masofani aniqlash usullarini, shuningdek, havoda suv bug'larining borligini isbot qiluvchi (sovuj narsa yuzasida suv bug'larining tomchilarga aylanishi) yoki harorat o'zgarganda tog' jinslarining parchalanishini ko'rsatuvchi (kuchli isish va sovush natijasida) eng oddiy tajribalarni ham bilishmaydi. Aksariyat o'qituvchilar tabiiy geografiya ta'limining texnik vositalari (diafilm, diapositiv, kodoskop va h.k.), shuningdek kompyuter texnikasi bilan ishslash metodikasidan mutlaqo bexabarlar. Darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'shimcha adabiyotlar (gazeta, jurnal va h.k.), ularning matnlari bilan ishslash deyarlik yo'lga qo'yilmagan. Ayrim o'qituvchilar tabiiy geografik matnlar bilan ishlashi uchun vaqt va etishmasligini ro'kach qiladilar.

shuni alohida qayd qilish kerakki, ko'pchilik o'qituvchilarda darsliklar matniga uyga berilgan vazifani bajarish vositasi deb qarash paydo bo'lgan. Maktablar amaliyotida darsliklar yoki boshqa tabiiy geografik matnlar bilan ishslash ko'nikmasiga ega bo'lmasigan o'quvchilarga darslik va boshqa bilim manbalari bo'yicha uyga vazifa, mustaqil ishlarni berish va uning bajarilishini talab

qilish hollari tez-tez takrorlanmoqda. Bu tabiiy geografiya ta'limidagi yuzakichilik, haqiqiy safsatabozlikdir.

Bunday holat, birinchidan, ko'nikmasiz o'quvchi uchun juda katta qiyinchilikni vujudga keltiradi, ikkinchidan, o'quvchining geografiya faniga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi, uchinchidan, o'quvchi vaqtining behuda sarflanishiga olib keladi.

R.Qurban niyozov tadqiqotlariga ko'ra, respublikamizda geografiya o'kituvchilarining 35 foizi darsliklar matni bilan ishlashni to'liq, 20 foizi zaif, 45 foizi esa umuman bilmasligi qayd qilingan. U o'qituvchilarda umuman matnlar bilan ishlash usullari mavjud bo'lsa-da, biroq uning samarali metodik tizimi yo'qligini e'tirof etadi. Mazkur tadqiqot natijalarining biz tomonidan olingan natijalar bilan mazmuniy va miqdoriy hamohangligi diqqatga sazovardir.

Geografiya o'qituvchilarining o'quvchilarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish borasidagi faoliyatini aniqlash maqsadida 115 nafar o'qituvchidan 52 nafari ixtiyoriy tanlab olindi va ular bilan so'rov nomda o'tkazildi. Ixtiyoriy tanlangan o'qituvchilarning 33 nafari qishloq maktablari, 19 nafari shahar maktablari o'qituvchilaridan iborat edi. Ularning 5 nafari 5 yilgacha bo'lgan, 12 nafari 5 yildan 10 yilgacha, 10 nafari 10 yildan 15 yilgacha, 14 nafari 15 yildan 20 yilgacha, 11 nafari 20 yildan ortiq pedagogik ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar edi.

Ular so'rov larda Yerkin ishtiroy qilib, berilgan savollarga javob qaytardilar (3-jadval).

3-jadval

O'qituvchilarning o'quvchilarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilishga imkon beruvchi usullardan foydalanishi

№	Tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullari	Sinflar bo'yicha matnlar bilan ishlash usullaridan foydalanuvchi o'qituvchilar salmog'i (% hisobida)			
		V sinfida	VI sinfida	VII cinfida	Jami
1	Matnlarni izohlab yozish	60,5	65,8	70,5	65,6
2.	Matnlar asosida hududga tavsif berish	-	2,5	3,5	3,0
3.	Matnlarni tanlab o'qish	55,7	65,6	68,6	63,3

4.	Matnlar asosida reja tuzish	27,3	20,8	18,5	22,2
5.	Matnlar bo'yicha savolga javob berish	65,6	72,6	65,7	67,9
6.	Matnlar mazmunini gapirib berish	73,8	78,4	74,8	75,6
7.	Matnlar asosida sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatish	8,6	11,2	14,6	11,4
8.	O'qituvchi savoliga matnlardan javob topish	58,5	61,3	64,5	61,4
9.	Matnlar asosida yozuvsız xaritaga tushiriladigan ob'ektlar ro'yxatini tuzish	3,1	4,2	5,3	4,2
10.	Matnlar asosida rasm chizish, chizma va jadvallar tuzish	37,2	35,3	39,4	37,3
11.	Matnlardagi raqamli materiallarni tahlil qilish	58,8	65,3	72,5	65,5
12.	Matnlar asosida qiziqarli savollar tuzish	33,4	31,9	37,8	34,3
13.	Matnlardagi ob'ektlar va nomlarni xaritadan topish	68,6	72,3	75,5	72,1
14.	Matnlar asosida ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni taqqoslash	18,5	21,6	23,7	21,2
15.	Matnlardagi tushuncha va terminlarni topish	25,7	28,8	30,5	28,3
16.	Matnlar asosida xulosa chiqarish	41,4	44,8	48,4	44,8
Hammasi (o'rtacha % hisobida):		42,4	42,6	43,0	42,6

3-jadval tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarining 42,6 foizi o'z faoliyatida o'quvchilarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilishga imkon beruvchi usullardan foydalanishga harakat qiladilar, biroq bu ish usullari, harakatlar uzlusiz ravishda doimiy, etarlicha to'liq holatda olib borilmaydi. Jumladan, matnlar mazmunini gapirib berish (75,6 %), matnlardagi ob'ektlar va nomlarni xaritadan topish (72,1 %), matnlar bo'yicha savolga javob berish (67,9 %), matnlarni izohlab yozish (65,6 %), matnlardagi raqamli materiallarni tahlil qilish (65,5 %), matnlarni tanlab o'qish (63,3 %), o'qituvchi savoliga matnlardan javob topish (61,4 %) kabi ko'nikmalarni shakllantirish usullaridan birmuncha keng foydalaniladi.

Ayni paytda matnlar asosida xulosa chiqarish (44,8 %), matnlar asosida rasm chizish, chizma va jadvallar tuzish (37,3 %), matnlar asosida qiziqarli savollar tuzish (34,3 %) kabi ish usullaridan etarlicha foydalanilmaydi, matnlardagi tushuncha va terminlarni topish (28,3 %), matnlar asosida reja tuzish (22,2 %), matnlar asosida ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni taqqoslash (21,2 %), matnlar asosida sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rnatish (11,4 %), matnlar asosida yozuvsız

xaritaga tushiriladigan ob'ektlar ro'yxatini tuzish (4,2 %), matnlar asosida hududga tavsif berish (3,0 %) kabi ish usullaridan esa nihoyatda qoniqarsiz foydalanilishi ma'lum bo'ldi. Sinflar bo'yicha matnlar bilan ishlash usullaridan foydalanuvchi o'qituvchilar salmog'i deyarli bir xil ekanligi (42-43 %) qayd qilindi.

O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbat va so'rovlar asosida tabiiy geografik matnlar bilan ishlashni yo'lga qo'yishdagi ayrim qiyinchiliklar ham aniqlandi (15- ilova).

Tahlildan ma'lum bo'ldiki, o'qituvchilarning 39,5 foizi tabiiy geografik matnlar bilan ishlashda qiyinchilik sezmaydilar. Tabiiy geografiya kurslari bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar, bosma ko'rsatmali qo'llanmalar, kompyuter va boshqa o'quv-texnika vositalari, yozuvsız xaritalar, devoriy va mavzuiy tabiiy geografik xaritalarning yo'qligi yoki etishmasligi, o'quvchilarning matnlar bilan ishlashni istamasligi va ish usullarini bilmasliklari asosiy qiyinchiliklar sifatida qayd etildi.

Eng qizig'i, so'rovlarda qatnashgan o'qituvchilarning 90 foizi turli xil tabiiy geografik matnlar bilan ishlashda shaxsan qiyalmasligini, ammo buning uchun mактабда etarlicha shart-sharoit yaratilmaganligini ta'kidladilar. Ular o'quvchilarni matnlar bilan ishlash usullariga o'rgatishligini ham e'tirof qildilar. Ammo «Siz o'quvchilarda tabiiy geografik matnlar bilash ishlashning qaysi usullarini shakllantirasiz, turlarini aytинг?» degan savolga deyarlik javob olinmadi. Demak, shunday xulosaga kelish mumkinki, umumta'lim maktablar amaliyotida o'quvchilarni tabiiy geografik matnlar bilash ishlash usullariga o'rgatuvchi ish tizimi mavjud emas.

Bunday tizimning mavjud emasligini maktab o'quvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlar, so'rovlar va kuzatishlar natijalari ham tasdiqladi. Xususan, tajriba va nazorat sinflari sifatida tanlangan maktablarning V, VI, VII sinflarida ta'lim olayotgan 224 nafar o'quvchiga tabiiy geografiyadan uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda darslik yoki boshqa bilim manbalari matnlari bilan ishlashning qaysi usullaridan foydalanishlarini yozib berishlari taklif qilindi.

O'quvchilarning javoblari shuni ko'rsatdiki, ularning 62 foizi geografiya darslariga tayyorlanishda albatta darslikni, 31 foizi asosan geografiya daftariga yozib olgan ma'lumotlarni o'qiydilar, qolgan o'quvchilar esa o'qituvchining darsdagi hikoyasini esga tushirishini yoki sinfdoshlaridan so'rab olishini ta'kidlaganlar.

Darsliklar bilan shu g'ullanadigan o'quvchilarning 45 foizi mavzu matnni 2-3 marta o'qib chiqishini, 42 foizi matnni o'qib bo'lgach, darrov ovozini chiqarib takrorlashini, 52 foizi mavzu matnni o'qigach, uning oxirida berilgan savollarga javob topishini ma'lum qilganlar. Hatto 6 foiz o'quvchi mavzu matnida berilgan ob'ektlarni tabiiy xaritadan topganligini, 5 foiz o'quvchi uyidan mакtabga kelishiga qadar o'qigan matnnini ichida takrorlashini ham ta'kidlaganlar.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning tabiiy geografik matnlari bilan ishlashdagi asosiy usuli mavzu matnni o'qish va uni gapirib berishdan iboratdir.

O'quvchilarda matnni o'qish va gapirib berish usulining qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 112 nafar o'quvchi ishtirok qildi. shundan V sinf o'quvchilari 56 nafarni, VI sinf o'quvchilari 27 nafarni, VII sinf o'quvchilari 29 nafarni tashkil qildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida barcha o'quvchilarga 280 so'zdan iborat bo'lgan notanish tabiiy geografik matnni o'qish va gapirib berish vazifasi topshirildi. Olingan natijalar quyidagicha bo'ldi: V sinf o'quvchilari matnni 4-5 minutda ovoz chiqarib o'qidilar (minutiga 60-80 so'z), VI va VII sinf o'quvchilari esa uni 3-4 minutda o'qidilar (minutiga 70-90 so'z).

shuni Ta'kidlash kerakki, V va VI sinf o'quvchilari matnni o'qishda qiynalib, tabiiy geografik ob'ektlar va hodisalar nomi va mohiyatini ifodalovchi qiyin terminlar-so'zlarni talaffuz qilishda xatoliklarga yo'l qo'ydilar, matndagi etakchi fikrni darrov ajratma olmadilar.

VII sinf o'quvchilari matnni o'qishda unchalik qiyalmadilar, matndagi etakchi fikrni ajratib oldilar, ammo undagi notanish tushuncha va terminlar mazmunini izohlash va o'zlashtirishga qiyaldilar. Umuman, tajriba sinovida ishtirot etgan o'quvchilar asosan ta'riflashga oid dalillar bilan cheklandilar, sabab-oqibat bog'lanishlarini ko'rsatishga qiyaldilar, ularning deyarlik 80 foizi matndagi asosiy g'oyani ajratib ko'rsatishda chalkashliklarga yo'l qo'ydilar.

Tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarda matn bilan ishslash usullarining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida 2 ta usulni tanladik: «matn asosida reja tuzish» va «matndagi tushuncha va terminlarni topish».

O'quvchilarga quyidagi topshiriq berildi: oldin o'rganilmagan mavzu matnni ichidan o'qish, o'qilgan matn asosida uning rejasini tuzish, matndagi asosiy tushuncha va terminlarni ajratib ko'rsatish, ayni paytda matndagi dalillarni, unda ifodalangan tabiat va relef tasvirini, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash.

V sinf o'quvchilari "Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi" darsligidagi «Daryolar va ko'llar» mavzusi, VI sinf o'quvchilari esa «Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi» darsligidagi «Avstraliyaning iqlimi va ichki suvlari» mavzusining matnlari bilan ishladilar va shu asosda tegishli natijalar olindi.

Demak, o'quvchilar matn asosida reja tuzishni qisman bo'lsa ham tasavvur qila oladilar, ammo matndagi asosiy g'oyani, tushunchalarni, dalillarni, sabab-oqibat bog'lanishlarini ajratib bilmaydilar.

Geografik matnlar bilan ishslash usullari tizimining mohiyati. Geografiya darslari va darsdan tashqari ishlar jarayoniga tabiiy geografik matnlar bilan ishslash usullarini ttabiq etishdan oldin ular psixologik-pedagogik va uslubiy jihatdan asoslanishi lozim, degan xulosaga tayandik.


Tabiiy geografik matn bilan ishslash usullari tizimini tajriba sinovidan o'tkazishdan oldin mazkur usullarning mashg'ulotlar mavzusi va mazmuniga qanchalik mosligi aniqlab olindi. Zero, aksariyat tadqiqotchilar tabiiy geografik matnlar bilan ishslash usullarini tanlashda matnlar mazmunini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar [24; 127; 133.46].

Har qanday tabiiy geografik bilimlar negizida o'sha bilimlarga mos va xos bo'lmagan ko'nikma va malakalar (ish usullari) yashiringan bo'ladi, ularning shakllanish i esa tabiiy geografik matnlarda qay darajada yoritilishi ga bog'liqdir. shu bois ishimizda tabiiy geografik matnlar tabliliga asosiy e'tibor qaratildi.

Tajribalardan ma'lumki, tabiiy geografik matnlar mazmunining umumiyligi tushunchalarni shakllantirish dagi izchilligi, ketma-ketligi hamda o'quvchilar saviyasi va yosh ini e'tiborga olmay noqulay yozilishi ular bilan ishlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchida matn bilan ishlashtirish ko'nikmasining hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Maktab tabiiy geografiyasi kurslarida tabiiy geografik matnlar bilan ishlashtirning ilmiy asoslangan texnologiyalarini ishlab chiqish uchun eng avvalo dasturlardagi har bir mavzu bo'yicha darsliklar va boshqa turdagagi tabiiy geografik matnlarning murakkablik darajasi tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bizning tadqiqotimizda tabiiy geografik matnlarning murakkabligini matnning hajmi va yangiligi, undagi axborotlarning xilma-xilligi, matn tarkibi va mavhumligi kabi tushunchalar tashkil qildi (24-rasm).



24-rasm. Tabiiy geografik matnlarning murakkabligini belgilovchi omillar

24-rasmga asosan tabiiy geografik matnlar murakkabligini belgilovchi omillarning ahamiyatini alohida qarab chiqamiz:

1. Tabiiy geografik matnlarning hajmi va yangiligi. Har qanday tabiiy geografik matn muayyan tabiiy geografik axborotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Biz tadqiqotimizda qomusiy olim M.M. Hayrullaev fikrlariga tayanib [167], matndagi tabiiy geografik axborotlarning o'ziga xos o'lchov birligi sifatida «tabiiy geografik hukm»ni asosiy mezon qilib belgiladik.

Demak, **tabiiy geografik hukm** – tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlar, ularning turli belgilari, xususiyatlari va munosabatlari haqidagi tasdiq yoki inkor shaklidagi fikrdir.

Biz matnlar mazmunini bitta tugallangan fikrni ifodalovchi oddiy gap - bir yoki bir necha tabiiy geografik hukmlar tizimidan iborat bo'lgan tuzilma deb qabul qildik. shunga asosan, tabiiy geografik matnlardagi axborotlar hajmi - bu mantiqan uzviy va izchillikda takrorlanib turadigan oddiy tabiiy geografik hukmlardan iborat bo'lib, muayyan matndagi axborotlar oqimining tarkibiy qismi hisoblanadi [157.74].

Tabiiy geografik hukmlar yordamida darsliklar va boshqa ta'lim vositalari matnlari mazmunining hajmi va berilgan axborotlar ma'nosi aniqlanib, ularning murakkablik darjasini o'rghanildi. Demak, matnda tabiiy geografik hukmlar qancha ko'p bo'lsa, u shu ncha murakkab bo'ladi. shuni alohida Ta'kidlash kerakki, tabiiy geografik hukmlarda so'zlarning, fikrlarning tugallangan bo'lishi ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini birmuncha osonlashtiradi.

Tadqiqot jarayonida tabiiy geografik matnlar murakkabligining yana bitta etakchi jihat, ya'ni undagi notanish so'zlarning miqdoriy ko'rsatkichi aniqlandi. Matnda notanish, yangi so'zlar va so'z birikmalari qanchalik ko'p bo'lsa, u o'quvchilar uchun shunchalik murakkab hisoblanadi. Chunki ular matnning mantiqiy mazmunini qiyinlashtiradi va o'quvchining xotirasida uzoq saqlanmaydi. shu sababli tajriba-sinov maktablarida tabiiy geografiya kurslarida har bir darsda foydalaniladigan turli xil tabiiy geografik matnlardagi notanish so'zlarning

umumiyligi miqdori 6-7 tadan oshib ketgan hollarda o‘quvchilar uchun maxsus lug‘at daftarini yuritish tavsiya qilindi.

Tadqiqot jarayonida darsliklar va boshqa tabiiy geografik matnlarni shu taxlitda tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, matndagi yangi so‘z va so‘z birikmalari miqdori sinflar bo‘yicha turlicha taqsimlangan:

- V sinfda Tabiiy geografiya Boshlang‘ich kursida jami yangi so‘z va so‘z birikmalari soni o‘rtacha 600 tani tashkil qilib, shundan 200 ga yaqini geografik joy nomlaridir;

- VI sinfda Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida yangi so‘z va so‘z birikmalari soni o‘rtacha 750 tani tashkil qilib, shundan 298 tasi geografik joy nomlaridir;

- VII sinfda O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi kursida yangi so‘z va so‘z birikmalari soni 485 tani tashkil qilib, shundan 300 ga yaqini geografik joy nomlaridir;

- VII sinfda O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursida yangi so‘z va so‘z birikmalari soni 462 tani tashkil qilib, shundan 272 tasi geografik joy nomlaridir.

Yana shu narsa aniqlandiki, tabiiy geografiya kurslari bo‘yicha har bir mavzu matnlarida uchraydigan notanish so‘zlar soni xilma-xil bo‘lib, ularning miqdori 5-6 tadan 30-35 ga qadar o‘zgarib turadi. Notanish so‘zlar asosan Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kurslarida ko‘p uchraydi.

2. Tabiiy geografik matnlardagi axborotlarning xilma-xilligi. Matnlardagi axborotlarning xilma-xilligi muayyan matndagi tabiiy geografik hukmlar asosida shakllantiriladigan ma’noli qatorlar miqdori bilan aniqlanadi.

Masalan, P. G‘ulomov va R. Qurbonniyozovlarning «Tabiiy geografiya Boshlang‘ich kursi»dagi «Okean va uning qismlari» kichik mavzusi bo‘yicha 7 ta tabiiy geografik hukm ajratildi.

«Okean va uning qismlari» kichik mavzusi bo'yicha

tabiiy geografik hukmlar:

1. Yer yuzasining maydoni 510 mln. kv. km.
2. Yer yuzidagi butun quruqliklar 6 ta qismga bo'linadi.
3. Yerning suv bilan o'ralgan yuzasi 4 ta okeandan iborat.
4. Eng katta va eng chuqur Tinch okeandir.
5. SHimoliy qutb atrofida SHimoliy muz okeani joylashgan.
6. Okeanlar suvi sho'r bo'ladi.
7. Dengizlar okeanning qismlari hisoblanadi.

yuqorida gi 7 ta tabiiy geografik hukm 3 ta ma'noli qatorni tashkil qildi.

1- va 2- tabiiy geografik hukmlardan iborat birinchi ma'noli qator quruqlik haqida, 3- va 4- tabiiy geografik hukmlardan iborat ikkinchi ma'noli qator okeanlar haqida, 5.-6- va 7- tabiiy geografik hukmlardan iborat uchinchi ma'noli qator okeanlarga xos xususiyatlarni ifodalaydi.

P.G'ulomov va R.Qurban niyozovning «Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi»dagi «Quruqlikdagi suvlar» mavzusining o'zi 89 ta tabiiy geografik hukm, 28 ta ma'noli qatorni tashkil qildi. Birgina «Yer osti suvlari» kichik mavzusida 24 ta tabiiy geografik xukm mavjud bo'lib, ular 8 ta ma'noli qatorni tashkil qildi [162.56.63].

Xuddi shuningdek, «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyası», «O'rta Osiyo tabiiy geografiyası» va «O'zbekiston tabiiy geografiyası» kurslarida ham tegishli tabiiy geografik hukm va ma'noli qatorlar mavjud. shuni alohida Ta'kidlash joizki, tabiiy geografiya kurslari bo'yicha har bir mavzu matnidagi ma'noli qatorlar miqdori mazmunga mos ravishda o'rtacha 5 tadan 50 tagacha o'zgarib turishi ma'lum bo'ldi.

3.Tabiiy geografik matnlar tarkibi matndagi ma'noli qatorlar va ular o'rtasidagi aloqadorlik asosida aniqlanib, har bir mavzu matnidagi ma'noli axborotlarning o'sishini, ularning yangiligini ifodalaydi.

Biz ishimizda muayyan izchillikda o'rganilayotgan tegishli matnda birinchi marta paydo bo'lган, biroq mazmuni oldin o'rganilgan matnlarda qisman bayon qilingan axborotlarni yangi hisobladik. Har bir darslikdagi muayyan mavzuda mavjud bo'lган yangi tabiiy geografik hukmlar asosida matndagi axborotlarning xilma-xilligi, o'sishi va yangiligi aniqlandi. shu maqsadda tegishli savollardan foydalanildi.

Tabiiy geografik matnlardagi hukmlar va ma'noli qatorlarni hisoblashga oid misollar

V-sinf «Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi»dagi «Quruqlikdagi suvlar» mavzusining (20-paragrafi) «Yer osti suvlari» kichik mavzusi bo'yicha ajratilgan tabiiy geografik hukmlar:

1.Yer po'sti qismidagi tog' jinslarining g'ovak, bo'shliq va yoriqlaridagi suvlar Yer osti suvlari deyiladi.

2. YYer osti suvlari hosil bo'lishi uchun quruqlikka etarli miqdorda yog'in (qor, yomg'ir) yog'ib turishi kerak.

3. YYer osti suvlari hosil bo'lishi uchun yuzadagi tog' jinslari suvni chuqurga o'tkazib yuboradigan darajada g'ovak bo'lishi zarur.

4.Suvning Yerga tez yoki sekin shimilishi tog' jinslarining g'ovaklik darajasiga bog'liq.

5.SHag'al qum suvni yaxshi o'tkazadi.

6.SHag'al, yirik qum, qum suvni o'tkazuvchi jinslar deyiladi.

7.Granit, ohaktosh, qumtosh, gil singari jinslar suvni yaxshi o'tkazmaydi. shunga ko'ra ular suv o'tkazmaydigan jins deyiladi.

8. YYer po'stining yuza qismidagi tog' jinslari qatlam-qatlam bo'lib yotganligidan Yer osti suvlari ham qatlamlar hosil qiladi.

9.G'ovakliklarida suv bo'lган qatlamlar suvli qatlamlar deyiladi.

10.Ikkita suv o'tkazmaydigan qatlam orasida joylashgan suvli qatlam suvi qatlamlar orasidagi suv deb ataladi.

11.Ikkita suv o'tkazmaydigan qatlamga suv mazkur qatlam Yer yuzasiga chiqqan joylardan kiradi.

12.Agar tog' jinslari qatlamlari tovoq shaklida bo'lsa, Yer osti suvlari bosimli bo'ladi.

13.Tog' jinslari qatlamlari tovoq shaklida bo'ladigan joylarda burg'u qudug'idan suv favvora hosil qilib, otilib chiqadi. Bunday quduqlar artezian quduqlar deyiladi.

14.Yer yuzasidagi g'ovak jinslar orasidagi suvlар grunt suvi deb ataladi.

15.Grunт suvlari sathi qish va bahorda qor Yerib, yomg'ir ko'p yog'ib turganligi sababli bo'ladi.

16.Grunт suv sathi yozda, kuz boshida pasayib qoladi.

17.Grunт suvlari tog' jinslaridagi g'ovaklar orqali past tomonga asta-sekin siljiydi (oqadi).

18.Grunт suvlari jarlarda daryo vodiylarida, pastliklarda Yer yuzasiga chiqib, buлоqlarni hosil qiladi.

19.Yer osti suvlari miqdori chegaralangan.

20.Yer osti suvlarini tejab, isrof qilmasdan sarflashimiz zarur.

21.Dunyoning ayrim joylarida tarkibida turli tuzlar, gazlar va boshqa mineral moddalar erigan Yer osti suvlari mineral suvlар deyiladi.

22.Mineral suvlardan turli kasalliklarni davolash uchun foydalанилди.

23.Mineral suvlар, buлоqlar bor joylarga sanatoriyalar va kurortlar quriladi.

24.O'zbekistondagi «Toshkent», «Chimyon» suvlari shifobaxsh suvlар hisoblanadi.

Mantiqiy hisoblashlar:

* 1-, 2-, 3-, 19-, 20- tabiiy geografik hukmlardan iborat birinchi ma'noli qator «Yer osti suvlari» haqida;

* 4-, 5-, 6- tabiiy geografik hukmlardan iborat ikkinchi ma'noli qator «suvni o'tkazuvchi jinslar» haqida;

- * 7- tabiiy geografik hukmdan iborat uchinchil ma'noli qator «suvni o'tkazmaydigan jinslar» haqida;
- * 8-, 9- tabiiy geografik hukmlardan iborat to'rtinchi ma'noli qator «suvli qatlamlar» haqida;
- * 10-, 11-tabiiy geografik hukmlardan iborat beshinchil ma'noli qator «qatlamlar orasidagi suv» haqida;
- * 12-, 13-tabiiy geografik hukmlardan iborat oltinchi ma'noli qator «artezian quduqlar» haqida;
- * 14-, 15-, 16-, 17-, 18- tabiiy geografik hukmlardan iborat ettinchi ma'noli qator «grunt suvlari» haqida;
- * 21-, 22-, 23-, 24- tabiiy geografik hukmlardan iborat sakkizinchil ma'noli qator «mineral suvlar» haqida.

Xulosa:

«Yer osti suvlari» kichik mavzusi matni bo'yicha ajratilgan **24** ta tabiiy geografik hukm **8** ta ma'noli qatorni tashkil qiladi.

«Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi»da yangi axborotlar salmog'i butun kursga nisbatan o'rtacha 20 foizni tashkil qilsa, «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi», «O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi» kurslarida esa o'rtacha 50-55 foizni tashkil qildi [139;184;185].

4.Tabiiy geografik matnlarning mavhumligi. Tabiiy geografik matnlardagi mavhum mazmunni aniqlash ta'limda juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchilar mavhum so'zlar yoki tushunchalarni aniq so'zlar yoki tushunchalarga nisbatan esda yomon saqlaydilar. Matnlardagi aniq so'zlar yoki tushunchalar aniq tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar yoki jarayonlarni aks ettirib, o'quvchilarda ularning aniq manzarasini, tasvirini hosil qiladi. Matndagi mavhum so'zlar yoki tushunchalar esa fikrlar orqali tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar yoki jarayonlarning belgi va xususiyatlarini ifodalab, o'quvchilarda ularning aniq manzarasini hosil qilmaydi.

O'tkazilgan tahlillardan ma'lum bo'ldiki, maktab tabiiy geografiya kurslaridagi matnlarning mavhumlik mazmuni turlicha. Masalan, Tabiiy geografiya Boshlang'ich kursida matnlarning mavhumlik salmog'i butun kurs mazmuniga nisbatan o'rtacha 50 foizni tashkil qilsa, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida o'rtacha 20, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyası kurslarida esa o'rtacha 30-35 foizni tashkil qildi.

Tabiiy geografik matnlarni o'qish jarayonida ularni tushunish matn murakkabligi bilan bog'liq jarayondir. Bunda matnni o'qish texnikasi va matnni tushunish muhim o'rinni tutadi. Matnni tushunish matnlarni o'qish jarayonida etakchi hisoblanadi, axborotlarni idrok qilish vaqtida esa o'qish tezligini belgilaydi.

Tajribalardan ma'lum bo'ldiki, o'quvchi tabiiy geografik matnni qanchalik sekin o'qisa, shunchalik o'zlashtirmovchilik yuz beradi. Demak, o'quvchilarning tabiiy geografik matnlarni o'qish tezligi ularning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishidagi etakchi omil hisoblanadi. shuningdek, tabiiy geografik matnlarni o'qish jarayonida muayyan axborotlarni kayta ishlash va uni tushunish ham muhimdir.

Matnni tushunishning asosida bir butun matnni bo'laklar (qismlar)ga bo'lish va matn bo'laklari (qismlari)ni bir butuncha birlashtirish yotadi. Har qanday hajmdagi tabiiy geografik matn (har bitta satrboshi, paragraf - kichik mavzu, mavzu - bo'lim yoki butun darslik) to'laligicha tushunilishi lozim. Vaholanki, tabiiy geografik matnni o'qish - bu darslik, geografik xarita, globus va shu kabilardagi yozuv belgilari bilan tovushlar o'rtasidagi oddiy bog'lanish emas, balki juda murakkab psixik jarayon bo'lib, unda tabiiy geografik tafakkur qismlari ishtiroy etadi.

Tabiiy geografik matnlarni to'laligicha tushunish uchun matndagi so'zlar (belgilar, shartli belgilar, harakatlar va h.k.) ma'nosini tushunish, iboralarni tahlil qilish, eng muhimi, so'zlar bilan iboralar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash talab etiladi. shu nuqtai nazardan ishimizda tabiiy geografik matnlarni tushunishning quyidagi shartli bosqichlari farqlandi (25-rasm).


2.2-rasm tahlilidan ma'lumki, tabiiy geografik matnlarni tushunish jarayoni oddiydan murakkabga tomon harakatni o'z ichiga oladi. Jumladan:

- I bosqichda matndagi alohida so'zlar, terminlar, atamalar va so'z birikmalarining ma'nosi tahlil qilinadi. Bunda so'z yoki so'z birikmalarining tabiiy geografik tahlili bilan grammatic tahlili uyg'unlashadi. Masalan, «Gidrosfera» yunoncha so'z bo'lib «hidro» - suv, «sphaira»-shar, degan ma'noni bildiradi. Mazmun jihatidan gidrosfera Yerning suv qobig'i, ya'ni geografik qobiqning bir qismi hisoblanadi [162.50].

- II bosqichda matndagi gaplarning ma'nosini tushunish amalga oshiriladi. Tabiiy geografik matndagi gaplarni tushunish so'zlar ma'nosini anglashdan boshlanadi. So'zlar va terminlar ma'nosini bilish va ular o'rtaqidagi aloqadorlikni o'rnatish oqibatida gaplar ma'nosi paydo bo'ladi. Ma'noli gaplar ma'lum tizimga tushib, muayyan matn mazmunini tashkil qiladi. Grammatik jihatdan to'g'ri bo'lgan, ammo ma'noga ega bo'lmagan gaplar tabiiy geografik matnning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini qiyinlashtiradi;

- III bosqichda gapdagi tayanch so'zlar ajratib ko'rsatiladi. Gapdagi tayanch so'zlar – bu tabiiy geografiyaga aloqador bo'lgan ma'noli so'zlardir. Agar o'quvchi so'zlar ma'nosini bilsagina, undagi tayanch so'zlarni ajrata oladi. Ajratilgan tayanch so'zlar yordamida esa ixcham so'z birikmlari paydo bo'ladi va shu lar asosida o'quvchi qisqacha mulohaza yuritib, tabiiy geografik hukm chiqara oladi. Demak, har bir satr boshi so'zlar, tayanch so'zlar va so'z birikmalaridan iborat bo'lib, ularning o'zaro aloqadorligida muayyan ma'no vujudga keladi. Agar o'quvchi satr boshi mazmunidagi o'zaro bog'liqlikni topa olmasa, demak matnni tushu nmagan hisoblanadi;

- IV bosqich butun paragraf (kichik mavzu) mazmunini tushunishni o'z ichiga oladi va u paragraf tarkibining murakkabligiga bog'liqdir. Bu bosqichdagi tushunish tegishli xulosalar chiqarish bilan yakunlanadi;



25-rasm. Tabiiy geografik matnlarni tushunish bosqichlari

- V bosqichda butun mavzu hajmidagi mazmunni tushunish amalga oshadi.

Bu bosqichda oldin o'rganilgan kichik mavzular (paragraflar) dagi nazariy mazmun aniqlanadi yoki o'rganilgan kichik mavzu (paragraf)lar o'rtaсидаги aloqadorlik asosida umumlashgan xulosalar chiqaraladi;

- VI bosqichda muayyan kurs hajmi doirasidagi mazmunun tushuniladi va o'rganilgan mavzulardagi asosiy tushunchalarni (g'oyalarni) ajratish va ular o'rtaсидаги aloqadorlikni o'rmatishni nazarda tutadi;

- VII bosqichda fanlararo aloqadorlik (tabiatshu noslik, botanika, zoologiya, kimyo, fizika va tegishli ijtimoiy-gumanitar fanlar) negizida tabiatdagi, geografik qobiqdagi umumiyy bog'lanishlar mazmunini makonda tushunish amalga oshadi.

Demak, tabiiy geografik matnni tushunish – bu muayyan matn mazmunini tahlil etish va umumlashtirishning turli darajalari (bosqichlari) bo'lib, o'quvchining matndagi so'zlardan to uning g'oyasigacha bo'lgan mohiyatini anglash demakdir.

Tabiiy geografik matnlarning murakkabligi uni tushunishni ancha qiyinlashtiradi. Biroq darsliklarda shunday kichik mavzu - paragraflar borki, ularda axborotlar hajmi katta bo'lishiga qaramasdan, matn juda oddiy tuzilishga ega, ya'ni ma'noli qatorlar soni ko'p va matnning mavhumlik darajasi juda past. Demak, matn murakkabligi uning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u o'quvchiga bog'liq emas. Ayni paytda matnning qiyinligi o'quvchining tayyorgarlik darajasiga ham bog'liqdir.

Geografik matnlarning murakkabligi uning asosida tuzilgan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni hamda javobsiz qolgan savollar salmog'i bilan aniqlanadi.

Geografik matnlar bilan ishlay oladigan o'quvchilar aniqlandi. Bunda o'quvchilarning quyidagi vazifalarni bajara olishlari nazarda tutildi:

- matn bo'yicha savollarga javob bYera olishi;
- matn bo'yicha reja tuza olishi;
- matndagi asosiy tushunchalarni ajrata olishi.

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida jami 584 nafar o'quvchi ishtirok qilib, ularning 320 nafari V sinf, 125 nafari VI sinf, 139 nafari VII sinf o'quvchilari edi.

Qo'yilgan vazifani V sinf o'quvchilarining 19,7 foizi, VI sinf o'quvchilarining 21,8 foizi, VII sinf o'quvchilarining 20,9 % muvaffaqiyatli uddaladilar. Aynan shu o'quvchilar bilan tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichi o'tkazildi.

Ikkinci bosqichda har bir sinf bo'yicha tabiiy geografiya darsliklaridan tegishli matnlar tanlab olindi. Bu matnlar mazmunida xilma-xil murakkablik holatlari o'z aksini topdi. Tanlab olingan o'quvchilarining matnlar bilan ishlashi laboratoriya sharoitida, ya'ni maxsus amalga oshirildi. O'quvchilarining matnlar bilan ishlashiga quyidagi shartlar qo'yildi:

- berilgan matnni o'qing;
- qo'yilgan savollarga javob bering;
- topshiriqlarni bajarishda vaqt chegaralanadi.

Matnga oid savollar o'quvchilarining tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni, ularga oid dalillar va o'zaro aloqalarni hamda umumlashtirishlarni bilishi nuqtai-nazardan tuzildi. Matnda mavjud bo'imagan masalalar bo'yicha savollar ko'zda tutilmadi.

Tabiiy geografik matnlar bilan ishlashda o'qituvchilar tomonidan e'tirof qilgan asosiy qiyinchiliklarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tabiiy geografik matnlarning murakkablik mezonlari o'quvchilarda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirdi. Tabiiy geografik matnlarni o'zlashtirishdagi eng katta qiyinchilik matn tarkibi va uning mavhumligida namoyon bo'ldi. Jumladan, tabiiy geografik matnlar mazmunining matn tarkibi bo'yicha murakkablik mezoni ko'rsatkichi V sinfda 78,7 foizni, VI sinfda 71,9 foizni, VII sinfda 72,7 foizni, matn mavhumligi bo'yicha murakkablik mezoni ko'rsatkichi V sinfda 73,6 foizni, VI sinfda 72,7 foizni, VII sinfda 73,5 foizni tashkil qildi.

**Tabiiy geografik matolar mazmunining murakkablik mezonlari
bo'yicha ko'rsatkichlari**

Murakkablik mezonlari	Darslik paragraflari (t,r)	Sinflar	Savollar soni (ta hisobida)	To'g'ri javoblar (% hisobida)	Noto'g'ri javoblar (% hisobida)	Javobiz qolgan savollar (% hisobida)	Murakkablik (% hisobida)
1.Matndagi axborotlarning xilma xilligi	20	V	8	40,1	41,9	18	59,9
	20	VI	10	30,4	49,6	20	69,6
	15	VII	10	30,8	44,0	25,2	69,2
	3	VII	15	31,5	43,8	24,7	68,5
2.Matuning mavhumligi	25	V	10	26,4	23,4	50,2	73,6
	59	VI	15	28,3	41,7	34,0	72,7
	9	VII	16	23,4	28,4	48,2	76,6
	4	VII	17	29,6	28,2	42,2	70,4
3.Matuning tarkibi	15	V	9	21,3	52,5	26,2	78,7
	5	VI	12	28,1	35,0	36,9	71,9
	22	VII	15	30,2	39,8	30,0	69,8
	4	VII	14	24,4	38,6	37,0	75,6
4.Matuning hajmi va yangiligi	26	V	10	44,2	48,2	7,6	55,8
	45	VI	12	46,1	46,7	7,2	53,9
	26	VII	16	44,2	42,3	13,5	55,8
	8	VII	14	43,0	47,4	9,6	57,0

O'quvchilarning tabiiy geografik matnlar bilan mustaqil ishlash jarayonida nafaqat ularning mazmunini o'zlashtirish, balki mazmundagi eng muhim va asosiy jihatlarni ajratib ko'rsata olish ko'nikmasiga ega bo'lishi ham katta ahamiyat kasb etadi. shunga ko'ra, ishimizda tabiiy geografik matnlar mazmuni asosan beshta darajada ochib berildi.

Tabiiy geografik matnlar mazmunining asosan besh darajasi:

I daraja - matn mazmuni tavsiflanadi, ya'ni matndagi tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar, jarayonlar yoki dalillar, ularga oid belgililar, belgilarning muhim va muhim bo'limgan jihatlari ta'kidlanib, xatlovdan o'tkaziladi. Tavsiflash ularning kelib chiqishiga ko'ra tasnifi asosida amalga oshiriladi. shu nuqtai nazardan, o'rganilayotgan ob'ektlar yoki hududlarning belgilari va xossalaring tavsifi, tabiatni bilish, o'rganish bilan bog'langan (sayohatlar, tadqiqotlar va h.k.) tavsifi, xaritalarning tavsifi va boshqa turlar farqlanadi.

II daraja - matn mazmuni tushuniladi, ya'ni matndagi «demak», «agar», «shunday qilib», «shundan kelib chiqib», «buning oqibatida» kabi so'zlar orqali gaplar bir-biri bilan mantiqan uzviy bog'lanib, har qanday sabab negizida albatta oqibat bo'lishi aniqlanadi va shu asosda matndagi tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar yoki jarayonlarning mohiyati tushuniladi.

III daraja - matnlar mazmunidagi umumiy (asosiy, birinchi, ikkinchi darajali) tushunchalar ularning o'zaro aloqadorligida ochib beriladi.

IV daraja - matn mazmuni muayyan tabiiy geografik voqelikni isbotlovchi dalillar miqyosida yoritiladi.

V daraja - matnlar mazmuni xulosa tariqasida ochib beriladi.

Tabiiy geografik matnlar nafaqat ilmiy, balki tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Matnlar o'quvchida atrof-muhitdan, tabiiy va madaniy qadriyatlardan zavqlanish, g'ururlanish hissini hosil qilishi kerak [114; 27], aks holda bunday matnlar sayoz hisoblanadi. shu bois, tajriba-sinov jarayonida tabiiy geografik matnlar mazmunida tarbiyaviy jihatlari bo'lgan yoki kam bo'lgan holatlarda, o'qituvchining o'zi bunday bo'shlinqni to'ldirdi yoki qo'shimcha adabiyotlar o'quvchiga tavsiya qildi.

Tajriba-sinov ishlaringning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni darsliklar, qo'llanmalar, xaritalar va boshqa ta'lim vositalari matnlaridan tegishli bilimlarni ola bilish usullarini egallashga o'rgatishdan iborat edi. Mazkur usullar yordamida o'quvchilarda ob'ektiv tabiiy geografik voqelikni ilmiy asosda bilish usullari shakllantirildi.

Tajriba maktablarining geografiya o'qituvchilari tabiiy geografik matnlarning turlari va mazmunini bilgan holda o'quvchilarning Ushbu matnlarni o'zlashtirish imkoniyatini, ya'ni mashg'ulotlar jarayonida yoki uyda matnlarning qancha hajmini o'zlashtirishi zarurligini, shuningdek mashg'ulotning maqsadidan kelib chiqqan holda matnlar bilan ishlashning tegishli usullari tarkibini belgiladi va mazkur usullar yordamida matnlar mazmuni o'quvchilar tomonidan mustaqil o'zlashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarning tabiiy geografik matnlar bilan ishlashi har qanday faoliyat kabi tegishli u yoki bu usullar yordamida amalga oshirildi.

«Usul» tushunchasi pedagog olimlar tomonidan turlicha va har xil nomlar bilan talqin etilgan [78]. YAqin yillargacha geografiya ta'limi metodikasida «o'quv ishlari usullari» deyilganda «ko'nikma va malakalarini shakllantirish » tushunilib kelingan. Keyingi chorak asrda bu usullar «o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish» jarayoni deb talqin etila boshlandi. Biz tadqiqotimizda tabiiy geografiya ta'limidagi «o'quv ishlari usullari» deyilganda har bir mashg'ulotning maqsadi va vazifalarini bajarishdagi turli-tuman amaliy hattiharakatlar tizimini nazarda tutdik [74.11,12].

Demak, ko'nikma va malakalar haqidagi fikrlarni yana soddalashtirib, o'quv ishlaring u yoki bu usulini ongli ravishda egallashni «ko'nikma», agar bu jarayon avtomatlashgan shaklga o'tsa «malaka» deb ham ta'riflash mumkin [111; 115; 147].

Tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullarining asosiy belgisi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali o'quvchilarni darslar va darsdan tashqari ishlar jarayonida mustaqil faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashdan iboratdir [137]. O'quvchi bunday faoliyat natijasida turli xil tabiiy geografik matnlar mazmunini, ya'ni bilimlar majmuini o'zlashtiradi.

O'quvchilar tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullari orqali matnlarni idrok qiladi va undagi tabiiy geografik axborotlarni qayta ishlaydi. Bu usullar o'quvchilarda tabiiy geografik bilimlar haqidagi bilimlarni egallashga yo'naltirgan bo'lishi zarur [45.8,9]. O'quvchilarda bu jarayon maxsus topshiriqlarni bajarishda tabiiy geografik axborotlarni idrok qilish bilan qo'shib olib boriladi.

Tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullari ichida matn mazmunini tanlash, saralash etakchi o'rinda turadi. Matnni saralash jarayonida undagi tavsiflovchi, tushu ntiruvchi mazmun aniqlanib, tushunchalar va ular o'rtasidagi aloqadorlik o'rnatiladi. O'quvchilarda ilmiy bilimlarni shakllantirish jarayonida

matnlardagi har bir so'z, termin va joy nomlari (atamalar)ning ma'nosi ham tushu ntirilib boriladi va qaysi mazmunga xosligi baholanadi [160]. shu nuqtai nazardan ishimizda tabiiy geografik matnlardagi barcha so'z va terminlar 3 ta guruhga ajratildi:

1-guruhga matndagi umumis'temoldagi so'zlar mansub bo'lib, ularning ahamiyati matnda ham, lug'atlarda ham aks etmagan. Buning asosiy sababi shundaki, ularning mazmuni o'quvchilarga kundalik matbuot va quyi sinflardan ma'lum. Masalan, sayyoq, shahar qurilishi, qishloq, yo'l va h.k. Bu so'zlar yordamida matn mazmunan to'liq ochib beriladi.

2-guruhga matndagi maxsus terminlar mansub bo'lib, ularning izohi matnlar va lug'atlarda yoritilgan. Masalan, gorst, graben, surilma, passat, musson, ob-havo, iqlim, vulqon va h.k. terminlar.

3-guruhga matndagi umumilmay terminlar mansub bo'lib, ular matnda uchraydi, ammo hamma vaqt ham uning ahamiyati matn yoki terminlar lug'atida aks etav Yermaydi. Masalan, tushuncha, metodologiya, prinsip, jarayon, qonuniyat, sabab, oqibat va h.k. terminlar.

O'quvchilar tabiiy geografik matndagi maxsus va umumilmay terminlar mazmunini bilmasdan matnni o'qish jarayonida uni tahlil qila olmaydi va unda uchraydigan etakchi so'zlarni ajrata bilmaydi [122]. Buning oqibatida o'quvchilarda matnni o'rGANISHGA bo'lgan intilish susayadi va bilimlar tizimini shakllantirish ni ta'minlaydigan shart - sharoitlar ham kamayadi.

Maktablar amaliyotida tabiiy geografik matnlarning ayrim qismlari – har bir so'zboshi mazmunini tushunishda o'rGANILAYOTGAN ob'ekt belgilari asosida har xil tasnifiy chizmalar va jadvallar tuzish (masalan, relefni, tabiiy resurslarni, iqlimni, gidrosferani tasniflash va h.k.), jarayonlarga tavsif berish rejasini tuzish (masalan, iqlimning vujudga kelish, suv toshqini, ko'chki jarayonlari va h.k.), xaritalar bilan ishlash kabi usullar nihoyatda keng qo'llaniladi [27; 32; 40; 55; 56; 57; 72; 74; 88; 90; 91; 129; 144]. shu tufayli ishimizda turli mazmundagi tabiiy geografik

matnlarni har xil usullar yordamida o'rganishdan keyin albatta o'rganilgan matn yoki uning muayyan qismi umumlashtirilib borildi.

Tabiiy geografik matnlar mazmunida murakkablik omillari ustun bo'lsa, maxsus usullardan foydalanish talab qilinadi. Masalan, agar matn mazmunida axborotlar hajmi katta bo'lsa asosiy bilimlarni ajrata olish usulini ko'proq qo'llash kerak bo'ladi. Tabiiy geografik matnlarni tushunish va uning murakkablik darajasini kamaytirish uchun tarkibiy chizmalarни tuzish usulidan ham keng foydalanildi.

Tabiiy geografik matnlar mazmunini tushunishda chizmali yozuvlardan ham foydalanish mumkin. shuningdek, darslarda tayanch matnlardan unumli foydalanish ham o'z samarasini beradi. Matn mazmuniga oid chizmalar va tayanch matnlarni tuzish geografiya o'qituvchisidan chuqur bilim, yuqori ilmiy saviyani talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, matn mazmunini tushunishda bunday chizmalar va tayanch matnlardan foydalanish nihoyatda samaralidir.

Tabiiy geografik matnlar mazmuni asosida tuzilgan chizmalar avvalo ko'rsatmalilikni ta'minlaydi va matnning mavhumligini kamaytiradi. Eng muhimi, chizmalarni qo'llash yoki tuzish o'rganilayotgan tabiiy geografik ob'ekt yoki hodisaning modelini o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirish imkoniyatini yaratadi. Chizmalar tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarning ichki mantiqiy holatini ko'rgazmali qilib olib beradi. Chizmalar va tayanch matnlar matndagi asosiy, etakchi bilimlarni ajrata olish imkoniyatlarini ham vujudga keltiradi.

Muayyan tabiiy geografik matnning mazmuni va mohiyatini o'zida mujassamlagan hamda uning mantiqiy tarkibini qamrab olgan chizmalar sabab-oqibat aloqalarini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Eng muhimi, chizmalar tabiiy geografik qonun va qonuniyatlar mohiyatini, matnlar ma'nosini to'laligicha tushunib olishga yordam beradi va o'quvchilar bilimini ma'lum tizimga solishda o'ziga xos o'rinn tutadi. shuningdek, chizmalar o'quvchilarga mavzular, kichik mavzu-paragraflar mazmunini to'liq tushunish, egallangan bilimlarni ma'lum

tizimga solish hamda ularni qiyoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

shunday qilib, biz A.G.Bondarev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash usullari tizimini quyidagicha belgiladik [46]:

1. Matndagi tavsifiy mazmunni ajratib ko'rsatishning birinchi usuli.

Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matnni o'qish jarayonida undagi «va», «yoki », «balki» kabi bog'lovchilarni o'z ichiga olgan oddiy gaplar ajratiladi;
- ular matn xoshiyasida nozik qalam bilan vYertikal to'g'ri chiziq chizib belgilanadi. Bu tavsifiy mazmun bo'ladi.

2. Matndagi tavsifiy mazmunni ajratib ko'rsatishning ikkinchi usuli.

Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matnni o'qish jarayonida undagi «shuning uchun», «shunga ko'ra», «shu sababli», «shu tufayli», «Chunki», «negaki», «shuning uChunki», «sababi shundaki», «shunday qilib», «agar», «oqibatda», «natijada» kabi bog'lamalarni o'z ichiga olgan gaplar ajratiladi;

- ular matn xoshiyasida nozik qalam bilan vYertikal to'lqinsimon chiziq chizib belgilanadi. Bu tavsifiy mazmun bo'lib, muhim fikrlarni ifoda laydi.

3. Matndagi tavsifiy mazmunning xilma-xil turlarini ajratib ko'rsatish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- ajratib ko'rsatilgan tavsifiy mazmunga «Matnda nima haqida gap ketyapti?» savoli qo'yiladi;
- agar matnda u yoki bu tabiiy geografik ob'ekt yoki hududning tarkibiy qismlari, tuzilishi tasvirlansa - bu tarkibiy tavsif bo'ladi;
- agar matnda tabiiy geografik hodisalar, voqealar almashinuvni, bosqichlari yoki davrlari tasvirlansa - bu jarayonning tavsifi bo'ladi;
- agar matnda tabiiy geografik ob'ekt yoki hududning tashqi ko'tinishi tasvirlansa - bu belgilarning tavsifi bo'ladi;

- agar matnda u yoki bu tabiiy geografik amaliy ishni bajarishga oid hattiharakat usullari tasvirlansa - bu yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi tavsif bo'ladi;

- agar matnda zamonaviy tabiiy geografik tadqiqot metodlari tasvirlansa - bu metodologik tavsif bo'ladi;

- agar matnda turli davrlarda amalga oshirilgan tabiiy geografik sayohatlar, ekspeditsiyalar tasvirlansa - bu tabiatni bilish tavsifi bo'ladi;

- agar matnda tabiiy geografik voqealar, hodisalar, tasodiflar tasvirlansa - bu hodisalar (dalillar) tavsifi bo'ladi;

- agar matnda u yoki bu tabiiy geografik ob'ektning joylashu vi tasvirlansa - bu joylashishning tavsifi bo'ladi;

- agar matnda tabiiy geografik xaritaning alohida qismlari, ayrim ob'ektlarni aks ettirish usullari tasvirlangan bo'lsa - bu xaritaga oid tavsif bo'ldi.

4. Matndagi izohlovchi (tushuntirish) mazmunning xilma-xil turlarini ajratib ko'rsatish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- ajratib ko'rsatilgan izohlovchi (tushu ntiruvchi) mazmunga «Matnda nima izohlanmoqda (tushu ntirilmoqda)?» savoli qo'yiladi;

- agar matnda o'rganilayotgan tabiiy geografik ob'ektning tuzilishi, qismlari, o'Ichamlari izohlansa - bu tarkibni izohlash bo'ladi;

- agar matnda tabiiy geografik ob'ekt yoki hududning paydo bo'lishi tushu ntirilsa, bu genetik izohlash bo'ladi;

- agar matnda tabiiy geografik ob'ekt, hodisa yoki jarayonning o'zgarish sabablari tushu ntirilsa - bu sababiy izohlash bo'ladi.

5. Matndagi xulosalarini ajratib ko'rsatish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matnni o'qish jarayonida undagi «shunday qilib», «shunday ekan», «binobarin», «xulosa qilib», «aytilganiarni umumlashtirib», «pirovardida», «oqibatda», «oxirida», «natijada», «shu tufayli» kabi so'zlarni o'z ichiga olgan gaplar topiladi;

- bunday so'zli gaplarda matndagi xulosalar ifodalananadi.

6. Tabiiy geografik terminlar bilan ishlash usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matnni o'qish jarayonida undagi notanish, tushu narsiz bo'lgan so'zlar (terminlar) topiladi va ajratib ko'rsatiladi;
- mazkur so'zlar (terminlar)ning ma'nosini, ahamiyatini tushunish uchun darslikdagi terminlar lug'atiga murojaat qilinadi va ularning ta'rifi topiladi;
- mazkur so'zlar (terminlar)ga berilgan ta'rif asosida ularning tarkibiy qismlari ajratilib, har bir so'z (termin)ning ahamiyati aniqlanadi;
- har bir so'z (termin)ga berilgan ta'rif o'z so'zlari bilan izohlanadi;
- agar darslik lug'atida mazkur so'z (termin)ning ta'rfi bo'lmasa, boshqa lug'atlarga murojaat qilinadi, ularda ham bo'lmasa o'qituvchidan so'raladi.

7. Matn qismining rejasini tuzish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matnda ajratib ko'rsatilgan mazmunni o'qish jarayonida «Matnda nima haqida gap ketyapti?» (muhim, etakchi so'zlarni toping) savoliga javob beriladi;
- matndagi muhim, etakchi so'zlar topilgach, «Matnda ular (muhim, etakchi so'zlar) haqida nima deyilgan?» savoliga javob beriladi;
- zarur hollarda tuzilgan rejaga sarlavha, nom qo'yiladi.

8. O'r ganilayotgan tabiiy geografik ob'ekt, hodisa yoki jarayonning tarkibiy chizmasini tuzish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matndan tuzilishini tushunish kerak bo'lgan ob'ektning nomi yozib olinadi;
- matndan mazkur ob'ektning tarkibiy qismlari ifodalangan tavsif topiladi va ob'ekt nomining tagiga yoziladi;
- ob'ektning nomi uning tarkibiy qismlarini ifodalovchi nomlar bilan strelkalar orqali tutashtiriladi.

9. O'r ganilayotgan tabiiy geografik ob'ekt, hodisa yoki jarayonning tasnifi chizmalarini tuzish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matndan tasniflanadigan ob'ektlarning umumiy nomi yozib olinadi va ularning umumiy belgilari topiladi, mazkur belgilar asosida ular sinflarga guruhlanadi;
- umumiy belgilarga ega bo'lgan ob'ektlar umumiy nomning tagiga yozib qo'yiladi;
- ob'ektning umumiy nomi uning tarkibiga kiruvchi kichik, alohida ob'ektlar nomi bilan strelkalar orqali birlashtiriladi.

10. Matndagi tabiiy geografik sabab—oqibat bog'lanishlarini topish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matnni o'qish jarayonida undan jarayonning tavsifi (va agar bor bo'lsa, uni ifodalovchi tushuncha) topiladi;
 - uning matnda tavsiflangan ob'ektlar va boshqa jarayonlar, hodisalarga qandaydir ta'sir ko'rsatishligi aniqlanadi (sabablar ta'siri –harakatlar topiladi);
 - matnda ajratib ko'rsatilgan jarayon qandaydir bir o'zgarishning sababi bo'lishi mumkinligi aniqlanadi;
 - agar u sababchi bo'limasa, unda boshqa jarayonning tavsifi topilishi kerak;
 - agar u sababchi bo'lsa, unda matndagi o'zgarishlar tavsifi, ya'ni ajratib ko'rsatilgan jarayonning ta'sirida tabiiy geografik ob'ektning qanday holatga tushishi topiladi;
 - matndagi sabablar ta'siri-harakatlarning natijalari, ya'ni oqibat (va agar bor bo'lsa, uni ifodalovchi tushuncha) tavsifi topiladi;
 - ajratilgan aloqadorlik chizmasi tuziladi. Masalan, Yer po'sti → ichki kuchlar (pasayish, ko'tarilish, vulkanlar, zilzila) → tog'lar → tashqi kuchlar (daryolar, shamollar, to'lqinlar, muzliklar, o'simliklar va hayvonot faoliyati) → tog'larning emirilishi (nurash) → tekisliklar va h.k.
- 11. Ajratilgan tabiiy geografik terminlarning muayyan guruhga mansubligini aniqlash usuli.** Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- ajratilgan tabiiy geografik terminning ahamiyati aniqlanadi va unga «Mazkur termin (so‘z, so‘z birikmasi) nimani tavsiflash yoki tushu ntirish uchun xizmat qiladi?» savoli qo‘yiladi;

- agar termin biron tabiiy geografik ob’ekt, hudud, hodisa yoki jarayonni tushu ntirish uchun xizmat qiladigan bo‘lsa, bu termin maxsus tabiiy geografik terminlar guruhiga kiritiladi;

- agar termin nafaqat tabiiy geografik, balki umumiy ob’ekt va hodisalarini tushu ntirishga xizmat qilsa, bu termin umumilmiy terminlar guruhiga kiritiladi;

- matndagi boshqa barcha terminlar umumiste’moldagi terminlar guruhiga kiritiladi.

12. Tabiiy geografik matn bo‘yicha savollarga javob berish usuli.

Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- savol o‘qiladi;

- savolga javob berish uchun nima qilish zarurligi aniqlanadi: javob topish uchun qaysi mazmun kerakligi, bu mazmun matnning qayerida joylashganligi eslanadi va h.k.

-matndan tegishli javobni topish va uni o‘qish.

13. Tabiiy geografik matndagi tavsifiy mazmunning qismlarini umumlashtirish usuli (tabiiy geografik hodisa tavsifi misolida). Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- matn o‘qiladi;

-matnda qanday hodisa tasvirlanganligi aniqlanadi, uni ifodalovchi tushuncha topiladi;

- matndan tegishli hodisaning qisqa, aniq va lo‘nda tasvirlangan mazmuni topiladi;

- aniqlanayotgan hodisani birmuncha to‘liq tavsiflaydigan miqdoriy birliklar ajratib olinadi;

-mazkur hodisaning paydo bo‘lishiga qaysi sabablar imkon bergenligi aniqlanadi;

- (o'quvchining o'z so'zlari bilan) xulosalar shakllantiriladi.

14. Tabiiy geografik matndagi izohlovchi (tushuntirish) mazmun qismlarini umumlashtirish usuli. Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

-matn o'qiladi;

-matndagi izohlash (tushu ntirish) ob'ekti nima ekanligi (tabiiy geografik ob'ekt, jarayon, tuzilish yoki hodisa), mazkur ob'ektni ifodalovchi tushuncha va uning ahamiyati aniqlanadi;

-ajratilgan mazmunda nimalar: o'zgarish sababi, bog'liqlik, aloqadorlik, vujudga kelish sababi va h.k. izohlanganli (tushu ntirilganligi) aniqlanadi;

-mazkur izohlashni (tushu ntirish)ni birmuncha aniq va qisqa tavsiflovchi dalillar topiladi (aniqlanadi);

-o'quvchining o'z so'zlari bilan izohlash (tushu ntirish)ning asosiy jihatlari bayon qilinadi.

15. Tabiiy geografik matndagi asosiy, etakchi mazmunni ajratish usuli.

Mazkur usul texnologiyasi quyidagicha:

- o'qituvchi tomonidan tabiiy geografik matndagi asosiy mazmunni o'rGANISHNING asosiy vazifalari xabardor qilinadi;

-matndan mazkur mazmun topiladi va u o'qib chiqiladi;

-tegishli mazmun turiga muvofiq uni tushunish va mazmundagi bosh fikri ajratib ko'rsatishga yo'naltirilgan usul qo'llaniladi;

-matndan asosiy mazmunni isbotlovchi dalillar topiladi va undagi bosh, etakchi fikr ajratiladi;

-matndan asosiy mazmunni ko'rsatmali tasvirlovchi mazmun topiladi va undan asosiy fikr ajratiladi;

-asosiy mazmunning matni (uni mustahkam esda saqlash kerak), dalil-isbotlari (ularni matnga yaqin bilish kerak) va ko'rsatmali tavsifi (ularni o'qib chiqish kerak) ifodalangan mazmunlar oddiy qalam bilan matn hoshiyasiga chizib belgilanadi.

16. Matnning tarkibiy chizmasini tuzish usuli.

- matndagi asosiy mazmun, dalil-isbotlar va ko'rsatmali tavsif ajratib olinadi;
- ajratilgan mazmunni umumlashtirish;
- xulosalarni shakllantirish ;
- ularni daftarga alohida yozish va ma'nosiga ko'ra strelkalar bilan birlashtirish;
- asosiy mazmun, dalil-isbotlar va ko'rsatmali tavsifni umumlashtirish natijasida olingan xulosalarni tuzilgan chizmada belgilash;
- kichik mavzu-paragraf mazmunini qisqacha shakllantirish .

Demak, tabiiy geografik matnlar bilan ishlash uning mazmunini tushunishga yo'naltirilgan murakkab o'zlashtirish va axborotlarni qayta ishlash jarayonidir.

Tabiiy geografik matnlar bilan ishlashning yuqorida qayd qilingan usullari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, matnni tushunishga xizmat qiladigan yagona tizimni tashkil qiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Geografik matnlar bilan ishlash usullari tizimining mohiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiiy geografik ko'nikma va malakalar hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ayting?
3. Tabiiy geografiya ta'limingining o'quv-uslubiy ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
4. Tabiiy geografik ob'ektlar, hodisalar va jarayonlarni tug'ri taqqoslash yo'llarini izohlang?
5. Tabiiy geografik matnlarning murakkabligini belgilovchi omillarga nimalar kiradi?

3-BO'LIM.

GEOGRAFIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

8-§. Geografiya darsliklari bilan ishlash usullari

Geografiya ta'limdi darsliklar asosiy bilim olish manbai bo'lib hisoblanadi, shuning uchun ular asosiy ta'lim vositalaridir. Geografiya darsliklari yuqori ilmiy darajaga ega bo'lishi, metodik apparati pedagogik jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Darslikning metodik tuzilishi o'quvchilarni o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lib, u juda ko'p ta'limiy vazifalarni bajaradi.

Darslik bilan ishlaganda o'quvchilar quyidagi ishlarni bajaradilar: matn bilan ishlash usullari; kartografik ma'lumotlar bilan ishlash usullari; statistik ma'lumotlar bilan ishlash usullari; chizmalar, rasmlar, fotografiyalar bilan ishlash usullari; matndagi jadvallar bilan ishlash usullari; matndan tashqaridagi materiallar bilan ishlash usullari; darslikdagi ilovalar bilan ishlash usullari va h. k. Geografiya o'qituvchisi darslikning mazmuni bilan yaxshi tanishgan va o'zlashtirgan taqdirdagina darslik bilan ishlash ishlarini yaxshi tashkil qilish mumkin.

Geografiya darsliklari ikkita yirik qismga bo'linadi: a) darslikning o'quv matni; b) matndan tashqaridagi materiallar. Mazkur qismlarning har biri yana o'z navbatda alohida - alohida qismlarga bo'linib ketadi.

Darslik asosini uning matni tashkil qiladi. Matnda o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlar beriladi. Darslik matnida ma'lum bir mavzuning bayoni berilgan va u quyidagi qismlardan iborat: nazariyalar, tushunchalar, tavsiflar va metodologiya. Nazariyalar ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, tamoyillar, dunyoqarash g'oyalari va yakuniy xulosalardan iborat. Darsliklarda ko'p hollarda tushunchalarni ifodalaydigan atamalar shriftlar bilan ajratiladi.

Izohli material geografik aloqa va bog'liqliklarni tavsiflaydi. Darslikning matnida tabiiy va iqtisodiy geografik majmualar orasidagi o'zaro aloqalari ochib beriladi, ishlab chiqarish tarmoqlarining joylanish tamoyillarini, u yoki bu tabiiy

voqeа va hodisalarning sababini tushuntirib beriladi. Ayrim hollarda matndagi tushunchalar muammoli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlanishiga va bilish faoliyatining faollahsu viga imkon beradi.

Geografik matnlarning asosiy xususiyatlaridan biri – bu voqeа va hodisalarni bayoniga bag'ishlangan. Masalan, sharoit tavsifi. iqtisodiy geografik tavsif, va h.k.

Darslik matnida o'quv metodlari bayonida juda ko'p mantiqiy aloqlar uchraydi. Masalan, shuning uchun, shunday qilib, demak, agar, shundan kelib chiqqan holda va h.k. Matn bayoni davomida ayrim hollarda topshiriqlar uchraydi. Masalan, tushuntirib bering. Nima uchun shimoliy yarim sharda daryolar o'ng qirg'og'ini emiradi? Aytinchi, daryolarning nishabi ular tezligiga qanday ta'sir qiladi? va h.k. shunday qilib, matnning tuzilishining o'zi o'quvchilarni o'quv materialini tushunishga yo'naltiradi, yangi bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Darslik matnni o'quvchilar tomonidan tushunishi va o'zlashtirilishi murakkab jarayon xisoblanadi. U quyidagi omillarga bog'liq: a) o'quvchilarda zarur bilimlarning bor yoki yo'qligi; b) matndagi tanish va notanish so'zlarining nisbatiga; v) matnni o'qish ko'nikma va malakasining shakllanish darajasiga.

Matndan tashqaridagi ma'lumotlar o'qitish va nazorat vazifalarini bajaradi. Matndan tashqaridagi ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- a) savol va topshiriqlar;
- b) mundarija, shriftlar, sanali belgilari;
- v) ko'rgazma ma'lumotlar.

Har bir darslikda juda ko'p savol va topshiriqlar tizimi berilgan. Ular tushunchalarni o'zlashtirishga, geografik voqeа va hodisalar orasidagi aloqlarni aniqlashga, ko'nikma va malakalarni qo'llashga yo'naltirilgan. Savol va topshiriqlar darslikning turli joylarida uchraydi: yangi mavzuning oldida; matn ichida; matn oxirida.

Darslik matnining oldida joylashgan savol va topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ilgari olingen bilimlarni faollashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Matn ichidagi savol va topshiriqlar o'quvchilarining fikrlash faoliyatini yangi o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltiradi. Matn so'ngida berilgan savol va topshiriqlar esa olingen bilim va ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltiradi. Masalan, daryolar mavzusini o'tganda. Daryo nima? O'zan nima? Daryo vodiysi nima? Daryoning to'yinishi nima? kabi savollarga olingen bilimlarni qo'llash mumkin. Yirik bo'limlar so'ngida berilgan savol va topshiriqlar umumlashgan xususiyatga ega, bilimlarni tartibga solish xususiyatga ega, o'quvchilarni umumi dunyoqarash, xulosalar qilishiga olib keladi. Matndagi ko'rgazmali materiallarga quyidagilar kiradi: matndagi xaritalar: muqovadagi xaritalar; diagrammalar, chizmalar va jadvallar; rasmlar va fotografiyalar; turli xil kesmalar; orografik chizmalar. Ko'rgazmalar faqat matn mazmunini boyitibgina qolmasdan, balki alohida bilim manbai bo'lib ham hisoblanadi.

Geografiya darsliklarining oxirida berilgan atama va tushunchalar lug'atida mazkur kursda berilgan tushunchalar tizimining ro'yxati beriladi.

Darslik bilan ishlash quyidagi qismlardan iborat: darslik bilan tanishish va u bilan ishlash qoidalarini o'rgatish; darslik matni bilan ishlash; darslikdagi kartalar bilan ishlash; matndagi chizmalar bilan ishlash; matndagi rasmlar bilan ishlash; matndagi jadvallar bilan ishlash; darslik ilovalari bilan ishlash; darslik bilan ishlashni tashkil qilish; har bir sinf darsligi bilan ishlashni o'ziga xos xususiyatlari.

O'quv yili boshida o'qituvchi o'quvchilarni darslik bilan tanishtiradi. Darslik bilan tanishtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: dastlab darslikning nomi, mualliflari, qaysi nashriyotda va qachon chop etilgani o'quvchilarga tushu ntiradi. shundan so'ng, darslikning tarkibiyy tuzilishi ochib beriladi (kirish, necha qism, necha bob, ilovaning bor yo'qligi). Masalan, 7-sinf darsligini oladigan bo'lsak, darslik O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi deb nomlanadi, darslik mualliflari P.G'ułomov, X.Vaxobov, P.Baratov, M.Mamatqulov ("O'qituvchi" nashriyoti, 2017), darslikdan foydalanish qoidalari tushuntiriladi

(toza tutish, darslik sahifalariga turli xil so'zlarni yozmaslik, buzmaslik, yirtmaslik va h.k.).

Darsliklarda ko'p rasmlar berilgan. Mazkur rasmlar tabiiy va iqtisodiy geografik obektlar tasviriga bag'ishlangan. shuning uchun, xaritadagi rasmlar bo'yicha ham o'quvchilarga mustaqil ishlar berish mumkin. Geografiya darslaridagi rasmlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: buyuk olimlar rasmlari; tabiiy Landshaftlar manzarasini tasvirlaydigan rasmlar (tug'lar, tekisliklar, vodiylar chuqurlar va h.k.); tabiiy geografik jarayonlarning oqibatlari va ko'rinishlarini tasvirlaydigan rasmlar (nurash, sho'rxok, vulqon, zilzila va h.k.); iqtisodiy geografik obektlarni tasvirlaydigan rasmlar (korxona, fabrika, suv omborlari, qishloq xo'jalik ekin maydonlari, yo'llar, kanallar va h.k.).

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Geografiya darsliklari bilan ishlash usullari deganda nimani tushunasiz?
2. Geografiya darsliklarining oxirida qanday ma'lumotlar beriladi?
3. Darslik matni oldida joylashgan savol va topshiriqlar nimaga yo'naltirilgan bo'ladi?
4. Geografik matnlarining asosiy xususiyatlardan biri izohli material - nimani tavsiflaydi?
5. Geografik darslik nechta yirik qismga bo'linadi?

9-§. Geografik kartalar bilan ishlash usullari

Maktab geografik xaritalarining boshqa kartalardan farqi ularni o'quvchilarni yosh i va rivojlanishiga moslab chiqarilishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun oddiyroq, tushunishi va o'qilishi oson bo'lgan xaritalar, yuqori sinflar uchun esa murakkabroq xaritalar nashr qilinadi.

Umumta'lim maktablarida qo'llaniladigan xaritalarni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin: devoriy xaritalar; darsliklar ichidagi xaritalar; atlaslar; kontur xaritalar.

Mazmuniga ko'ra, devoriy maktab xaritalari juda xilma xil bo'ladi: tabiiy; iqlimi; tuproq, o'simlik; zoogeografik; geologik; foydali qazilmalar; iqtisodiy, siyosiy, sanoat; qishloq xo'jaligi, transprot va h.k. Ular turlicha bo'lgani bilan umumiyl o'xshashlikka ham ega. Ularning barchasi sinfda foydalaniлади, o'quvchilarining uzoqdan ko'rishiغا moslashgan bo'ladi, ya'ni mashtabi katta bo'ladi. Mazkur xaritalar yordamida o'quvchilar amaliy va mustaqil ish bajarishda va ma'lum bir savollarga javob berishadl. shuning uchun, ular yaxshi ko'rinishga va katta aniqlikka ega bo'lgan o'lgan o'lgan bo'lishi lozim.

Atlaslar ma'lum bir mavzuda va yo'nalishlarda tuzilgan xaritalar jamlanmasi. Atlaslar tuzilishi va mazmuniga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: egallagan maydoniga ko'ra; yulduzlar atlasi; dunyo tabiiy geografik atlasi; dunyo iqtisodiy geografik atlasi; alohida Materik va okeanlar atlasi; alohida davlatlar atlasi va h.k.; mazmuniga ko'ra tabiiy geografik; iqtisodiy; temir yo'l; o'quv atlaslari va h. k. Har bir sinf uchun o'quv atlaslari mavjud. Masalan, 5-sinf atlasi, 6-sinf atlasi, 7-sinf atlasi.

CHiziqli (kontur) xaritalar bilan ishlash texnologiyasi. Ular geografiya ta'limida keng qo'llaniladi. Ular asosan o'quv va nazorat maqsadlarida ishlataladi. CHiziqli xaritalar o'quv maqsadlarida quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- chiziqli (kontur) xaritaga tabiiy geografik borliq nomlarini tushirish (daryo, ko'l, dengiz va h.k.). Bu esa geografik nomlarni o'quvchilar tomonidan yaxshi eslab qolinishi ga imkon beradi;
- tog'lar daryo xavzalari, izoterma lar, tabiat zonalari chegaralarni chiziqli xaritaga tushirish;
- davlatlarning chegaralarini kontur xaritaga tushirish;
- iqtisodiy rayonlarni kontur xaritaga tushirish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari chegaralarini kontur xaritaga tushirish.

Kontur xaritalar nazorat maqsadida ishlatalganda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- sinfdagi barcha o'quvchilarda bir xil kontur xarita bo'lmosi lozim;
- barcha o'quvchilar uchun bir xil shartli belgilar berilishi zarur;
- barcha o'kuvchilar kontur xaritalarida masshtab, legenda, o'quvchining ismi sharifi bir xil joyda ko'rsatilgan bo'lmosi lozim.

Geografik xaritalar bilan ishlashning eng ma'suliyatli qismi ularni "o'qish" va ular asosida tegishli xulosalar chiqarishdir.

Geografik xaritalarni o'qish quyidagi bosqichlardan iborat:

- xaritalarning daraja to'ri, mashtabi va shartli belgilarini o'qish;
- topografik xaritalarni o'qish asosida diktantlar yozish;
- relefni o'qish va uning tavsifini tuzish;
- geologik va texnologik tuzilishni o'rganish va xulosa chiqarish;
- foydali qazilmalarni o'rganish;
- iqlimni o'rganish va uning tavsifini tuzish;
- geografik sharoitni o'rganish;
- tuproqni va o'simliklar qoplamini o'rganish;
- hayvonot dunyosini o'rganish;
- tabiat majmualarini o'rganish;
- joyning umumiy tabiiy geografik tavsifini tuzish;
- tabiiy resurslarni o'rganish;
- aholi xaritasini o'qish;
- Yoqilg'i-energetika sanoatini o'rganish;
- sanoat xaritasini o'qish;
- qishloq xo'jalik xaritalarini o'qish;
- transport xaritalarini o'qish;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar xaritasini o'qish;
- kompleks iqtisodiy-geografik xaritalarni o'qish.

Geografik xaritalarni o'qishning eng muhim shartlaridan biri uning masshtabi va shartli belgilarini o'qiy bilishdir. Xaritalarni o'qishning dastlabki bosqichi shartli belgilarni o'qitishdir. O'quvchilar topografik xaritalarning (o'rta va mayda masshtabli) shartli belgilarni to'la o'rganib bo'lgandan so'ng, masshtab va daraja to'ridan foydalaniб yuqorida gi vazifalarni bajarishlari mumkin. Ular joy rejasini tuzish jarayonida ham shartli belgilar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

O'quvchilar daraja to'ri, masshtab va shartli belgilarni to'la o'zlashtirib olgandan so'ng kartadan foydalaniб, ma'lum bir yo'nalishni tavsifini tuzishi mumkin, ya'ni topografik diktant yozishlari mumkin. Topografik diktant quyidagicha bajariladi: o'kuvchilar o'qituvchi topshirig'i asosida ikki xil ishni bajarishi mumkin - berilgan yo'nalishni xarita asosida tavsifini tuzadi va berilgan yo'nalishni chizmasini daftarga chizadi.

Ma'lum bir yo'nalishni tavsifini xarita asosida tuzishda o'quvchilar kerakli yo'nalishlarni aniqlaydilar, mashtabdan foydalaniб nuqtalar orasidagi masofani o'lchaydilar, shartli belgilar bilan ko'rsatilgan geografik borliqni (ko'priq, yo'l, shahar, zavod, yaylov, ekinzor, o'rmon va h.k.) nomlarini aniqlaydi va joyning tavsifini tuzadilar (relefi, tuprog'i, o'simligi, suvlari). Avval o'quvchilar topografik xaritadan foydalaniб, o'quvchilarning qisqa savollariga javob beradi, masalan, o'rikzor qishloq markazining qaysi tomonida joylashgan?, mакtabga boriladigan yo'lda qanday o'simliklar uchraydi? Buning natijasida o'quvchilar yo'nalishning og'zaki tavsifini tuzish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Joy relefni o'rganish turli masshtabli xaritalarda olib borilishi mumkin. Topografik xaritalar yordamida relefni o'rganish gorizontlarni tahlili asosida olib boriladi. Gorizontlarning orasi keng va mutloq balandligi kam o'zgarsa – tekislik, gorizontlar orasi tor, ular qalin va zich joylashgan bo'lsa – tik yonbag'ir va h.k. Tabiiy geografik xaritalarda relef ranglarning tahlili asosida olib boriladi: zangori rang – tekislik, jigarrang – tog'lik. Relefni o'rganganda xaritada berilganligi ham tahlil qilinadi.

10-§. Globus bilan ishlash usullari

Globusda geografik xaritalarda uchraydigan xatoliklar bo'lmaydi. U teng mashtabli, tengburchakli va teng maydonli bo'lgani uchun unda tasvirlangan geografik borliq, voqealari va hodisalar to'g'ri va aniqligi bilan ajralib turadi. Globus yordamida o'quvchilar ongida jahondagi yirik hududlarning tasviri o'lchamlari va maydoni haqida to'la va aniq tasavvurlar shakllanadi. Faqat globusdagina daraja to'ri hech qanday xatoliksiz tasvirlanadi, parallellar va meridian lar orasidagi masofa joydagi masofaga mos keladi.

Tabiiy geografiya darslarida quyidagi mavzularni o'rganishda globusdan foydalanish mumkin: Yerning shakli va o'lchamlari, daraja to'ri, qutblari, ekvator, meridian lar, parallellar, geografik kengliklar va uzunlik; Yerning o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi va uning oqibatlari, eng muhim ekspeditsiyalar, sayyohatlar yo'nalishi.

Maktab o'quv globuslari 4 xil mashtabda yasaladi (1:30 000 000, 1:40 000 000, 1:50 000 000 va 1:83 000 000). Globusdan tabiiy geografiya kurslarida ko'proq foydalaniladi. Yerning shakli va o'lchamlarini tabiiy geografik globuslarda o'rganish mumkin. Bunda Yerning dumaloqligi va uning og'irligi oson tushuntiriladi. Yerning maydoni, aylanasining uzunligi globus mashtabidan foydalanib aniqlanadi. Masalan, globusning mashtabi 1:40 000 000 bo'lsa, globusdagi 1 sm oraliq Yer yuzasidagi 400 km ga teng ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi.

Shundan so'ng, globusning ekvator bo'yicha uzunligi santimetrlarda yoki santimetrlarga bo'lingan matoli metr bilan aniqlanadi. Santimetrdan o'changan globusning aylanasining uzunligi globus mashtabiga ko'paytiriladi. Masalan, globusning aylanasining uzunligi 100 sm bo'lsa unda globus aylanasining (ekvatorning) uzunligi $100 \text{ sm} \times 400 = 40 000 \text{ km}$. Hududi shu asnoda, sinfini yarmi ekvatoridan shimoldagi, yarmi ekvatoridan janubdagi parallellarning uzunligini

aniqlashi mumkin. Bunda ular ekvatoridan shimol va janub tomon parallelarning uzunligi kamayib borishini va qutblarda ular eng qisqa ekanligini bilib olishadi.

Daraja to'ri, parallelar, geografik uzunlik va kenglik tushunchalarini shakllantirish da ham globus katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda har tushuncha masalan ekvator, qutblar, meridian va parallelar bevosita globusda ko'rsatilib, tushuncha hosil qilinadi. Masalan, Yer sharini teng ikkiga bo'lib turadigan, uni o'rtaidan o'tkazilgan chiziqqa ekvator deyiladi, deb o'qituvchi globusdan ekvatorning joylashishini ko'rsatadi va undan shimoliy va janubiy qutblargacha so'ng meridian, parallel, geografik koordinatalar tushunchalari hosil qilinadi va tegishli mashqlar o'tkaziladi.

Yerning o'z o'qi atrofida va Kuyosh atrofida aylanishini ko'rsatish uchun globus va lampadan foydalaniladi. Bunda globus lampa atrofida aylantiriladi va yoritish mintaqalarini hosil bo'lishi tushuntiriladi. Globusni o'z o'qi atrofida aylantirib tong, tush, kech va qorong'u tushunchalarini ko'rsatish mumkin. Mazkur ishlar kecha va kunduzni, fasllar hosil bo'lishini tushu ntirishga imkon beradi.

Shuningdek, tajribalar yordamida Quyosh nurlarini Yer yuzining turli joylarida turlicha burchaklarda tushishini ya'ni, ekvator atrofiariga tik, qublarga borgan sari tushish burchagi kamayib borishini va buning oqibatida Yer yuzasining turli joylari turli miqdorda issiqlik olishini hamda qutblar yarim yil to'xtovsiz Quyosh ning botmasligi yoki chiqmasligini tushu ntirish mumkin. Tabiiy geografik globuslarda eng muhim ekspeditsiya va sayohatlar yo'nalishini ham tushirilgan.

Mazkur ma'lumotlardan Materiklar va okeanlar geografiyasini o'rganishda foydalanish mumkin. Masalan, qit'alarning kashf qilinishi va tekshirish tarixini o'rganish davomida ekspeditsiya yo'nalishlarini aniq va to'la tushu ntirish mumkin. Bundan tashqari, alohida Materiklar, qit'alar mintaqalar siyosiy xaritasini va ularda davlatlarning joylashishini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ham ishlataladi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Geografik karta deganda nimani tushunasiz?
2. Geografik kartalar bilan ishlashning qanday usullari bor?
3. Geografik kartalarni o‘qish qanday bosqichlardan iborat?
4. Rel’ef kartada nimalar bilan tasvirlanadi?
5. Topografik karta deganda nimani tushunasiz?
6. Topografik kartalar bilan ishlashda uning shartli belgilarini ahamiyati nimada?
7. Globus nima?
8. Maktab o‘quv globuslarining maszhtabi necha xil bo‘ladi?
9. Globusdan tabiiy geografiyaning qaysi mavzularini o‘rganishda foydalanish mumkin?
10. Daraja to‘ri kenglik uzunlik tushunchalarni akllantirishda globusdan kanday ahamiyati bor?

11-§. Tabiiy geografik obektlar bilan ishlash usullari

Geografiya darslarida geografik bilimlarni o'zlashtirishda tabiiy (natural) vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tabiiy (natural) geografik vositalar ikkita katta guruhga bo'linadi:

- bevosita tabiiy sharoitda o'rganiladigan vositalar;
- sinf sharoitida o'rganiladigan vositalar.

Bevosita tabiiy sharoitda o'rganiladigan tabiiy vositalarga geologik ochilmalar, relef shakllari, tuproqlar, o'simliklar, soylar, ko'llar, qishloq xo'jaligi ekinlari, sanoat korxonalari kiradi. Mazkur natural vositalar o'quv sayyohatlari davomida o'rganiladi. Tabiiy va ishlab chiqarish obektlarini tabiiy sharoitda bevosita o'rganish yoki kuzatish boshqa o'quv vositalarini o'ganish uchun asos bo'lib hisoblanadi (namunalar, gerbaryilar va h.k.). Tabiiy sharoitni va jarayonlarni kuzatish murakkab jarayon hisoblanadi. Kuzatish - geografik borliq, voqeа va hodisalarini bevosita tabiiy sharoitda idrok etishga va o'rganishga imkon beradi. Natijada, o'quvchilarni biliш qobiliyati rivojlanadi.

Kuzatish davomida o'qituvchilarga ma'lum vazifalar topshiriladi va ularning bajarilishini nazorat qilib turadi, kuzatish natijalari qiyoslab beriladi. O'quvchilar kuzatgan voqeа va hodisalarini qayd qilib borishlari lozim. Kuzatish sinfda, geografiya maydonchasida, o'z shahri yoki qishlog'i chekkasida, o'z viloyati va tumani doirasida o'tkazilishi mumkin (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Ob-havoni kuzatish jadvali

Oy va kun	Havo harorati	Havo bosimi	SHamolning yo'naliishi va kuchi	Bulutlik	YOg'inla r	Quyosh ning gorizont-dagi balandligi	Izoh

Geografik kuzatishlar mazmuniga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: astronomik, meteorologik va fenologik.

I. Astronomik kuzatishlar:

- Astronomik kuzatishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
- Quyosh ning chiqishi va botishini kuzatish;
- YUlduzlar va sayyoralamni kuzatish;
- qutb yulduzini aniqlash;
- Oy davrlarini o‘rganish;
- Iloji bo‘lsa, obsYervatoriyanadagi asbob-uskunalar bilan tanishish;
- sayyoralarga vYertual sayoxat.

II. Meteorologik kuzatishlar. Meteorologik kuzatishda ob-havoni kuzatish alohida o‘rin tutadi. Ob-havoni kuzatish kuyidagi bosqichlardan iborat:

- o‘quv yilining boshida ob-havoni kuzatishni tashkil etish va kuzatish usullari bilan maxsus darsda o‘quvchilarni tanishtirish;
- kuzatishdan avval meteorologik asboblar bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil kilish lozim;
- maxsus bo‘limlarni o‘zlashtirgunga qadar oddiy meteorologik kuzatishlar olib boriladi (harorat, shamol, bulutlar, yog‘ingarchilik);
- iqlim haqida maxsus mavzular o‘tib bo‘lingandan keyin bosim, shamol kuchi, (tezligi), bulutlarning xillari haqida kuzatishlar olib boriladi. Havo haroratini va shamol yo‘nalishini dastlab bir kunda bir marta kuzatish mumkin, bulutlik va yog‘inlarni kun davomida kuzatish mumkin.

O‘quv sayohatlari davomida geografik ob‘ektlarni kuzatish juda murakkab jarayon hisoblanadi. shuning uchun, o‘qituvchi avval tashkiliy ishlarni amalga oshirmog‘i lozim. Buning uchun, o‘quvchilarga o‘quv sayyohatining maqsadi va vazifalarini tushu ntiradi, sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linadi, har bir guruhga topshiriq beriladi. Masalan, Boshlang‘ich tabiiy geografiya (5-cinf) kursi bo‘yicha o‘quv sayyohatiga chiqqanda quyidagi topshiriqlarni o‘quvchilarga berish mumkin:

- geografik ochilmalarni tozalash va uni diqqat bilan ko‘zdan kechirish; ochilmadagi qatlamlar sonini aniqlash. Qatlamlarning qalinligini o‘lchash; qatlamlarning yotish holatini o‘rganish va ularning sabablarini aniqlash;

yotqiziqlarning hosil bo'lishi qanday sharoitda sodir bo'lgan? Relefning o'zgarishiga qanday tashqi kuchlar ta'sir etadi? Tashqi kuchlarning relefga ta'siri nimalarda ifodalangan?

O'quvchilarning natural ob'ektlarni kuzatish o'qituvchilarni bevosita rahbarligida olib boriladi, ayrim hollarda kuzatish ishlarida o'qituvchilarning o'zları ham qatnashadilar. Sinf sharoitida quyidagi tabiiy (natural) ob'ektlarni kuzatish mumkin:

- a) tog' jinslari namunalari; b) tuproq namunalari va tuproq monolitlari; v) gerbariyalar; g) hayvonlarning qotirligani tanalari;
- d) sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari namunalari.

Ta'lif vositalarining mazkur guruhi ikkiga bo'linadi: hajmli o'quv vositalari; geografik voqeа va hodisalar tasvirlari. Ushbu ikki guruh geografik ob'ekt, voqeа va hodisalarni tasvirlaydi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Geografik kuzatishlar mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Tabiiy geografik obektlar bilan ishlash usullari deganda nimani tushunasiz?
3. Tog' jinslari va rel'efni o'rganishda qanday usullardan foydalilanadi?
4. Ob-havoni kuzatishda qanday jadval va ma'lumotlardan foydalilanadi?
5. Tabiiy sharoit va undagi jarayonlarni kuzatishda nimalarga e'tibor beriladi?
6. Geografik kuzatishlar qanday turlarga bo'linadi?

12-§. Xajmli ta'lif vositalari bilan ishlash usullari

hajmli ta'lif vositalariga modellar va maketlar kiradi. Modellar geografik voqeа va hodisalarni hamda ob'ektlarni uch o'lchamli (hajmiy) tasviri hisoblanadi. Ular ma'lum bir mashtabda kichraytiligan bo'ladi yoki o'z o'lchamida

tasvirlanadi. Qurilishiga ko'ra, modellar quyidagi turlarga bo'linadi: bo'linmaydigan; bo'linadigan; kesmali; statistik va faoliyatdagi.

Darslarda geologiya faniga oid mavzularda Yer sharining modeli ko'proq ishlataladi. Masalan, vulqon geyzYerlarini, tog'lari, sunami, sel sodir bo'lishi. Ular tabiiy jarayonlar o'rniда bermalol ishlatalishi mumkin. Modellar yordamida kanallar, to'g'onlar va suv omborlari tuzilishi va ishlashini ham ko'rsatish mumkin.

Geografiya ta'limida maketlar ham keng qo'llaniladi. Maketlar geografik ob'ektlar, voqeа va hodisalarining soddalashtirilgan nusxasi xisoblanadi. Ular tabiiy geografik hamda ijtimoiy va iqlisodiy geografik maketlarga bo'linadi. Tabiiy geografik maketlarga Landshaftlar, relef, daryo vodiysi, tog'lari, cho'qqilar, g'orlar maketlari kiradi.

Yer yuzasi shakllarini o'rganishda relef shakllari maketlari juda katta ahamiyatga ega. Relef bo'yicha bilimlarni o'quvchilar o'zlashtirishi murakkab kechadi, Chunki relef uch o'lchamli hisoblanadi. shuning uchun, rel'efni o'rganishda dalada olib borilgan kuzatishlar katta ahamiyatga ega. Joyda rel'efning shakllanish ini ko'ribgina qolmasdan, balki o'rganilayotgan ob'ekt bevosita har tomonlama o'rganiladi, o'lchamlari aniqlanadi, aniq tasavvurlar hosil bo'ladi.

Relef haqidagi bilimlarni o'zlashtirishning oson yo'llaridan biri geografiya maydonchasida ular shakllarining maketlarini yasash. Maketlardan foydalanim dars tashkil etganda, o'qituvchi maketning hamma tomonini ko'rsatishi lozim, shu ndagina mazkur maketda tasvirlangan geografik ob'ekt, voqeа va hodisalar haqida o'quvchilar ongida to'la va aniq tasavvurlar hosil bo'ladi. Demak, maketlar geografik voqealar va hodisalarini tabiiy holatda xaritalarda tasvirlanishi uchun oraliq vosita bo'lib hisoblanadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

- 1.Xajmli ta'lim vositalari bilan ishlash usullariga nimalar kiradi?
- 2.Geografik maketlar nima?

- 3.Maket qanday tayyorlanadi?
- 4.Rel'efning maketi qanday tuziladi?
- 5.Tabiiy geografik maketlarga nimalar kiradi?

13-§. Statistik materiallar bilan ishlash usullari

Sonli, ya'ni statistik ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarni bilish va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Geografiya darsliklarida uchraydigan statistik ko'rsatgichlarni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin: mutlaq o'Ichamlar; nisbiy o'Ichamlar; koeffitsientlar.

Mutlaq o'Ichamlar ma'lumot ahamiyatiga ega bo'ladi, ular orqali geografik hudud, voqeа va hodisalarining o'Ichamlari beriladi. Masalan, davlatlar maydoni, aholi soni, tog'laming balandligi, daryo uzunligi, okeanlar maydoni va chuqurligi va h.k.

Nisbiy o'Ichamlar mutlaq o'Ichamlarning qiyoslash natijalarini ifodalaydi, geografik voqeа va hodisalarining qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Masalan, havoning o'rtacha harorati, bosimning o'zgarishi, demografik jarayonlarning kechishi, ishlab chiqarishning joylashishi va h.k.

Koeffitsientlar alohida voqeа va hodisalarining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydigan ko'rsatgichlar. Masalan, namlanish koeffitsienti, iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashu vi, aholi va sanoatini o'sishi sur'atlari va h.k. Tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslarida qo'llaniladigan statistik ma'lumotlarni quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin: yakka raqamlar shaklida, asosan, mutlaq qiymatlarda, masalan, tonna, kilometr, kilovatt-soat, kilogramm va h.k.; chizma tarzida (diagramma, grafik, xaritagrammlar, xaritadiagrammlar) ifodalangan raqamlar; statistik jadvallar tarzida ifodalangan raqamlar.

Maktab geografiya darsliklarida uchraydigan raqamlar bilan ishlashning quyidagi shakllari mavjud:

a) kerakli statistik ma'lumotlarni yig'ish; b) statistik ma'lumotlarni solishtirish; v) umumlashgan statistik ko'rsatgichlarni aniqlash; g) grafik, diagramma va jadvallardagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish; d) grafik, diagramma va jadvallar tuzish.

5-sinfda "Gidrosfera", "Litosfera" va "Biosfera" mavzularini o'rganish davomida statistik ma'lumotlarni yig'ib tegishli qonuniyatlarni aniqlash mumkin. Umumlashgan ko'rsatgichlarning geografik mohiyatini o'quvchilar chuqur anglashlari, ular asosida o'quvchilar to'g'ri va aniq geografik xulosalar qilishlari lozim. Masalan, o'quvchilar "Iqlim" mavzusini darslik asosida o'rganayotganda umumlashgan statistik ko'rsatkichlar iqlim joyning okean, dengizlarga yaqinligiga bog'liq ekanligini aniqlashga imkon beradi. Turli xil chizma va diagrammalarni tahlil qilish uchun o'quvchilarda tafakkur yuqori darajada rivojlangan bo'lmog'i lozim.

Geografiya fanini o'rganayotganda o'quvchilar ongida ikki turdag'i aloqalar shakllanadi:

- fazoviy va miqdoriy tasavvurlar orasidagi bog'liqlik;
- vaqt va miqdoriy tasavvurlar orasidagi bog'liqlik.

CHizma va diagrammalar bilan ishslash jarayonida mazkur ikki tur aloqalar bir-biri bilan bog'lanadi, ya'ni bitta chizmani hosil qiladi, chizma va diagrammalar bilan ishlaganda o'qituvchi fanlararo aloqalarga ko'proq e'tibor bYermog'i lozim. Avval chizmada minus (manfiy) va plus (musbat) qiymatlar koordinata o'qining qaysi tomonida joylashishi haqida tushunchalar beriladi. shundan so'ng, birin-ketin iqlimi tahlil qilishga o'quvchilarni undaydi: koordinata o'qlari belgisini aniqlash; koordinata o'qlarida mashtabni aniqlash; chizma yoki diagrammaning miqdorini aniqlash; chizma yoki diagrammani sifat jihatdan tahlil qilish.

Sifat jihatdan baholashning metodik yo'llaridan biri – bu qiyoslash. Dars jarayonida iqlimiylarini tushu ntirish davomida o'quvchi turli xil iqlimlar va iqlimiylar haqida qiyosiy hikoya qilib berishi mumkin. 7-sinf darsligida iqlimning o'zgarishi jarayonida umumlashgan statistik ma'lumotlardan

foydalinish ko'nikmasi shakllantiriladi. Alovida iqlim turlarini o'zlashtirib bo'lganidan so'ng, iqlimning umumlashgan ko'rsatgichlarini aniqlash boshlanadi. Ular quyidagi tartibda aniqlanadi:

Quyosh radiatsiyasi quyosh balandligi va bulutlikning turli sharoitida aniqlanadi; o'rtacha yillik, eng yuqori va eng past harorat, haroratning yillik o'zgarishi aniqlanadi; o'rtacha yillik yog'in miqdori, eng ko'p va kam yog'in miqdori, yog'inning yil davomida taqsimlanishi aniqlanadi; havo bosimi va uning mavsumiy o'zgarishi shamollar va ularning asosiy yo'nalishlari hamda kuchi.


O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

- 1.Statistik materiallar bilan ishlash usullari deganda nima tushuniladi?
- 2.Geografik bilimlarni o'rghanishda statistik materialarning ahamiyati nima?
- 3.Nisbiy va mutloq o'lchamlarga nimalar kiradi?
- 4.Ob-havoni o'rghanishda qanday o'lchamlardan foydalilanadi?
- 5.Geografiyani o'rGANAYOTGANDA o'quvchi ongida qanday aloqalar shakllanadi?

14-§. Interaktiv kartografik qo'llanmalar bilan ishlash

Interfaol xaritagrafik qo'llanmalar bilan ishlash texnologiyasi. Geografiya fanining muhim xususiyati shundaki, unda ko'plab axborotlar jamlangan. Zamonaliv geografiya darslarini tashkil etish o'qituvchilardan ko'plab axborotlar bilan ishlashni talab etadi. Darslar tashkil etishda va o'quvchilar bilimlarini baholashda zamonaliv kompyuter texnologiyalari va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan, xususan, intYerfaol kompyuter dasturlari va elektron intYerfaol geografik xaritalardan samarali foydalanimoqda.

Darslarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, geografik dastur va elektron intYerfaol xaritalardan ta'lim vositasi sifatida keng foydalanish zarur axborotlarni izlashda vaqtini tejab, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarga tayyorgarlik bosqichida foydalaniladigan manbalar hajmini kengaytiradi, umumlashtiradi. Geografiya ta'limi amaliyotida keng qo'llanilayotgan elektron intYerfaol tabiiy xaritadan foydalanish bo'yicha tadqiqotchi tomonidan bir qator uslubiy ko'rsatmalar nashr etildi [18]. internet tarmog'i ta'limiy zahiralardan o'rin olgan geografik intYerfaol xaritalardan biri - bu "Umumiyl tabiiy geografik intYerfaol xarita" nomli manbadir (25-rasmga qarang).



25-rasm. Elektron xaritaning asosiy ko‘rinishi

Mazkur manba bosma tabiiy xaritalarning altYemativ varianti sifatida planshetlarda, shaxsiy kompyuter larda foydalaniadi hamda katta hajmli ekranda proeksiya yo'li bilan namoyish etiladi. Uning 1-bo'limida Yer SHarining yil bo'yini yoritilishi burchaklarini ko'rsatuvchi ikki o'lchamli dinamik rolik yaratilgan

bo'lib, o'quvchiga aniq astronomik-geografik tasavvurni taqdim etadi (26-rasinga qarang).

Elektron xaritada shartli belgilar qismi alohida illyustratsion tarzda berilgan. Xaritada bir necha qatlamlar bilan ishlash imkoniyati mavjud. Xaritada geografik ob'ektlar bo'yicha qo'shimcha illyustrativ ma'lumotlar (fotolavhalar, matniy va dinamik ma'lumotlar) berilganki, bu ma'lumotlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotda beriladigan geografik axborotlarni to'ldiradi. Misol tariqasida, balandlik va chuqurliklar shkalasi, aniq geografik obektlar (Yer shari quruqlik va okean qismi bo'yicha 30 dan ortiq) Ximoloy cho'qqisi, Antarktida sohillari, Karib dengizi kabi joylarning ma'lumotlari ko'rindi.



26-rasm. Yer sharining yil bo'yini yoritilishi

Manbaning intYerfaolligi uning shu muhitda foydalanish davomida karta qatlamlaridan alohida foydalanishi, o'qituvchi va o'rganuvchilar tomonidan turli yozuvlar yoza olishi, chiziqlar va belgilar qo'ya olishida namoyon bo'ladi. Masalan, xarita bilan ishlaganda geografik ob'ektlarga tegishli miqdoriy va boshqa ko'rsatkichlar (uning o'lchamlari, sanalar, ismlar, geografik terminlar) yozuv va geometrik shakllarda turli ranglar ifodasida ta'sirchan holatda belgilar qo'yib borish, mazkur amallarni saqlab qo'yish imkoniyatlari jamlangan. Undan tabiiy geografiya Boshlang'ich kursi, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kurslari mashg'ulotlarida keng va samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot davomida xaritagrafik qo'llanmalar va ulardan foydalanishda horijiy mamlakatlar tajribalari ham keng o'rganildi. "Seterra" intYerfaol geografik dasturi ana shunday xaritagrafik qo'llanma. Bu dastur geografiya darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda samarali foydalanish imkoniyatlarini beradi.

“Seterra” intYerfaol geografik dasturi va undan foydalanish usullarini ko'rsatib o'tamiz. “Seterra” interfaol geografik dasturi o'quvchi-talabalarning xaritagrafik bilimlarini takomillashtirib, Yerning geografik surati haqida aniq tasavvur hosil qilishi bilan birga, xaritagrafik bilimlarni shakllantirish , rivojlantirish, o'lchash, nazorat qilish va baholash imkoniyatlarini beradi. Bu dasturni internet ta'limiylaridan yuzlab olish va shaxsiy kompyuter larga o'rnatish mumkin.

“Seterra” dasturi kompyuter ga yuklab olingach, u faollashtiriladi. Buning uchun, dastlab menyudan “Seterra” dasturi yorlig'i ustiga sichqonchaning chap tugmasiri 2 marta bosilsa, quyidagi oyna ochiladi: (27-rasmga qarang.)



27-rasm. “Seterra” dasturi bosh menyusi


Dastur tarkibida 7 ta bo'limdan iborat (butun dunyo va alohida qit'alar) murojaat sohalari ajratilgan bo'lib (“Mamlakatlar”, “Poytaxtlar”, “SHaharlar”, “Test sinovi”, “Davlat bayroqlari” bo'yicha trenajyorlar hamda dunyo mintaqalari), ularning har birida xaritografik topshiriqlar berilgan. Har bir topshiriq bo'yicha bajarilayotgan natijalar hisoblanib, baholanib boriladi.

Endi dasturdagi sohalar bilan birma-bir tanishib chiqamiz. “Mamlakatlar” sahifasi ustiga borib sichqonchani ikki marta bosganda mamlakatlar konturi ko'rindi.

“Poytaxtlar” bandidagi buyruqni tanlaymiz. Sahifaning ustiga borib, sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosamiz. Ekranda geografik kontur namoyon bo'ladi. Bizga bu bandda ketma-ket ravishda dunyo yoki

mintaqalardagi shaharlarning joylashgan o‘rnini topish vazifasi qo‘yiladi. Agar biz birinchi urinishda to‘g‘ri javobni tanlay olsak, keyingi savolga o‘tilgan holatga ko‘zimiz tushadi. Agar to‘g‘ri javobni topa olmasak, ikkinchi marta urinishdan so‘ng to‘g‘ri javob turgan nuqta qizil rangli tus olib, bizni ogohlantiradi.

Navbatdagi band - “Poytaxtlar viktorinasi”. Bu sahifa yozuvi ustiga borib sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosganimizda quyidagi holat sodir bo‘ladi (28-rasmga qarang). Bu holatda topshiriq sifatida poytaxt nomi berilgan, u qaysi davlat poytaxti ekanligini topish kerak.



28-rasm. “Seterra” dasturidagi “Poytaxtlar” viktorinasi

“Daryolar” bandida daryo konturi berilgan, ketma-ket mintaqalari joylashu vini aniqlab topish vazifasi yuklangan.


“Seterra” dasturi mukaimmal ishlangan bo‘lib, bu dastur barcha mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish imkonini bYerib, o‘quvchilarning mustaqil va guruhiy mashq bajarishlari, mustaqil ijodiy fikrashi, mavzularni o‘rganishda mavjud bosma va elektron manbalardan to‘g‘ri foydalanishga, Yerkin mulohaza yuritishga hamda mustaqil kichik ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. IntYeraktiv kartografik qo‘llanmalar bilan qanday ishlash mumkin?
2. Kartografik qo‘llanma nima?
3. Darslarda axborot texnologiyalaridan qanday foydalilanildi?
4. “Seterra” dasturi nima?
5. “Poytaxtlar viktorinasi” nima?

15-§. Elektron darslik va qo'llanmalar bilan ishlash

Umumta'lim maktablari 5-9-sinflarida o'qitiladigan geografiya darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarida keng foydalanish imkoniyasi tini beruvchi "Elektron xaritagrafik katalog" o'zida o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etilgan 100 dan ortiq xaritalarni jamlagan (29-rasmga qarang).



29-rasm. Elektron xaritagrafik katalogning bosh sahifasi

Mazkur qo'llanmada jamlangan xaritalar turli soha vakillari uchun qimmatli xaritagrafik ma'lumotlar berilgan. Ma'lumotlar orasida Yer yuzi qanday tuzilganligi, dunyo davlatlarining joylashgan geografik o'mi, ularning tabiiy geografik xususiyatlari haqida ma'lumotlar taqdim etadi [20].

Masalan, tabiiy xaritalar bandiga sichqonchani chap tomoni bosilsa, 29-rasmda ko'rinish turgan oyna ochiladi. Bu qismidan esa Yer sharining istalgan qismi (Materiklarning nomi keltirilgan) tanlanadi. Tegishli Materik konturi ustiga sichqoncha tugmasi bosilganda tegishli oyna ochiladi. Unda ham bo'limlar mavjud bo'lib, foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'limni tanlaydi.

Mazkur xaritadan tashqari, boshqa tabiiy geografik xaritalar ham mavjudligini oynadagi "Davomi" qismi borligidan anglosh mumkin. Uni ustiga sichqoncha chap tugmasi bosilganda yangi xaritalar ochib beriladi. Bu "Tabiiy geografik xaritalar" bo'limi. Umumgeografik maqsadlarda yaratilgan manba ekanligini hisobga olsak, qo'shimcha ravishda birinchi oynadagi "Iqtisodiy xaritalar" qismidagi xaritalardan ham geografiya kursining keyingi, ya'ni iqtisodiy

geografiya kurslarida foydalaniлади. Taqdim etilgan ma'lumotdan foydalaniб
bo'lgach, "Ortga" bo'limi orqali ortga qaytish yoki "Bosh sahifa" qismi orqali
birinchi sahifaga qaytiladi.



30-rasm. Elektron xaritagrafik katalogning 2-sahifasi

Elektron darslik va qo'llanmalar bilan ishlash texnologiyasi. Biz tomonidan loyihalashtirilgan va tayyorlangan "Janubiy Amerika" (*rus tilida*), "SHimoliy Amerika" va "Evrosiyo" (*rus tilida*) nomli elektron o'quv-uslubiy qo'llanmalari bir qator maxsus kompyuter dasturlarida tayyorlangan bo'lib, umumta'lim tizimining 6-sinfida o'tiladigan "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fani mashg'ulotlarini fanning mazmun-mohiyati va uslubiyotiga mos ta'lim texnologiyalari va yondashuvlaridan (taqdimotlar, elektron intYerfaol geografik xaritalar, viktorinalar, test sinovi, foto va videolavhalar, videodarslar, dinamik tasvirlar va grafiklar, qo'shimcha materiallar) samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirib, darslarni zamonaviy talablar asosida tashkil etishda keng tashkiliy-uslubiy sharoitlar yaratadi.

"Janubiy Amerika" elektron o'quv-uslubiy qo'llanma quyidagi bo'limlar bo'yicha turli xil axborotlar beradi: Materik tavsifi; Materik relefi; Materik iqlimi;

flora va faunasi; kontur xaritalar; diqqatga sazovor joylar; taqdimot slaydlari; mavzuli xaritalar; foto va videoteka; geoxronologik jadval; viktorina; dars konspektlari; Dunyo atlasi; intYerfaol topshiriqlar.

"Evraziya" elektron o'quv-uslubiy qo'llanmasi quyidagi bo'limlar bo'yicha axborotlar beradi: Materik tavsifi; intYerfaol xaritalar; Materik relefi; Materik iqlimi; flora va faunasi; kontur xaritalar; tadqiq etilishi; taqdimot slaydlari; mavzuli

xaritalar; fotogalYereya; geoxronologik jadval; viktorina; videodarslar;
dunyo atlasi; intYerfaol xaritalar; test sinovi; chekka nuqtalar; Dunyo atlasi
(5-ilova).

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

- 1.Elektron darslik va qo‘llanmalar bilan ishlashning qanday usullari bor?
2. “Evraziya” elektron o‘quv-uslubiy qo‘llanmasidan qanday foydalаниди?
- 3.Elektron xaritografik katalogning 2-sahifasi nimalardan iborat?
4. “Janubiy Amerika” elektron o‘quv-uslubiy qo‘llanma kanday ma’lumotlar beradi?

16-§. Internet ta'limiy resurslari bilan ishlash

Internet ta'limiy zahiralari bilan ishlash texnologiyasi. internet ning ta'lim jarayonidagi asosiy funksiyasi ta'limiy-axborot zahiralari bilan tavsiflanib, tarmoqning axborot beruvchi, intYerfaol va global qidiruv xizmatidan foydalanish mumkin [19].

Axborot beruvchi xizmati: Elektron shakldagi kitoblar, uslubiy adabiyotlar, gazeta-jurnallar; o'quv kompyuter dasturlari; elektron kutubxona, ma'lumotlar bazasi, axborot tizimlari; ma'lumot beruvchi fayllar, lug'at va ma'lumotnomalar.

Interfaol xizmatlari: elektron pochta; elektron telekonfYerensiya; internet - chat.

Axborot-qidiruv xizmati: elektron kataloglar; qidiruv sistemalari.

Global tarmoqning ta'limiy-axborot zaxiralari quyidagilar: masofaviy ta'lim kurslari; vYertual kutubxonalar; mustaqil ta'lim uchun kurslar, o'quv dasturlari; o'quv olimpiadalari, viktorinalar, telemuloqot loyihalari; mutaxassislar uchun telekonfYerensiya; maslahat beruvchi vYertual markazlar; ta'lim portallari.

Darslarda foydalaniladigan ta'lim dasturlari qo'llanilishi va mazmuniga ko'ra: ko'rgazmali, axborot beruvchi, mashq qildiruvchi, o'yin-mashqlar, modellashtirilgan, nazorat qiluvchi dasturlardan iborat bo'ldi.

Ta'lim jarayonida internet dan foydalanishda qo'llaniladigan veb-saytlarni asosan quyidagi guruhalr misolida ko'rib chiqish mumkin:

Elektron (virtual) kutubxonalar veb-saytlari. Elektron kutubxonalar internet ta'limiy zahiralari orasida eng keng foydalaniladigan, ommabop tavsifdagi, shu bilan birga, nafaqat ta'lim tizimi, balki, ta'limdan keyingi davr uchun ham foydalanish maqsadga muvofiq hisoblangan axborot-zahira manbalari hisoblanadi. Axborot telekommunikatsiyalari, shuningdek, kompyuter texnikasi hamda global intYernet tarmog'ining jadal rivojlanishi pirovardida bugungi kunda elektron kutubxonalar soni tezkorlik bilan oshib bormoqda. Endilikda elektron kutubxonalarning virtual bosqichi keng ommalashib borayotganligi internet dan

foydalanuvchilarning bu boradagi qiziqishlari qanchalik yuqori ekanligini ko'rsatadi [53].


Ilmiy, ilmiy-ominabop jurnallar va boshqa davriy matbuot nashrlari saytlari. Bu saytlar orqali fanning nazariy masalalari, ilmiy-tadqiqotlar va ularning natijalari haqida turli darajadagi ma'lumotlarni olish mumkin. Bunday saytlar iqtidorli talabalar bilan ishlashda nihoyatda keng qo'l keladi. Masalan, <http://geografiya.uz>, <http://www.Geographcr.ru>, <http://www.nationalgeographic.com>, <http://priroda.ru>, <http://www.ocean.ru/>, <http://www.webgeo.ru/>, <http://www.geosite.com.ru/>, <http://www.kontur-map.ru/>, <http://www.Geo-Site.ru> va boshqalar.

Alovida fanlarni o'qitishga va o'rganishga ixtisoslashgan mavzuiy saytlar. Bunday saytlar qatoriga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, taniqli olimlar tomonidan tashkil etilgan saytlar kiradi. Masalan, bugungi kunda birgina geografiya o'qitishga oid manbalar o'rinn olgan hamda eng ko'p foydalilaniladigan 100 dan ortiq internet elektron manzillari mavjud. Bular jumlasiga Yer sharining geografik portalı (www.rgo.ru), butunjahon geografiyasi (www.wgeo.ru), sayohatlar va sarguzashtlar dunyosi (www.adventure.hut.ru), sayyohatlar klubi (www.geografia.ru, www.great-geo.ru), O'zbekiston geograflari portalı (www.geografiya.uz), metodik yordam beruvchi "Men geografiya darsiga boraman" (www.geo.lseptember.ru), "Geografiya burchagi" (www.geograf.ru.narod.ru), (www.curator.ru, www.Pedsovet.alledu.ru) kabilarni keltirish mumkin. Mazkur intYernet saytlarida dars va darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlar uchun ko'plab manbalardan on-layn shaklda yoki shaxsiy kompyuter ga yuklab (ko'chirib olib) samarali foydalanish mumkin.

Quyida 5-sinf "Boshlang'ich tabiiy geografiya" darslarida o'tiladigan mavzular bo'yicha mavjud turli internet manbalarni keltiramiz. "Yerning suv qobig'i. Gidrosfera" bo'limi mavzulari bo'yicha <https://water.usgs.gov> internet manzilida "Suvning tabiatda aylanishi nima?", "YOg'ingarchilik: Bulutlardan suvning ajralib chiqishi" va "Qanday qilib yomg'ir tomchilari shakllanadi?"

ruknlarida turli rasmlar va ko'p axborotlar o'zbek va ingлиз tillarida berilgan (30-rasm, 4-jadvalga qarang).

YOg'ingarchilik: Bulutlardan suvning ajralib chiqishi. YOg'ingarchilik bu yomg'ir, yomg'ir aralash qor, qor yoki do'l shaklida bulutlardan ajralib chiqqan suv. Bu atmosferada mavjud bo'lgan suvning Yerga qaytib tushishi mumkin bo'lgan asosiy yo'l hisoblanadi. Ko'pgina yog'ingarchiliklar yomg'ir shaklida bo'ladi (31-rasmga qarang).



31-rasm. <https://watYer.usgs.gov> internet saytidan olingan chizmalar

4-jadval

<https://watYer.usgs.gov> internet saytidan olingan jadval ma'lumotlari

Jaxondagi suv taqsimoti				
Suv zahiralari	Suv hajmi, kilometr kubda	Suv hajmi, mill kubda	CHuchuk suv ulushi %da	Jami suv ulushi %da
Okeanlar, dengizlar, va qo'ltilqlar	1,338,000,000	321,000,000	—	96.5
Muz, muzliklar va abadiy qorliklar	24,064,000	5,773,000	68.7	1.74
Grunt suvi	23,400,000	5,614,000	—	1.7
SHo'r	12,870,000	3,088,000	—	0.94

Manba: Gleik P.X. 1996: Suv zahiralari. Iqlim va suv ensiklopediyasi, muxarrir S.X. SHneydYer, Oksford UNIVERSITETi bosmaxonasi, Nyu York, 2-jild, -B.817-823.

<http://geografiya.uz/atmosfera/735-yomgir-haqida-20-ta-qiziqarli-malumotlar.html>. internet manzilida ham yuqorida gi mavzu yuzasidan ko'plab qiziqarli faktik ma'lumotlar keltirilgan.

Keyingi qadamlarimiz <https://www.google.com> veb sahifasi (univYersal qidiruv imkoniyatini beruvchi) dan “Yerning tosh qobig‘i – litosfera” bo‘limi mavzulari bo‘yicha ta’limiy zahiralarni qidiramiz. internet brauzeridera <https://www.google.com> sahifasini ishga tushiramiz. Qidiruv qatoriga “Foydali qazilmalar” so‘zini kiritamiz va qidirish tuginasini bosamiz. Natijada, tizim bizga ko‘plab axborotlar ilovasini taqdim etadi (32-rasmga qarang).



32-rasm. <https://www.google.com/search> “Foydali qazilmalar” mavzusi bo‘yicha qidiruv jarayoni

Zamonaviy elektron ta’lim vositalarining imkoniyatlari, ularni qo’llashning maqsadga muvofiqligi zamonaviy axborot texnologik vositalardan an’anaviy uslubiyotni qo’llash uchun emas, balki variatlashgan metodika yaratish uchun foydalanishni taqozo qiladi. Xususan, geografiya fanida bunday uslublarni quyidagilarga yo‘naltirish maqsadga muvofiq:

- o‘quvchilarda geografik tasavvumi to‘g‘ri shakllantirish ;
- geografik fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish ;
- estetik idrok etishni shakllantirish va rivojlantirish;
- o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonida ijodiy o‘quv tashabbus ko‘rsatish imkoniyatlarini rivojlantirish.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Internet ta’limiy resurslari bilan ishlash qanday bo‘ladi?
2. Axborot xizmati nima?
3. Global tarmoqning ta’limiy axborot zahiralariga nimalar kiradi?
4. “Foydali qazilmalar” mavzusi bo'yicha qidiruv jarayoni deganda nimani tushunasiz?
5. Internet dan foydalanishda kanday veb saytlar guruhi ajratiladi?
6. Internet elektron manzillariga nimalar kiradi?

GLOSSARY

GLOSSARIYLAR

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Geografiq qobiq	Geographic envelope	Geograficheskaya obolochka	Bir-biriga kirishadigan va o'zaro ta'sir ko'satadigan geosferalarning sifat jihatidan o'ziga xos yaxlit tizimi; unda barcha narsalar harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi.
Zamonaviy geografiyaning bosh vazifasi	The main task of modern geography	Osnovnaya zadacha sovremennoy geografii	Oldingidek yangi tabiiy boyliklarni izlab topish, "noma'lum" hududlarni o'zlashtirishga yordam berish emas, balki insoniyat oldida turgan eng katta muammolarni ilmiy hal etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi joylashgan hududlarda tabiat va xo'jalikni uyg'un holatda qayta o'zgartirish hisobiga rivojlantirish hisoblanadi.
"Madaniyat" tushunchasi	The concept of "culture"	Ponyatie «kultura»	shaxs va jamiyat, ularning mohiyati va taraqqiyotiga bevosita aloqador bo'lgan ko'p qirrali, murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi.
Madaniyat	culture	Kultura	Kishilik jamiyatni yoki biror xalqning, shu jumladan o'zbek xalqining ishlab chiqarishda, ijtimoiy va ma'naviy hayotda Yerishgan yutug'idir.
Madaniyat geografiyasi	Geography of culture	Geografiya kultury	Turli mamlakatlardan yoki hududlarda istiqomat qilayotgan ijtimoiy guruhlar, jamoalar va oilalarning turmush tarzi, milliy-madaniy an'analarini tabiat va xo'jalik yuritish nuqtai nazaridan o'rGANADI.
Geografik madaniyat	Geographic culture	Geograficheskaya kultura	Mazmuni geografiya fanlari mazmunidan farq qilgan holda mohiyatiga ko'ra umuminsoniy, bayalmilal bo'lib, u yoki bu xalq yoxud millat madaniyatining bir qismini tashkil etadi. Geografik madaniyat, keng ma'noda, tabiat bilan o'zaro munosabat madaniyatini, millatlararo munosabatlar madaniyatini, etnik madaniyatni va hududiy mehnat madaniyatini o'z ichiga oladi hamda mahalliy tabiat xususiyatlari, tarixiy-geografik sharoit va

			xalqning ko'p asrlik milliy an'analar bilan mustahkam bog'langan bo'ladi.
Kartografik savodxonlik	Cartographic literacy	Kartograficheskaya gramotnost	Geografik kartalar tilini bilish ham geografik madaniyatlichkeit belgisidir. Ta'kidlash lozimki, geografik karta bugungi kunda xalqaro muloqot tiliga ham aylangan.
Geografik bilimlar	Geographic knowledge	Geograficheskie znaniya	O'quvchi shaxsida geografik bilish faoliyati tajribasini hosil qiladi.
Geografik ko'nikmalar	Geographic skills	Geograficheskie nablyuki	O'quvchi shaxsida geografik faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usullarini egallash tajribasini vujudga keltiradi.
Geografik ijodiy faoliyat tajribasi	Experience in geographical creative activity	Orynt geograficheskoy tvorcheskoy deyatelnosti	O'quvchi shaxsida geografik muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi.
Geografik muhitga hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi	Experience emotional value relationships with the geographic environment	Ispriyatye emotsiionalno-sennostnye otnosheniya s geograficheskoy sredoy	O'quvchi shaxsida atrofdagi borliqni geografik jihatdan shaxsiy baholash ko'nikmasini shakllantiradi.
"shaxs geografik madaniyati"	"Geographical culture of man"	«Geograficheskaya kultura cheloveka»	shaxsning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq bo'lgan geografik bilimlari, ko'nikmalar, ijodiy faoliyati va hissiy-qadriyatli munosabatlari tajribasi majmuida namoyon bo'luvchi va uning geografik tafakkuri, geografik til va metodlarni egallashi, dunyoning geografik manzarasini tasavvur etishi orqali atrofdagi geografik muhitiga qadriyati munosabati xususiyatlarini belgilovchi yaxlit, o'zgaruvchan, tuzilmaviy-saviyali fazilati.
«Geografik bilish»	"Geographic Knowledge"	«Geograficheskie znaniya»	"Geografiya ta'limingining asosiy jihat - o'quvchilar tomonidan geografik bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilish jarayoni hisoblanadi.
Geografik sezish	Geographic perception	Geograficheskoe vospriyatiye	Bevosita muloqot jarayonida geografik ob'ektlar yoki hodisalarning ayrim xossalari uning ongida aks etadi. Demak, o'quvchi

			Boshlang'ich geografik bilimlarni o'z sezgilaridan oladi.
Geografik idrok	Geographic perception	Geograficheskoe vospriyatiye	Sezish asosida o'quvchi ongida tabiiy ob'ektlar yoki hodisalar butun holicha aks etadi, ya'nisi ularning yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi.
Geografik tasavvur	Geographic imagination	Geograficheskoe voobrazhenie	O'quchining miyasida ro'y bergan bu qo'zg'alishlar, ya'nisi sezish va idrok ma'lum muddatgacha o'z izini qoldiradi. Oldin idrok etilgan, lekin aynan shu onda idrok qilinmayotgan geografik ob'ektlar yoki hodisalarining o'quvchi ko'z oldiga kelgan manzarasiga aytildi.
Geografik tafakkur	Geographic thinking	Geograficheskoe myshlenie	Geografik ob'ektlar va hodisalarining dunyoviy muhit bilan bog'liqligi va muvofsiqigini hududiy, majmuaviy, tarixiy, tasnifiy, ekologik va amaliy yondashuvlar asosida aniqlaydi va o'zida aks ettiradi.
Hududiy geografik tafakkur	Territorial-geographical thinking	TYerritorialno-geograficheskoe myshlenie	Geografik tafakkurning asosi bo'lib, deyarlik barcha geografiya kurslarining mazmunida quydagi darajalarda namoyon bo'ladi: -sayyoraviy (dunyoning geografik manzarasi, insoniyatning umumbashariy muammolari); -mintaqaviy (Osiyoda Markaziy Osiyoning yirik mintaqasi sifatida qarab chiqilishi, Orol va Orolbo'yini muammosi); -milliy (O'zbekistonning tabiiy va ijtimoiy-geografik tafsisi); -mahalliy (O'zbekistondagi alohida hududlarning o'lkashunoslik asosida qarab chiqilishi).
Majmuaviy geografik tafakkur	Integrated geographic thinking	Kompleksnoe geograficheskoe myshlenie	Geografik ob'ektlar va hodisalarni mohiyati bo'yicha ko'p omilli umumlashtirishdan iborat bo'lib, kichik va katta miqyosdagi umumlashtirishlar farqlanadi.
Tarixiy geografik tafakkur	Historical and geographical thinking	Istoriko-geograficheskoe myshlenie	Geografik ob'ektlar va hodisalarining tarixiy jihatlarini aks ettiradi. Masalan, geografik kashfiyotlar tarixi; mamlakatlar va viloyatlar, tumanlar va shaharlar yoki aholi va xo'jalikni tasvirlashdagi tarixiy-geografik

			tavsiflar; insoniyatning geografik tarixi, ya'ni "bolaligi", "o'smirligi", "yosh ligi" va "etukligi" ning bayoni va shu kabilar.
Tasnifiy geografik tafakkur	Classification of geographical thinking	Klassifikatsiya geograficheskogo myshleniya	Geografik ob'ektlar va hodisalarini umumiy alomatlariga qarab ilmiy asosda guruhlarga ajratishni aks ettiradi va asosan quyidagi uch yo'l bilan amalga oshadi: birinchisi, muayyan "bilimlami yaxlitlash", masalan, iqtisodiy rayonlarga ajratish, mamlakatlar yoki mintaqalarni guruhlash; ikkinchisi, geografik ob'ektlar va hodisalarini guruhlash, masalan, lanlshaftlarning tasniflanishi, qishloq xo'jaligi yoki transport tizimini turlarga ajratib guruhlash; uchinchisi, geografik ob'ektlar va hodisalarini tanlab o'rGANISH yoki muayyan tushuncha shakllanish i uchun ob'ektlar yoki hodisalarning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turgan ayrim turllarini tanlab qarab chiqish.
Ekologik geografik tafakkur	Ecological geographical thinking	Ekologicheskoe geograficheskoe myshlenie	Geografik ob'ektlar va hodisalarning ekologik jihatlarini aks ettiradi. Masalan, atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik siyosat, sanoat, qishloq xo'jaligi yoki transportning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati, atrof-muhit va aholi salomatligi va h.k.
Amaliy geografik tafakkur	Practical geographical thinking	Prakticheskoe geograficheskoe myshlenie	Geografik ob'ektlar va hodisalarning real hayot bilan bog'liqligini, amaliy echimlarini aks ettiradi. Masalan, tabitiy sharoit va resurslardan to'g'ri foydalanish, aholi hayot-saoliyati yoki ishlab chiqarishni hududiy jihatdan to'g'ri tashkil qilish, geografik bashoratlash va h.k.
Geografik tahlil	Geographic analysis	Geograficheskiy analiz	(Butunni bo'laklarga fikran ajratish) - o'rganilayotgan geografik ob'ekt yoki hodisani fikran tarkibiy qismrlarga ajratish usuli. Masalan, tabiatni o'rGANISH jarayonida uni tarkibiy qismrlarga: tog' jinslari, relief, Yer osti va Yer osti suvlar, uproq, o'simlik, hayvonot dunyosi

			va havo massalariga ajratish. Butunni bo'laklarga ajratish jarayonida fikr murakkabdan oddiyga, umumiydan yakkaga, butundan bo'lakka qarab boriladi
Geografik sintez	Geographic synthesis	Geograficheskiy sintez	(Bo'laklarni butunga fikran to'plash) - bo'laklarga ajratilgan geografik ob'ekt yoki hodisani fikran to'plab, yaxlit holga keltirish usuli. Masalan, tog' jinslari, relief, Yer usti va Yer osti suvlar, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va havo massalariga ajratilgan tarkibiy qismalarni to'plab, yaxlit tabiatni o'rganish. Bo'laklarni butunga to'plash jarayonida fikr yakkadan umumiya, qismidan butunga, aniqdan mavhumga qarab boriladi.
Geografik taqqoslash	Geographic comparison	Geograficheskoe srovnenie	Geografik ob'ektlar yoki hodisalar o'tasidagi o'xshashlik va tafovutni aniqlash usulidir. Taqqoslashda quyidagilar e'tiborga olinishi zarur <ul style="list-style-type: none"> -taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak; -taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar qanday belgisiga ko'ra qiyoslanishi oldindan ma'lum bo'lishi shart; -hamma vaqt ikki yoki undan ortiq geografik ob'ekt yoki hodisani bir belgisi asosida bir xil nisbatda solishtirish kerak; -taqqoslanadigan geografik ob'ektlar yoki hodisalar tasodifiy, muhim bo'limgan belgilari qarab emas, aynan faqat muhim belgilari asosida qiyoslanishi lozim.
Geografik umumlashtirish	Geographic generalization	Geograficheskoe obobshchenie	Geografik ob'ektlar yoki hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi va xususiyatlarini, bog'lanishlarini fikran muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va natijasidir.
Geografik mavhumlashtirish	Geographic abstraction	Geograficheskaya abstraksiya	Geografik ob'ektlar yoki hodisalarning yakka, ikkinchi darajali, muhim bo'limgan belgilardan uzqlashish va muhim belgilarini topish usuli. Mavhumlashtirish natijasida

			geografik ob'ektlar yoki hodisalarining ichki tomonlari, mohiyati ochilib, geografik tushuncha shaklida ongda mustahkamlanadi.
Geografik til	Geographic language	Geograficheskiy yazык	Geografik til o'zining shu xususiyati bilan o'quvchiga geografik bilimlar to'plashga, uni saqlashga, avloddan-avlodga uzatishga, egallagan geografik bilimlардан amalda foydalanishiga yordam beradi. Ayni paytda geografik til geografik tafakkurni takomillashtirish vositasи bo'lib xizmat qiladi va geografik tafakkur faqat til yordamida o'z ifodasini topadi.
«Geografik matn»	"Geographic text"	«Geograficheskiy tekstu»	Ovozsiz-yozma shakldagi geografik til ko'pincha «geografik matn» deb ham yuritiladi
Geografik bilih metodlari	Methods of geographical knowledge	Metodы geograficheskix poznaniy	O'quvchilarni geografik ob'ektlar yoki hodisalarни tadqiq qilishga undaydigan yondashuvlar, shuningdek geografik tadqiqotlarning o'ziga xos usullari va metodikasıdir.
Geografik tavsiflash metodi	Method of geographical description	Metod geograficheskogo opisaniya	Geografik ob'ekt va hodisalarga tavsif berish. Masalan, "O'zbekistonning geografik o'mi", "Qashqadaryo viloyati refezi"
Kartografik metod	cartographic method	Kartograficheskiy metod	Kartalar ishtirok etadigan geografik tadqiqot metodlari bo'lib, makoniy tasavvurlarni kengaytiradi, geografik bilimlarni xaritaga "joylashtirish" va kartadan foydalanish ko'nikmasini hosil qiladi.
Geografik qiyoslash metodi	Geographic comparison method	Geograficheskiy metod srovneniya	Geografik tafakkurning asosini tashkil qilib, geografik ob'ekt va hodisalarни o'xshashligi va tafovuti bo'yicha, yaxlit holda va ayrim belgilari bo'yicha qiyoslashda o'z ifodasini topadi. Masalan, O'zbekistondagi past, o'ttacha va baland tog'larni qiyoslash
Statistik metodlar	Statistical methods	Statisticheskie metody	Geografik ob'ektlar va hodisalar mohiyatini ochishda turli xildagi raqamli ko'satkichlardan foydalanishga asoslanadi.
Matematik-geografik	Mathematical-geographical	Matematiko-geograficheskiy	Xilma-xil geografik tadqiqotlarda sun'iy yaratilgan ob'ektlar-

modellashtirish metodi	modeling method	metod modelirovaniya	modellardan (geografik karta, globus, matematik formula, grafika, chizma, moslama va h.k.) foydalanish. Masalan, ekologik muammolarni echishda tabiiy jarayonlarni modellashtirish, geotizimlar modellari, tabiiy-hududiy va ishlab chiqarish-hududiy tizimlarning o'zaro munosabati modeli, urbanizatsiyaning salbiy ekologik va ijtimoiy oqibatlari modeli va h.k.
Aerokosmik metod	A Yerospace method	A Yerokosmicheskiy metod	Geografik ob'ektlar va hodisalar mohiyatini ifodalashda kosmik suratlardan foydalanshga asoslanadi. Masalan, a Yerokosmik suratlarni o'qish va ularda mo'ljash olish bilan bog'langan amaliy ishlar. Geografiya ta'limdi mazkur metodning ahamiyati haqida ko'p gapiriladi, biroq amalda bu metodning mohiyati ochib b'yerilmayapti.
Insonparvarlik	Humanity	CHelovechestvo	Tabiatni insoniyatning vujudga kelish va yashash muhiti sifatida qarab chiqish.
Ijtimoiylik	sociality	Sotsialnost	Tabiat va jamiyat hayotida shaxsning tutgan o'mini ko'sratish.
Pedagogik o'qishlar	Pedagogical readings	Pedagogicheskie chteniya	Geografiya o'qituvchilarining metodik mahoratini takomillashtirish, ijodiy tashabbuslarini rivojlantirish va amaliy geografiya ta'limi sohasidagi ilg'or tajribalarni aniqlash, umumlashtirish va amaliyotga joriy etish maqsadlarini ko'zlab o'tkaziladi
Ilmiy-amaliy konfYerensiyalar	Scientific and practical conferences	Nauchno-prakticheskie konfYerensii	Ta'lim muassasalarining geografiya o'qituvchilari tomonidan amaliy geografiya ta'limi masalalari va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlarni muhokama etish maqsadida tashkil etiladi.
Yo'riqli-metodik yig'inlar	Educational meetings	Uchebno-metodicheskie vstrechi	Ta'lim muassasalarida direktor, direktor o'rbinbosarlari, yo'riqchi va geografiya o'qituvchilari tomonidan amaliy geografiya ta'limi bo'yicha o'z echimini kutayotgan ayrim metodik masalalarini tezkor muhokama etish, joriy vazifalarni

			belgilash, o'qituvchilariga joriy yo'riqlar berish maqsadida o'tkazilib boriladi.
Ilg'or tajriba maktabi	School of advanced practice	SHkola Prodvinutoy praktiki	Ta'lim muassasalarida amaliy geografiya ta'limi ishlarni samarali tashkil etayotgan malakali geografiya o'qituvchilari atrofida birlashgan ilmiy-iiodiy guruh bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish bo'yicha geografiya o'qituvchilarining o'zaro pedagogik tajriba almashishini yo'lga qo'yishdan iborat.
Maktab geografiyasi	school geography	SHkolnaya geografiya	Umumiy ta'lim maktablari o'quvchilariga insoniyat yashovchi Yer sayyorasi haqida to'liq ma'lumot beruvchi, ularda geoekologik madaniyatni rivojlantiruvchi yagona o'quv fani hisoblanadi.
Hissiy tabiiy geografik bilish	Emotional natural-geographical knowledge	Emotsionalnye prirodno-geograficheskie znaniya	Adabiyotlarda va amaliyotda «jonli geografik mushohada» deb ham yuritiladi. U geografik bilishning birinchi, Boshlang'ich bosqichini tashkil qiladi. Hissiy geografik bilish o'quvchining sezgilariga bevosita ta'sir etgan tashqi geografik muhit (tabiat) va uning alohida xossalaringin ko'rinishlar, qiyofalar, tasvirlar, manzaralar shaklida miyasida eks etishidir.
Tabiiy geografik sezish	Natural geographic perception	Estestvennoe geograficheskoe vospriyatie	O'quvchi o'zining dastlabki va Boshlang'ich tabiiy geografik bilimlarini o'z sezgilaridan oladi. O'quvchining boshqa barcha tabiiy geografik bilimlari mana shu dastlabki Boshlang'ich bilimlari asosida vujudga keladi. Demak, o'quvchini tabiiy va antropogen muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l ham tabiiy geografik sezishdir.
Tabiiy geografik idrok	Natural geographic perception	Estestvennoe geograficheskoe vospriyatie	Tabiiy geografik sezishga nisbatan birmuncha murakkab jarayon bo'lib, u tabiiy geografik sezish asosida vujudga keladi. Tabiiy geografik idrokning tabiiy geografik sezishdan farqi shundaki, unda tabiiy ob'ektlar yoki

			hodisalarining ayrim xossalari emas, balki tabiiy ob'ektlar yoki hodisalar butun holicha aks etadi. Boshqacha ifodalasak, tabiiy ob'ektlar yoki hodisalarining yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi.
Tabiiy geografik tasavvur	natural geographical imagination	Estestvennoe geograficheskoe voobrajenie	Tashqi muhit ta'siri natijasida bosh miya qobig'ining muayyan qismida paydo bo'lgan qo'zg'alish, ya'ni sezish va idrok ma'lum muddatgacha o'z izini qoldiradi. Demak, tabiiy geografik tasavvur muhitdagi ob'ektlar va hodisalarining xuddi shu onda idrok qilinmaydigan, biroq miyada qolgan, ko'z oldiga keltirilgan manzaraning tiklanishi yoki manzarali xotira, manzaralarda eslashdir.
Umumiyl tabiiy geografik tasavvur	General natural-geographical imagination	Obshoe prirodno-geograficheskoe voobrajenie	Ko'p jihatdan umumlashgan bo'ladi, masalan, tepalik to'g'risidagi tasavvur. Tabiiy geografiya kursida o'quvchilarda tepalik haqida hosil qilingan tasavvur maktab yonidagi aniq tepaliklardan birining tasviri emas, balki umuman tepalik tasvirdir.
Xususiy tabiiy geografik tasavvur	private natural geography	Chastnaya estestvennaya geografiya	Aniq tabiiy geografik ob'ektlar va hududlarning tasviri, manzarasidir. Bu tasavvurlar aniq ob'ektlarni, masalan, aynan Amudaryoni, Sulton Uvays log'ini, Bodayto'qay qo'riqxonasini, Urganch shahri.
Abiiy geografik bilish	Natural geographic knowledge	Estestvennaya geograficheskie znaniya	O'quvchining tabiiy geografik bilish jarayoni yuqorida ta'kidlangan hissия geografik bilish bilangina cheklanmaydi. Hissия geografik bilish asosida o'quvchining o'qish, o'yin va mehnat faoliyati jarayonida ikkinchi, yuqori bosqich
«Tabiiy geografik tafakkur»	Natural geographic thinking	Estestvennoe geograficheskoe myshlenie	Hissия geografik bilish orqali atrof-muhitdagi tabiiy ob'ektlar va hodisalardan olingan «materiallar» ni qayta ishlash, ularning munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim jihatlarini nomuhim jaridan ajratib olish, ular o'rtaisdagi bog'lanishlarni ochish tabiiy geografik tafakkurda amalga oshiriladi

